

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2017

5-son

(sentabr-oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Yoshlarni yurtning haqiqiy suyanchi va tayanchiga aylantirish mamlakat taraqqiyotining kafolatidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

G. Ahmedova 7 Ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda boshlang'ich ta'limning o'рни

S. Qodirova,
D. Nurmuhamedova 11 O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda tayanch kompetensiyalarning ahamiyati

H. Hamzayev 18 Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillari

R. Safarova, R. Nurjanova 22 O'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashda modulli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Mutalipova, I. Nurmatova 27 Malaka oshirish jarayonida fasilitator pozitsiyasi hamda uning maqsad va vazifalari

M. Alibayeva 31 Biologiyaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

D. Mamatqulov 38 Ta'lim turlari kesimida "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish texnologiyasi



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

G. Ergasheva 45 Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy komponentlari



TA'LIMDA MENEJMENT

M. Gapparova 52 Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tashkil etish va boshqarish



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

A. Karimov 56 Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik asoslari



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

M. Shodiyeva 61 Malaka oshirish tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'llari



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

V. O'rozmatov 65 Yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda musiqa san'atining ta'siri



MAKTABGACHA TA'LIM

D. Musayeva 69 Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi ichki tibbiy psixologik-pedagogik komissiyasining ish faoliyatini takomillashtirish tamoyillari

	S. Akbarova	74	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklarni ingliz tilida o'rgatishning lingvodidaktik xususiyatlari
	Y. Maxmutazimova	78	Maktabgacha ta'lim muassasalarida defektolog, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi
	PSIXOLOGIYA		
	F. Akramova	85	Oilada ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik muammolari
	KORREKSION PEDAGOGIKA		
	S. Turg'unbojev	90	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuzini shakllantirishning usul va yo'llari
	F. Umarova	96	O'zlashtirishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlash hamda uning sabablarini aniqlash usullari
	X. Akramova	103	Ruhiy nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik-psixologik tekshirishga oid tavsiyalar
	TA'LIM TARIXI		
	K. Nosirov	107	Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimizning madaniy meroslarini ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash
	TAJIRIBA MAKTABI		
	M. Farmonova	113	Farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning mohiyati
	ILMIY NASHRLAR ORQALI AXBOROT XAVFSIZLIGI		
	N. Temirov, Y. Yusupov	119	Globalashuv jarayonida yoshlarni informatsion tahdidlardan himoyalash: tahlil, natija va yechim
	МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ		
	A. Margrupov	124	Стратегический и функциональный менеджмент: основные принципы и функции
	ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ		
	A. Xasanov, I. Xoldarov	129	Дидактические основы использования межпредметных связей для развития учебно-познавательной деятельности учащихся
	M. Цой	134	Педагогические условия формирования культуротворческой среды в образовательном учреждении
	МУЗЫКАЛЬНОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ		
	H. Rejаметова	139	Духовное развитие дошкольников в процессе музицирования на узбекских народных музыкальных инструментах

YOSHLARNI YURTNING HAQIQIY SUYANCHI VA TAYANCHIGA AYLANTIRISH MAMLAKAT TARAQQIYOTINING KAFOLATIDIR

Davlatimiz olib borayotgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri aynan yoshlarga qaratilgani bejiz emas. Negaki, navqiron avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalashga, huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga e'tibor qancha kuchaytirilsa, uning samarasi ham yuqori bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, bugun yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlar yurtimiz ravnaqida tobora hal qiluvchi kuchga ega bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimi sifatini yanada oshirishga qaratilgan qaror va farmonlar mamlakatimiz yoshlariga keng imkoniyatlar yaratish, vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, o'z iste'dodi va salohiyatini namoyon qilishga imkoniyat yaratib bermoqda. Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun mazkur yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'targanini alohida qayd etishimiz zarur.

Har bir davlatning qudrati unda voyaga yetayotgan kelajagimiz egalarining salohiyati va barkamolligi bilan bog'liqligini bugun barchamiz yaxshi tushunamiz. Shu ma'noda hayotga izchil tatbiq etilayotgan "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan.

Farmonda ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta'lim tizimining uzluksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini yangicha tamoyillar asosida oshirish muhim vazifa etib belgilangan. Harakatlar strategiyasida o'z ifodasini topgan maktabgacha ta'lim tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, kasb-hunar kollejlari faoliyatini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda boshqa masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qisqa davrda mazkur yo'nalishda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mamlakatimiz yoshlarining huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgani va bu tashkilotning hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish,

unga yangi imtiyoz hamda imkoniyatlar berish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha to'xtalib o'tdi.

“Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun eng muhim masaladir. O'zbekiston yoshlar ittifoqi o'zining amaliy faoliyati bilan barchamizning, birinchi navbatda, yoshlarimizning umidlarini albatta oqlaydi, deb ishonamiz”, deya ta'kidladi Yurtboshimiz.

Bugun davr talabi, xalqimizning xohish-istaklarini inobatga olib, ilm-fan, ta'lim-tarbiya tizimida ham jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab ta'lim tizimi tubdan o'zgartirilib, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim qayta tiklandi. Endi 9-sinf maktab o'quvchilari xohishiga ko'ra ta'lim yo'nalishini tanlaydi. Ya'ni o'zi tahsil olayotgan ta'lim muassasasida o'qishni qayta davom ettiradi yoki kasb-hunar kollejlari uch yillik ta'lim oladi. Maktabning yuqori sinf o'quvchilari faqat o'quv fanlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki o'quv-ishlab chiqarish majmualarida biror-bir kasbni o'rganish imkoniga ega bo'ladi.

Shuning uchun ham o'quvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularning kasb-hunar egallashlarini ta'minlash uchun maxsus chuqurlashtirilgan tay-yorgarlikni talab etmaydigan kasblar beradigan O'quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etildi.

O'quv rejasiga ko'ra, 10-sinf o'quvchilari haftada 5 kun umumta'lim fanlarini va 1 kun kasbiy fanlarni o'rganmoqda. Bunda, asosan kasb-hunar kollejlari, agar-da maktablar kollejlardan uzoq masofada joylashgan bo'lsa, mazkur maktablarning o'zida o'quv ishlab chiqarish majmuasi tashkil qilindi. O'quv ishlab chiqarish majmualarida chilangar, tikuvchi, haydovchi, oshpaz, sartarosh, kashtachilik, kulolchilik, qandolatchilik, nonvoy, duradgor, suvoqchi, bo'yoqchi kabi 40 dan ortiq kasb-hunarlarni o'rgatilmoqda.

Mazkur o'quv-ishlab chiqarish majmualarida kasb-hunar o'rgangan o'g'il-qizlarga 11-sinfning yakuni bo'yicha attestat bilan birgalikda mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkonini beradigan davlat namunasidagi hujjat beriladi. O'quvchilar maktablarning 11-sinfini tugatgandan so'ng oliy ta'lim muassasasida o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ladi.

Aytaylik, 11-sinf o'quvchisi oliy ta'lim muassasasiga kira olmadi yoki oliy ma'lumotli bo'lishni xohlamadi? Bunday o'quvchilar kelajakda qanday kasb faoliyati bilan shug'ullanadi? Bu kabi savollar barchada tug'ilishi tabiiy, albatta.

Mazkur holatda bu kabi yoshlar o'quv-ishlab chiqarish majmualarida o'rgangan hunari bo'yicha hunarmandchilik, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi mumkin. Xullas, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga intilgan, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishni o'z burchi deb bilgan, iqtidor va qobiliyatini ro'yobga chiqarishni xohlagan yoshlar hamisha davlatimiz ardog'ida bo'ladi.

Yoshlarni yurtning haqiqiy suyanchi va tayanchiga aylantirish uchun, eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va rivojlantirish jarayoni mamlakatimizda hamisha dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois tizimni tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, samarali boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, bolalarni MTMga to'liq qamrab olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta'lim tizi-

mi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni va “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab olingan.

Yuqoridagi farmon va qarorda belgilab berilgan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi yurtimizda ham zamon talablariga javob beradigan maktabgacha ta'lim tizimini vujudga keltiradi. Natijada barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishi ta'minlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga maktabgacha bo'lgan davrda har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali ularni ona Vatanga muhabbat, pokiza orzular ruhida kamol toptirish bugungi kundagi eng muhim, eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, farzandlarimizning maktabda qanday o'qishi, qanday yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan ularning maktabgacha ta'lim muassasasida oladigan tarbiyasiga bog'liqdir”, deb ta'kidladi.

Mamlakatimiz taqdiri, kelajagiga daxldor bo'lgan yoshlarni hal qiluvchi kuchga aylantirish, ularning ma'naviy, intellektual salohiyatini oshirish, ularda qat'iy hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lishga undash bundan keyin ham ustuvor ahamiyat kasb etib boraveradi.

Maqsadimiz – mamlakatimiz yoshlarini ozod va obod Vatan yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoyalash, mustaqil O'zbekistonning jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni, bozor iqtisodiyoti asoslarini chuqur egallagan fuqarolarini voyaga yetkazishga har tomonlama ko'maklashish, o'sib kelayotgan avlodning inson huquqlari va qadr-qimmatini ulug'lashga, xalqimizning obro'si va nufuzini, yurtimizning shon-shuhratini oshirishga xizmat qiladigan uzoq muddatli, keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Gulasalxon AHMEDOVA,

Andijon viloyati Izboskan tumani 10-maktab o'qituvchisi

TA'LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada uzluksiz ta'limning muhim bo'g'inlaridan bo'lgan boshlang'ich ta'lim uning ta'limda tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, muallif yangi davlat ta'lim standartlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishi zarur bo'lgan malaka talablariga e'tibor qaratib, ma'naviy yetuk farzandlarni voyaga yetkazishda o'qituvchilarning ham zarur kompetensiyalarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlagan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ta'lim, boshlang'ich ta'lim tizimi, davlat ta'lim standarti, kompetensiya, mediatexnologiya, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.

В статье изложены мнения о начальном образовании, являющемся важным звеном непрерывного образования, раскрыты его роль и значение в системе образования. Особое внимание уделено формированию у учащихся начальных классов личностных качеств в соответствии с требованиями новых государственных стандартов образования, указано на необходимость наличия у учителей компетенций для воспитания духовно развитой личности.

Ключевые слова. Непрерывное образование, система начального образования, государственные стандарты, компетенция, медиа технология, учитель начальных классов.

The article contains an opinion on primary education, which is an important link in continuing education, its place and importance in the education system. Particular attention is paid to the formation of the primary classes of personal qualities in students in accordance with the requirements of the new state standards of education, pointed out the need for teachers to have competencies for the upbringing of a spiritual developed personality.

Key words. Continuous education, primary system education, state standards, competence, media technology, teacher of primary education.

Bugun kunda shiddat bilan rivojlanayotgan globallashuv sharoitida yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida, shuningdek, begona, yot, tajovuzkor g'oyalarga qarshi kurash ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shu bois ham yoshlarning katta qismini tashkil etadigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'quvchilarni milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash ishlarini takomillashtirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya kichik yoshdan mukammal olib borilsa, ulg'ayganda o'zining ijobiy natijalarini berishi, shubhasiz. O'tmish tariximizdan yaxshi ma'lumki, ajdodlarimiz doimo bolalarning kichik yoshidan tartibli, odobli,

axloqan pok, kattalarni hurmat qiluvchi, tabiatni sevuvchi, sofdil insonlar bo'lib yetishishiga alohida e'tibor berishgan.

Chunki har bir mamlakatning, yurtning istiqboli, xalqning farovon va osoyishta turmush kechirishi, xavfsizligi, baxtli, to'la-to'kis yashashi, albatta, ertangi kun egalari bo'lgan avlodning qanchalik darajada yaxshi tarbiyalanganligiga bog'liq.

Shu jihatdan olganda, uzluksiz ta'lim tizimi bu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda asosiy rol o'ynaydi. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki poydevori sifatida esa boshlang'ich ta'lim muhim ahamiyatga ega. Chunki bilim olish, ta'lim-tarbiya jarayonining ilk bosqichi boshlang'ich ta'limdan boshlanadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor berilib, o'quvchilarga yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish esa ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir.

Hozirgi davr o'quvchisi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi, voqelikka to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehni, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda, yuksak intellektual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga innovatsiyalarni ta'sis etish zarur va shartdir.

O'z o'rnida bu innovatsiyalar dars jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to'siqlarni yengish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Innovatsiyalarni tatbiq etish jarayonida o'quvchining dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy sifatleri ham ma'lum darajada shakllanib boradi.

Pedagog olimlarning fikricha, o'quvchilarni yangiliklar qabul qilish va unda ishtirok etishga tayyorgarligini shakllantirish, yangilikni qabul qilish qobiliyatini o'stirish maqsadida bilish jarayonini faollashtiruvchi ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish lozim.

Ushbu usullar o'z xarakteriga ko'ra, an'anaviy dars shaklidan farqli o'laroq shaxs kamolotini, uning barkamol shakllanib, ma'naviy rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazmuni o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilanadi. Sohalar bo'yicha ta'lim mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatkichlar boshlang'ich ta'limning Davlat standartlarida berilib, ularda maktabgacha ta'lim jarayoni bilan boshlang'ich ta'lim jarayoni orasidagi uzviylik, fanlararo aloqadorlik, ta'limning insonparvarlik, milliylik kabi tamoyillari o'z aksini topadi.

Boshlang'ich ta'limning ushbu xususiyati – unda matematika va ona tili fanlarining mazmuni, miqdorini belgilashda inobatga olingan. Boshlang'ich ta'limda bilim ta'rif, tushuncha va axborot shaklida berilib, u maktabgacha ta'lim jarayonida tasavvur shaklida egallangan bilimlarni aniqlashtirish, tizimlashtirish, rivojlantirish vazifasini ham bajaradi.

Masalan, yangi davlat ta'lim standartlarida ona tilidan boshlang'ich sinflarga qo'yiladigan malaka talablarida o'quvchilarning nutqiy (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*) va lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*)larini shakllantirish va rivojlantirish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna olish;
- matnni tushunib o'qiy olish;
- og'zaki nutqda so'z va gaplar talaffuziga rioya qila olish;
- 65-70 so'zdan iborat diktantni yoza olish;

-
- xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata olish, xatboshi va husnixatga amal qilish; imlo va tinish belgilarini ishlatish qoidalariga amal qila olish;
 - do'sti, ota-onasi, ustoziga tabriknoma yoki xat yoza olish;
 - ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay olish, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila olish;
 - mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish;
 - yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish.

Matematika fanidan boshlang'ich sinflarga qo'yiladigan malaka talablari esa o'quvchilarning matematika mazmuniga oid umumiy va kognitiv kompetensiya (*shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi*)larini shakllantirishda va rivojlantirishda o'z ifodasini topadi:

- berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qish, yozish, taqqoslay olish, tartibga solib, turli ko'rinishlarda tasvirlay olish;
- sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay olish;
- sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha olish;
- tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qilish, tanish va tasvirlay olish;
- obyektlarni xossalari bo'yicha tartiblash va sodda kombinatsiyalar tuza olish;
- sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita olish, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay olish;
- ma'lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara olish, rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay olish;
- zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo'llay olish;
- o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza olish, tuzilgan reja asosida ishlay olish va o'z faoliyatini to'g'rilay olish;
- matematikani o'rganish jarayonida o'zida ijobiy hissiyotlarni shakllantira olish;
- mustaqil ravishda o'z bilimlarini mustahkamlay olish.

Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'limdan ko'zda tutilgan bunday samarali natija boshlang'ich ta'lim va uni tashkil etish tamoyillari, boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida e'tirof etilgan g'oyalar asosida yaratilgan darslik, o'quv qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, boshlang'ich ta'limni tashkil etish metod va usullari, innovatsion g'oyalar, o'qitishning yangi avlod vositalariga bog'liq, albatta.

O'quvchilarning yuqorida qayd etilgan kompetensiyalarni to'liq egallashida boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rnini, uning kompetentligini alohida qayd qilish kerak. Ular pedagogik-psixologik bilimlar majmuasi, ta'lim samaradorligini oshirish metodlari, omil va vositalari bilan qurollangan, matematika, ona tili, tabiat, inson va jamiyat ta'lim sohalarining ilmiy-nazariy asoslarini mukammal bilishi talab etiladi.

O'qituvchi bolani ta'limiy faoliyatga yo'naltirar ekan, u o'z faoliyatini boshqara olishi, mas'uliyatni his qilishi, vaqtni rejalashtirishi, e'tiborli bo'lish sifatlarini namoyon qila olishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi xorijiy tillarni bilishi, o'qitishning yangi avlod vositalarini, ilg'or ish tajribalar, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llay olishi, keng qamrovli dunyoqarashga ega bo'lib, bolaga ta'sir o'tkaza olish, yo'naltira bilish fazilatlarining mujassamligi ham undagi muhim jihatlardan biridir. Ya'ni zamonaviy-kompetent o'qituvchi kelajak bunyodkori, u tomonidan dars mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o'quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, bu o'quvchining vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin. Chunki o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchi o'zida qisqa vaqt ichida katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olish ko'nikmalarini o'zida mujassam etishi zarur. Uni hal qilishda o'qituvchiga mediatexnologiyalardan foydalanish yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda mediateknologiyalarni qo'llash – fanlararo bog'liqlikni kengaytiradi, mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy qobiliyatlarining jadal rivojlanish jarayoni kechadi, ularning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun asos yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi.

Bunda:

- o'quv jarayonini qiziqarli va natijaviyligini ta'minlash hisobiga o'quvchilarda o'quv materialini anglab olish motivatsiyasi ortadi;
- mustaqil ishlash va o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;
- o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini har bir o'quvchining o'zlashtirishini ta'minlaydi;
- o'quvchilarning fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol bo'lishga erishiladi;
- sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta'minlanadi.

Bunday ta'limiy sifatarga ega bo'lgan o'quvchilar sinfda, ko'pchilik orasida o'zini qanday tutishni, do'stlarini, maktabdoshlarini, katta-yu kichikni hurmat qilishni, Vatan, ona so'zlarining ma'nosini, ularning har ikkisini sevish va ardoqlashni, ularga sidqidildan xizmat qilishni, mehnatni sevishni tushunib yetadi.

Shuningdek, madaniy merosimizga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizning shonli va sharafli hayot yo'lini o'quvchilarga o'rgatish orqali ularni Vatanimizga munosib, har tomonlama yetuk, aqli, bilimli va kuchli insonlar qilib tarbiyalashga, buyuk ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga, ularga ergashishga o'rgatib borish kabi muhim vazifalarni ham boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilishi kerak. Bunda ta'lim-tarbiya orqali o'quvchilarda nafaqat milliy g'urur va iftixor, balki ma'naviy yetuk inson qanday bo'lishi lozimligi borasida ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish vazifalari yanada takomillashib, ustuvor ahamiyat kasb etib boraveradi. Bu esa, o'quvchilarni har jihatdan komil va ma'naviy yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qarori. 2017-yil 6-aprel.*
2. *Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2017. 421-b.*
3. *Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Umaraliyeva M.A. va boshqalar. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – T.: Sano-standart nashriyoti. 2012.*

Surayyo QODIROVA,

Surxondaryo viloyati XTXQTMOI katta o'qituvchisi

Dildor NURMUHAMEDOVA,

Surxondaryo viloyati Termiz tumani

9-umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi qabul qilingan DTS ning afzalliklari, o'quvchilarda tayanch va xususiy kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik metodlardan samarali foydalanish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Davlat ta'lim standarti, o'quv dastur, tayanch kompetensiyalari, pedagogik metodlar, o'quv mashg'uloti, izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash, mahorat.

В статье раскрыты преимущества модернизированных Государственных стандартов, их значение при формировании опорных и личных компетенций учащихся. Также рассматривается вопрос эффективного использования инновационных педагогических методов при организации учебно-воспитательного процесса, основанного на компетентностном подходе.

Ключевые слова. Государственные образовательные стандарты, учебная программа, ключевые компетенции, педагогические методы, учебное занятие, исследование, самостоятельное мышление, мастерство.

Article reveals the advantages of modernized state standards, their importance in the formation of the basic and personal competencies of students. Also considered the issue of effective use of innovative pedagogical methods in the organization of the educational process based on the competence approach.

Key words. State educational standards, curriculum, supporting competencies, pedagogical methods, training classes, research, independent thinking, skill,

Barchamizga ma'lumki, "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da boshqa sohalar qatorida ta'lim sifatini tubdan oshirish bo'yicha ham muhim vazifalar belgilab qo'yildi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizning yetuk mutaxassislari barcha yo'nalishdagi fanlar bo'yicha davlat ta'lim standarti (keying o'rinlarda: DTS) va o'quv dasturlarini yangilash borasida tinimsiz izlanishlar olib borishdi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 6-aprelda "Umu-

miy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari” tasdiqlandi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSning tasdiqlanishi va o'quv dasturlarining 2017-2018-o'quv yilida ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanishi istiqboldagi ta'lim mazmunining yuqori saviyada tashkil etilishiga zamin bo'la oladi. Shu o'rinda yangi DTSning maqsad va vazifalarini keltirib o'tsak, yuqoridagi fikrimizni tasdiqlay olamiz:

Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya metodlariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- b) milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- d) o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya metodlarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- e) kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- f) ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- g) davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot metodlarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishlari zarur. Buning uchun esa, ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuvga asoslantirilishi yosh avlodning kelajagi uchun asos bo'la oladi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarini tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z navbatida, har bir o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Ta'limdan asosiy maqsad, bolalarga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslarni jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish o'quvchi faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, tayanch kompetensiyalari bilan bir qatorda shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, har bir fanga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Kompetensiya – fan bo'yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va nazariy malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Kompetentlik shaxsning ijtimoiy-professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga yetarilik hamda haqiqiy moslik darajasi bo'lib, uning tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyatli, real baholay olishi, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. Demak, har bir o'qituvchilarning ona tili va adabiyot fanidan ta'lim berish jarayonida o'quvchilarda kompetentlik yondashuvini shakllantirishi lozim bo'ladi. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda o'rgatish tushuniladi.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Yurtimizda ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalari shakllantiriladi:

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi (ona tili va adabiyot fani misolida):

1. Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*).

2. Lingvistik kompetensiya (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid*).

Ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan innovatsion pedagogik metodlarning darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llanishi ta'lim mazmunining asosiy shartlaridan biridir. O'quv-tarbiya jarayonida sinfdan va sinfdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar nafaqat o'quvchining nazariy bilimini shakllantiradi, balki uning dunyoqarashini kengaytirishda, aqliy qobiliyatini o'stirishda, olgan nazariy bilimni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi dars jarayoni, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish uchun izlanishi, o'quvchi bilan erkin muloqotda bo'lish usullarini ishlata olishi – o'qitishning sifatini va samaradorligini oshirishga zamin bo'la oladi.

Shuningdek, bir vaqtda axloqiy tarbiya vazifalari ham amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilarda axloqiy, estetik, etik qarashlar, tasavvurlar va shunga muvofiq xatti-harakatlar, munosabatlar, ehtiyojlar tizimi shakllantiriladi. Ta'limning tarbiyaviy vazifasi obyektiv jarayonni belgilangan maqsadga yo'naltirganlik bilan belgilanadi.

Har qanday axloqiy tarbiya ta'lim jarayonining borishiga ijobiy, foydali ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy tarbiya intizomga, uyushqoqlikka, faollikka undaydi va o'z navbatida, ta'lim vazifalarini oson bajarish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni uch qirralidir. Birinchisi, bilim, ko'nikmaga va undan keyin malakaga aylanish jarayoni, ikkinchisi, shaxsiy sifatlarni tarbiyalash va nihoyat, uchinchisi, shakllangan xislatlarni mustahkamlashdan iborat. Ta'limning bu jarayonlari yonma-yon amalga oshiriladi, deb yondashish mumkin emas. Bu qirralar juda murakkab bog'liqlikda bo'ladi, biri boshqasining davomi sifatida yuzaga chiqadi. Albatta, axloqiy tarbiya jarayoni to'g'ri tashkil etilgan holatda ta'limning borishi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday tarbiya intizom, uyushqoqlik, faollik va boshqa ko'pgina, fazilatni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtarakligini namoyon etadi. Axloqiy tarbiya va ta'lim yaxlitligini ta'minlovchi omillardan biri ta'lim usullari tarbiyaning tarkibi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, tarbiya usullarining o'zi ta'lim olishni rag'batlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim va axloqiy tarbiya shaxsning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Egallangan bilimlar amaliy harakatlar bilan mustahkamlab borilsa, o'quvchi va o'qituvchi oldiga qo'yilgan talablar yuqori saviyada bajariladi va o'z natijasini beradi. Yosh avlodni ta'lim olishga qiziqtirish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini shakllantirish, ishonch hosil qilish va odatlantirish, hozirgi kunning va kelajakning talabidir. O'quvchilar mustaqil bilim olish ko'nikmasiga ega bo'lsa, mustaqil o'qishga intilsa, u har tomonlama rivojlanadi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning mustaqil ishlashiga keng imkoniyatlar beriladi. Kompetensiyali yondashuvda – o'qitish maqsadlari o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv maqsadlariga erishish yo'llarini tushunish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o'quvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo'nalishlarni mo'ljallashni nazarda tutish zarur.

Yangi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSning bitiruvchilarga qo'yilgan talablarni bajarishda kompetentli o'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotlarining turiga qarab to'g'ri tanlangan innovatsion pedagogik metodlarning qo'llanishi orqali ko'zlangan maqsadga erishiladi. Hozirgi kunda innovatsion pedagogik metodlar, interfaol uslublar juda ko'p, ammo uni maqsadli foydalana olishgina ta'lim sifat-samarador-

ligini oshiradi. Dars mashg'ulotlarining vaqti chegaralanganligi bois, uzviy bog'langan holda olib boriladigan to'garaklar va individual mashg'ulotlarda ham tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodlaridan unumli foydalanilsa, ta'lim mazmuni yanada takomillashadi. Jahon pedagogik tajribasi zamonaviy pedagogik metodlarning o'quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, uning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishda imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun, ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini va sharoitini yaratish zarur.

Yuqoridagi mas'uliyatlarni hisobga olgan holda misol tariqasida keltiriladigan quyidagi pedagogik metodlardan darsda, ham to'garaklarda o'rinni foydalanish nafaqat o'quvchining bilimini oshiradi, ongli ravishda ma'naviy salohiyatini yuksaltiradi.

Charxpalak metodi – o'quvchilarning o'tilgan mavzularini yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga qaratilgan. Metodlarning maqsadi – o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, o'z fikrini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan kerakligini tanlab olishga o'rgatishdir. Foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam yoki flomasterlar. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilar (sharoitga qarab) guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida tarqatma materiallardagi vazifalar guruh a'zolari tomonidan yakka tartibda mustaqil ravishda bajariladi;
- har bir guruh a'zosi o'zi ishlagan tarqatma materialning o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa, o'zining biror-bir ramziy belgisini chizib qo'yadi;
- vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlariga "charxpalak aylanmasi" yo'nalishida almashtiriladi;
- boshqa guruh a'zolarining yakka tartibda bajargan vazifalar varaqalari yakka tartibda yangi guruh a'zolari tomonidan o'rganiladi va o'zgartirishlar kiritiladi;
- jamoalar tomonidan o'rganilgan va o'zgartirishlar kiritilgan materiallar yuqorida eslatilgan yo'nalish bo'yicha guruhlariga almashtiriladi;
- materiallarni oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh va har bir guruh a'zosi o'zlari ilk bor to'ldirgan materiallarini tanlab oladilar;
- o'zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a'zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar;
- o'qituvchi tarqatma materiallarda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan to'g'ri javoblarni belgilaydi.

Ushbu metod asosida o'quvchilarning tayanch va xususiy kompetensiyalari shakllantiriladi. Bundan tashqari, o'quvchini mustaqil ravishda ishlashga undovchi ta'lim metodlardan biri bu – "Bunerang – 2".

"Bunerang – 2" metodi bir mashg'ulot davomida o'quv materiallarini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va yondashuvga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, og'zaki va yozma ish shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Mashg'ulot mobaynida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarish, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rovida bo'lish va mos ballarni to'plash imkoniyatini beradi. "Bunerang – 2" metodi o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, ularda mantiqni shakl-

lantirishga imkoniyat yaratadi, shuningdek, ularning xotirasini, g'oyalari, fikrlarini, dalillarini yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metod o'quvchilarga ta'lim bilan bir qatorda tarbiyaviy yondashuvdagi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- xushmuomalalik;
- xushfe'llik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- faollik;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini baholash kabi qator sifatlarini ham shakllantirish imkoniyatini beradi.

Ochiq savollar – muomala qilish va o'zaro so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi, shu bilan birga ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – oldindan “ha” yoki “yo'q” turidagi to'g'ri va ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi.

Ko'ndalang so'roq – o'quvchilar bir-biriga guruhlab beruvchi qisqa savollar qatoridan iborat bo'lib, o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar egallagan holatini aniqlash, shuningdek, muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida o'zaro munozaraga kirishish mumkin bo'lmay, balki faqat savollar berilishiga ruxsat beriladi.

“Muloqot” metodi o'quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida mustaqil fikrlashiga, o'z fikrlarini erkin bayon etishiga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda, bunday mashg'ulot o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratgan holda o'tkaziladi. Metodning maqsadi: tanlangan mavzu, muammo asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatishdan iboratdir.

Shuningdek, “Yelpig'ich” metodi ham murakkab va ko'p tarmoqli bo'lib, muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot bitiladi. Ayni paytda ularning har biri aholida elementlarda muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi. Bu interfaol metod o'quvchilarga tanqidiy, tahliliy va aniq mantiqiy fikrlashlarini muvafaqqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Yelpig'ich” metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashchining va umuman guruhning faol ishlashiga qaratilgan. “Yelpig'ich” metodi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida:

- boshida – o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida – uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida – olingan bilimlarni tartibga solishda qo'llanishi mumkin.

Yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga xizmat qiluvchi bunday pedagogik metodlarni ko'plab keltirishimiz va ilg'or tajribalardan misollarni taqdim etishimiz mumkin. Ammo maqsadimiz misollar bilan cheklanib qolish emas, aksincha, har bir ta'lim-tarbiya mazmunini aks ettirgan mashg'ulotlar turiga qarab o'quvchining qobiliya-

ti, dunyoqarashiga mos keluvchi ta'lim metodlarni to'g'ri tanlay olish va tatbiq etishdan iboratdir. Shundagina ertangi avlodimiz bo'lgan o'quvchilar kelajagiga zamin yarata olamiz.

Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz joizki, inson qobiliyatining chegarasi yo'q, faqat bu imkoniyatni muayyan faoliyatga yo'naltira bilish lozim. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Kamil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib beradi, o'z fikr-o'yi xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi".

Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohibi va sohibalarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etish biz, sharafli kasb egalari zimmasidadir. Ta'lim jarayonida, darsda va darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda o'qituvchilarning pedagogik ijodkorligi o'quvchilarda zarur hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ishonamizki, yangi qabul qilingan DTS va o'quv dasturi jahon tan olgan jannatmakon yurtimiz O'zbekistonning yanada porloq kelajagi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. 2017-yil 6-aprel.*

2. *Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi – T., 2017.*

3. *Turdiyev N. Sh. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish muammoning yechimini topish va jamiyatda munosib o'rin egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 2014-yil.*

4. *Pardayeva M., Musurmonqulov O., Qo'shmonov A. O'quvchilarning ta'lim-tarbiyasidagi muhit: muammo va yechim. – T., 2015.*

Haqnazar HAMZAYEV,
Jizzax Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA IJTIMOIY FAOLLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivlashtirish va motivatsiyaning o'rni hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning ahamiyati ilmiy asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar. Motivatsiya, ijtimoiy faollik, shaxs tushunchasi, insonparvarlik, ta'lim-tarbiya jarayonlari, ijtimoiy faoliyat, o'qish, o'rganish, pedagogik jarayonlar, metod, yondashuv, takomillashtirish.

В статье рассматривается роль мотивации в формировании навыков социальной активности учащихся, раскрывается и научно обосновывается значение их внедрения в практику будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова. Мотивация, социальная активность, понятие личности, гуманизм, образовательный процесс, социальная деятельность, чтение, обучение, педагогические процессы, методология, подход, развитие.

Article examines the role of motivation in the formation of skills of social activity of students, reveals and scientifically substantiates the significance of their implementation in the practice of future primary school teachers.

Key words. Motivation, social activity, the concept of personality, humanism, the educational process, social activity, reading, training, pedagogical processes, methodology, approach, development.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimi bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mazkur jarayon ishtirokchilarining moddiy va ma'naviy turmush sharoitini yaxshilash, ta'limga turli yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish va bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishiga bo'lgan talab va e'tibor ortib bormoqda.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yaratilayotgan imkoniyatlar ularning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi va yangiliklarni tez o'zlashtirishi hamda zamon talablari darajasida bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Ma'lumki, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida oddiydan-murakkabga, eskilikdan-yangilikka qarab harakat qiluvchi,

yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo'lgan ijtimoiy faol yoshlarni, mutaxassislarni tarbiyalashga alohida yondashilmoqda.

Bunday vazifalar o'z-o'zidan amalga oshmaydi, shu o'rinda bo'lg'usi o'qituvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganish, o'quv faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish orqali ularda ijtimoiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish muhim sanalib, bunda motivlashtirish yoki motivatsiya o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Insonning qobiliyati bevosita motivlashgan mexanizmlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muhitini belgilaydi va dinamik ma'naviy ta'sir etish munosabatini o'zida aks ettiradi. Motiv bilan munosabatlari psixik faollikning bevosita bajarilishi negizi hisoblangan faoliyat orqali namoyon bo'ladi.

Adabiyotlarda ijtimoiy faollik haqida keng ma'lumotlar berilgan. Demak, ijtimoiy faollik – faollikning yuksak shakli sifatida qaralgan.

“Ijtimoiy faollik atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo'lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Shunday qobiliyat bo'la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjud. U qandaydir alohida xususiyatni, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi”.

Talabalarning ijtimoiy faolligi ular o'qiydigan, ishlaydigan, hayot tajribasini egalaydigan ta'lim jamoalarining ijtimoiy faolligi bilan bog'liq. Bu jarayon intizom, tashkilotchilik va mas'uliyatning past darajasi hukm surgan jamoalarda to'xtab qolishi mumkin. Boshqa tomondan, o'quvchilarning faolligi rivojlanishining muvaffaqiyati ularning har birining individual fazilatlariga va shaxsiy intilishlari motivatsiyasiga bog'liq.

Ijtimoiy faollikni shakllantirish jarayonini motivatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Albat, mazkur jarayonni tadqiq qilishda motivatsion yondashuv samarali hisoblanadi. Motivatsion yondashuv ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, uning nazariy ahamiyati shunda ko'rinadiki, o'quvchini o'qishga jalb qilishning, samarali ta'lim berishning psixologik mexanizmlarini, o'ziga xosliklarini o'rganishga qaratisa, amaliy ahamiyati esa nazariy bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadi. Demak, motivatsion yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida motivlashtirish ularda ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, xalqi va millatiga munosib farzand bo'lib shakllanishga, sadoqat va e'tiqod, irodaviylik, erkinlik va bag'rikenglik, rostgo'ylik kabi qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatish kabi tushunchalarni o'zlashtirish va ularda mazkur tushunchalarni o'rganish uchun qiziqishlarni vujudga keltiruvchi ijobiy motivlarni shakllantirish muhim sanalib, ular o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, motiv o'zi nima? Motiv deganda nimani tushunish mumkin? Ijtimoiy faollikni shakllantirishda qaysi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi? O'quvchilarda motivlar oldindan shakllangan bo'lishi mumkinmi? Motivlarning qanday turlari mavjud? Motiv – bu insonning xulq-atvorini ichki psixologik boshqarish bo'lib, yo'naltirilganlikni, tashkil qilinganlik, qo'llab-quvvatlanganlikni o'z ichiga oladi.

Motiv tushunchasi adabiyotlarda turlicha ta'rif qilinadi. A.Maslou motivni ehtiyoj, qiziqish bilan bog'lasa, A.N.Leontev motivni ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiladi va inson faoliyatini yo'naltiradigan va uni qo'zg'atadigan obyektivlik deb qaraydi. L.I.Bojovich esa, motivni nafaqat tashqi obyektiv omillar, balki tasavvurlar,

g'oyalar, his-tuyg'ular, bir so'z bilan aytganda, ichki subyektiv omillar ko'rinishi deya ta'rif beradi.

Shuningdek, bir guruh olimlar Dj.Gilford, B.R.Xilgard, K.Obuxovskiy, A.Levitskiy, P.I.Ivanovlar motivni faollikni boshlovchi va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi omil, shaxsni muayyan bir xatti-harakatga undovchi, zaruratni his qilinishi, u ichimizda maqsadni qo'yishga qo'zg'atadi va xatti-harakatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni qabul qilishga olib keladi, deb ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan olimlarning motiv haqidagi fikr va mulohazalariga to'xtaladigan bo'lsak, ular shaxsni xatti-harakatga keltiruvchi, turtki bo'lib xizmat qiluvchi, ularning maqsadi, qiziqishi, orzu-istagi, niyati, intilishi, manfaati, ehtiyoji va e'tiqodlarini motiv deb qaraydi. Ayrim olimlar motivni jarayon sifatida qarab, insonlarni xatti-harakatga keltiruvchi, ya'ni ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar deb hisoblaydi.

Demak, motiv psixologik adabiyotlarda insonni ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga undaydigan, yo'naltirilgan harakat yoki qo'zg'atadigan kuch-quvvat deb keltirilgan.

Y.P.Ilanning fikriga ko'ra, motiv – odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, ehtiyojlarining turiga qarab motivlar ham har xil bo'ladi. Psixologiyada motivlar ikkita katta kategoriyaga bo'linadi: tabiiy motivlar hamda ma'naviy motivlar. Motivlar ularning mazmunini aks ettirish shakliga qarab ham bir-biridan farq qiladi: hissiyot, tasavvur, fikr, tushuncha, g'oya, ma'naviy ideal va boshqa motivlar. Ba'zi hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko'pincha, murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmay, muayyan maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to'g'ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o'zidir. Haqiqatda, motivlar faollashgan, maqsadga qaratilgan, faqat xayolda amalga oshuvchi yoki idrok qilingan bo'lishi mumkin. Asosan, bularning zaminida u yoki bu ehtiyojlar turadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashda motivlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ularda ijtimoiy faollikning shakllanishi va rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga bog'liq bo'lib, mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati o'quv faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga tayyorlashga ta'sir ko'rsatuvchi motivlarni o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, bunday motivlarni o'quv motivlari deb ham aytish o'rinlidir. O'quv faoliyatlari har xil bo'lishi mumkin, ammo asosiy motiv bo'lib (maxsus) o'rganishga qiziqishi hisoblanadi. O'quv faoliyatining asosiy vazifasi o'quvchining ilmiy nazariyalari asosida mustaqil fikr yuritilgan o'rgatish hisoblanadi.

Ta'lim olishga, kasb-hunar egallashga undovchi motivlar haqida fikr yuritilganda Abu Rayhon Beruniyning ilm olish haqidagi fikrlarini keltirish asosida o'quvchilarda intilish va qiziqish, ehtiyoj kabi o'quv motivlarining ijobiy ta'sir ko'rsatishini aytish mumkin.

Mutafakkirning ta'kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchida intilish va qiziqish bo'lishi kerak. Ilm olishning muhim yo'llaridan biri kishi o'zini hammaga do'st tutishi va yaxshilik qila bilish darajasiga yetkazishdan boshlanadi. U ilm olish uchun dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlargina kamolati sari intiladi, deb ishoniradi.

A.Fayzullayev motivlashtirish jarayonini besh bosqichga bo'lib o'rganadi. Birinchi bosqich – xatti-harakatlarning vujudga kelishi va anglanishi. Xatti-harakatlarning to'liq anglanishi harakat qanday vosita ta'sirida amalga oshganligini anglash hamda mazkur harakatni amalga oshirishning usullari va natijalarini oldindan aniqlash orqali belgilanadi. Ikkinchi bosqich – motivlarning qabul qilinishi bo'lib, bu xatti-harakatlarni ichki motivlar asosida amalga oshirishni ifodalaydi. Bu bosqichda inson o'zining axloqiy prinsiplari va qadriyatlarini tahlil qilib, vujudga kelgan ehtiyoj, mayl va uning uchun qanchalar muhimligi va ularni qondirish zaruriyati to'g'risida qaror qabul qiladi. Uchinchi bosqich – bu motivning amalga oshirilish bosqichi bo'lib, mazkur jarayonda vaziyatlarga ko'ra motivlarning mazmuni o'zgarishi mumkin. To'rtinchi bosqich – motivning mustahkamlanish bosqichi bo'lib, bu bosqich natijasida motiv xarakter belgisiga aylanadi. Beshinchi bosqich – xatti-harakatlarning faollashuv jarayoni bo'lib, mazkur jarayonda mustahkamlangan motiv(xarakter)ning ma'lum bir xususiyati anglangan yoki anglanmagan holda maydonga chiqadi.

Demak, motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, talabalar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan yo'naltirish maqsadga muvofiq. Tadqiqotlar jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiya va motivlashtirishning o'рни, ahamiyati hamda uning o'ziga xos xususiyatlaridan keng foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, haqiqatdan ham shaxsni qaysi bir faoliyat turiga yo'naltirmang bunda motivatsiya, motivlashtirish muhim omil bo'lib xizmat qilishi va shaxsni turli sohalarga yo'naltiruvchi faoliyat jarayonini samarali tashkil etishda esa motivatsiya va motivlar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Masalan, o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning o'rnini qanday tushinasiz? degan savolga 100 nafar respondentlardan 70 nafaridan ortig'i ijobiy javob berdi. Ayniqsa, ular motivatsiya insonni muayyan ehtiyojlardan kelib chiqib har qanday faoliyatga undovchi, yo'naltiruvchi, qiziqdiruvchi, kerak bo'lsa shaxsni qo'zg'atuvchi kuch ekanligini alohida takidlab o'tishdi.

Shuni alohida aytish kerakki, motivlashtirish jarayonida o'quvchi ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Xotira boqiydir, qadr – muqaddas // O'zbekiston ovozi*, 2007. №56.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: *Ma'naviyat*, 2008. 176-b.
3. Haydarov F.I. *O'quv faoliyati motivatsiyasi: Monografiya*. – T.: *Fan*, 2005. 122-b.
4. Файзуллаев А.А. *Мотивационная саморегуляция личности*. – Т.: *Фан*, 1987. – С.33.
5. Ильин Е.П.. *Мотивация и мотивы*. СПб.: *Питер*, 2000. – С.512.

Roxatoy SAFAROVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI professori,
pedagogika fanlari doktori

Rayxan NURJANOVA,

Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA MODULLI TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada modulli o'qitish texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, modulli o'qitish jarayonida o'quvchilar faoliyatining muhim jihatlari, o'qituvchi tomonidan bajariladigan pedagogik harakatlar, xususiy maqsadlar bilan integrallashgan maqsadlar orasidagi aloqadorlik, o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar, o'z-o'zini va bir-birlarini baholashga oid faoliyatlarining xarakteri ochib berilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanishning ustuvor jihatlari va modulli o'qitish dasturlarini yaratishda tayaniladigan prinsiplar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. Modulli o'qitish texnologiyasi, modulli tizim, o'qituvchilar bilan o'quvchilar harakatlari, individual muloqot, mustaqil ishlash, o'quv materiallari qismlari, didaktik materiallar.

В данной статье раскрыты особенности технологий модульного обучения, определены наиболее важные аспекты деятельности учащихся в процессе модульного обучения, а также педагогические действия учителя, показана взаимосвязь специальных учебных и интегративных целей, охарактеризованы самостоятельная деятельность учащихся и возможности само-и взаимооценки. Обозначены принципы использования названных выше технологий в учебном процессе и при создании программ модульного обучения.

Ключевые слова. Технология модульного обучения, система модулей, взаимодействие учащихся и учителя, индивидуальное общение, самостоятельная работа, части учебного материала, дидактические материалы.

Article reveals the features of the modular learning technologies, identify the most important aspects of the students' activity in the process of modular training and also educational activities of teacher, it shows the relationship of special education and integrative purposes, described independent activity of the students and the possibility of self-and interassessment .

Also indicated the principles of using the above technologies in the teaching process and the creation of modular training programs.

Key words. Modular technology of training, system modules, interaction of students and teachers, personal communication, independent work, part of the educational material, didactic materials.

Bugungi kunda o'quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko'rsatkichiga erishish talab qilinadi. Bu vazifalarni hal etish uchun ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmoqda. Hozirda uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonlarida ko'plab samarali texnologiyalardan foydalanib, ta'lim sifatini ko'tarishga erishilmoqda. Shunday texnologiyalaridan biri modulli o'qitishdir. Modulli o'qitish texnologiyasi modullarga asoslanadi. Shu o'rinda modul tushunchasiga aniqlik kiritaylik. "Modul" lotincha so'z bo'lib, "qism" yoki "bo'lak", "blok" degan ma'noni bildiradi. Demak, modul – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha.

Hozirda butun dunyo miqyosida modulli o'qitish texnologiyalariga alohida qiziqish bilan qaralmoqda. Modulli o'qitish texnologiyalari an'anaviy texnologiyalardan o'zining quyidagi jihatlari bilan farq qiladi. Ular:

1. Modulli o'qitish tizimida qo'yilgan didaktik maqsadga muvofiq tarzda ta'lim mazmuni yakunlangan, mustaqil axborot bloklaridan tashkil topadi. Mazkur didaktik maqsad nafaqat o'rganiladigan o'quv materialini ko'lami, balki uni o'zlashtirish darajasini ham nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda har bir modulda axborotlar o'z ifodasini topadi. Ushbu axborotlardan o'quvchilar zarur o'quv materialini va ulardan unumli foydalanishga oid tavsiyalarni izlab topa oladilar.

2. Ta'limning an'anaviy shakllaridan voz kechish, shubhasiz, o'quv jarayoni subyektlari orasidagi muloqotning xarakterini ham o'zgartiradi. Bu o'rinda subyektlar orasidagi muloqot o'quv moduli va ishtirokchilarning individual-shaxsiy muloqotlari orqali amalga oshadi. Modulli o'qitish jarayonida muloqot subyekt-subyekt munosabatlari tarzida namoyon bo'lib, o'qituvchilar bilan o'quvchilar orasidagi munosabat o'zaro tenglikka asoslanadi.

3. Modulli o'qitish jarayonida o'quvchilar to'liq mustaqil bilim oladilar hamda bilish faoliyatlarini mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Bu jarayonda o'quvchilar maqsadga yo'naltirilgan, mustaqil rejalashtirish, o'z faoliyatlarini mustaqil namoyon etish, o'z-o'zlarini mustaqil nazorat qilish, baholash asosida bilim olishga muvaffaq bo'ladi. Bu esa, o'quvchilarga o'zini faoliyat jarayonining subyekt sifatida idrok etishlariga ko'maklashadi. Shuningdek, ular o'z faoliyatlaridagi kamchiliklar, yetishmovchiliklarni mustaqil tarzda ko'ra oladilar.

4. Ishchi dasturlar, ma'ruza konspektlari, elektron darsliklar, o'quv predmeti mazmunini modul shaklida taqdim etish o'qituvchiga o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Bunday vaziyatda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan maqsadga yo'naltirilgan holda yakka tartibda ishlash, o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, zarur hollarda ularga yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Modulli yondashuvning konseptual asosi sifatida yaxlitlik, tarkiblilik, pog'onalilik, ko'p variantlilik, tizimning muhit bilan o'zaro aloqadorligi prinsiplariga asoslangan tizimli metodologiyaga tayanadi.

Modulli o'qitish texnologiyalari qurilishi va amalga oshirilishining asosiy umumilmiy metodologik prinsiplari tizimli, faoliyatli va shaxsiy yondashuvlardan iborat. Jumladan:

1. Tizimli yondashuvga asoslangan ta'lim amaliyotiga tatbiq etiladigan har qanday pedagogik texnologiya o'zida pedagogik tizim loyihasini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqqan holda o'qitishni modulli yondashuv asosida tashkil etish to'la

o'zlashtirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy-pedagogik tizimni ifodalay oladi. Bunday tizim uchun tarkib, qurilish, tashqi olam bilan aloqadorlik xarakterlidir. Ijtimoiy-pedagogik tizim dastlab maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular oldindan aniqlangan maqsad asosida loyihalashtiriladi va faoliyat ko'rsatadi. Xususiyl maqsadlarning ko'p variantlilikini ularni ko'p funksional, moslashuvchan, tashqi muhitga nisbatan mustaqil bo'lishini ta'minlaydi. Modulli o'qitish dasturlari va alohida o'quv modullari mana shunday o'ziga xoslikka ega. O'quv jarayonini modulli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish o'quv jarayoni subyektlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlari bo'lib, mazkur faoliyat boshqariladigan tizimning qulayligi va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Qulay pedagogik shart-sharoitlar, vositalar, yo'llar yordamida o'quv jarayoni yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Pedagogik jarayon subyektlarining yetakchi bo'g'ini o'qituvchilar va o'quvchilar hisoblanadi. Ular modulli o'qitish jarayonida o'zaro teng huquqli hamkorlar mavqeini egallaydilar. Bu modulli o'qitish texnologiyalarining insonparvarlikka yo'naltirilganligini ifodalaydi.

2. O'quv jarayoniga faoliyatli yondashuv konsepsiyasi uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar o'quv jarayonining faol subyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Ular o'quv materiallarini faoliyat darajasida o'zlashtiradilar. Xuddi mana shunday sharoitda o'quv jarayonida o'quvchilarning bilimlarni ongli, mustahkam o'zlashtirish imkoniyati ta'minlanadi. Bu esa o'quvchilarning bilish layoqatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini rag'batlantirib, o'qituvchining o'quv jarayonida mayllarni boshqarishini ta'minlashga asos bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini yo'naltiradi, tashkil qiladi, ularga maslahatlar beradi va nazorat qiladi. Modulli o'qitish texnologiyalari o'quv jarayonini subyekt-subyekt munosabatlariga asoslangan holda amalga oshirilishini hamda o'quvchilarda o'quv mayllari, mustaqillik, o'quv-biluv faoliyatini mustaqil boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi.

3. Modulli texnologiyalarni loyihalash va amaliyotga tatbiq etishga nisbatan shaxsiy yondashuv har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv o'quv dasturlarini individuallashtirish, o'quvchilarga qo'shimcha o'quv kurslarini tanlash hamda chuqurlashtirilgan o'quv kurslarini tanlash imkoniyatining berilishida namoyon bo'ladi.

O'quv materiallari tarkibidagi ilmiy bilimlarning o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning mavhumlik darajasini asta-sekin kuchaytirib borishni ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchilarning mavhum ibora va tushunchalarni o'zlashtirishga sarflaydigan vaqtini chegaralash zarurligini hisobga olish kerak. Bunday tushunchalar har bir matn doirasida bitta yoki ikkita bo'lishi, ular izohlanishi, ikkitadan ortgan taqdirda esa ba'zilar avval o'rganilgan bo'lishi kerak. Taqdim etilgan o'quv materiallari o'quvchilarda matnlarni o'qish jarayonida mustaqil fikrlash, mushohada yuritish, o'zlashtirilgan bilimlarni eslash, ularni taqqoslash, idrok etish ko'nikmalarini mustahkamlashi lozim. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash layoqatlarini rivojlantiradi.

Modulli o'qitish texnologiyasining nazariy-metodologik negizi quyidagilardan iborat:

– aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi (P.Y.Galperni va boshqalar): bu o‘rinda yetakchi tushunchalardan biri faoliyatning harakatlantiruvchi yo‘nalishi hisoblanadi;

– dasturlashtirilgan o‘qitish nazariyasi: uning asosiy ko‘rinishlari o‘quvchilar harakatining aniq mantiqi va algoritmini ifodalaydi. Bu jarayonda o‘quvchilarning faolliklari, o‘z xatti-harakatlarini mustaqil nazorat qila olishlari, o‘quv-biluv faoliyatining maromi yaqqol namoyon bo‘ladi;

– modulli o‘qitish jarayoniga tizimli yondashuv nazariyasi: o‘quvchilar faoliyatini, ularning mayllarini hisobga olgan holda boshqarish, o‘z faoliyatlarini mustaqil boshqarishga asoslangan reglamentga o‘tishni ta‘minlashda namoyon bo‘ladi;

– modulli o‘qitish jarayoniga refleksiv yondashuv nazariyasi: bu o‘quv-biluv jarayonini refleksiv boshqarish g‘oyasiga asoslangan. Bu jarayonda o‘quvchi o‘z faoliyatining mohiyatini anglab yetadi;

– tabaqalashtirilgan, muammoli o‘qitish va faollashtirishning nazariy asoslariga tayangan yondashuv: bu modulli o‘qitish texnologiyalarining prinsiplari, qonun-qoidalari va uni amaliyotga tatbiq etish metodlari va shakllarida o‘z ifodasini topadi.

Modulli o‘qitish texnologiyalarining o‘ziga xos jihatlarini namoyon qiluvchi asosiy tushunchalar: “modulli dasturlar (MD)”, “mujassamlashgan didaktik maqsad (MDM)”, “integrallashgan didaktik maqsad (IDM)”, “xususiy didaktik maqsad (XDM)”, “o‘quv elementlari (O‘E)”, “kirish nazorati (KN)”, “joriy nazorat (JN)”, “oraliq (ON)”, “umumlashtiruvchi xarakterdagi yakuniy nazorat (UXYAN)”lardan iborat.

Modulli o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun, birinchi navbatda, har bir o‘quv fani bo‘yicha modulli dasturlar tuzish talab qilinadi. Buning uchun o‘quv fani bo‘yicha modulli dastur tuzish jarayonida bir qator ishlarni amalga oshirish lozim. Jumladan:

– o‘quv fanining asosiy g‘oyasini ajratish;

– mazkur g‘oya doirasida alohida bloklar shaklida o‘quv mavzularini tarkiblashtirish;

– mujassamlashgan didaktik maqsadni shakllantirish;

– mujassamlashgan didaktik maqsadlardan kelib chiqqan holda integrallashgan maqsadni ajratish hamda ular asosida muayyan modullarni shakllantirish, bunda har bir modulning integrallashgan didaktik maqsadga ega bo‘lishini ta‘minlash;

– har bir integrallashgan maqsadni xususiy didaktik maqsadlarga ajratish, chunki modullar yirik bloklarga birlashgan o‘quv materiallarini o‘z tarkibida mujassamlashtiradi;

– o‘quv moduli tarkibida muayyan o‘quv elementlarini ajratib olish, bunda xususiy didaktik maqsadga muvofiq keladigan elementlarni guruhlashga e‘tibor qaratish, har bir xususiy didaktik maqsad o‘z tarkibida bitta o‘quv elementini qamrab olishini nazarda tutish lozim.

Modulli o‘qitish texnologiyasining muhim jihati o‘quvchilarning to‘liq va qisman mustaqil tarzda taqdim etilgan o‘quv dasturi bilan ishlashlarini amalga oshirishdan iborat. Mazkur dasturlar o‘z ichiga harakatlarning maqsadli dasturi, axborotlar banki va qo‘yilgan didaktik maqsadga erishishga ko‘maklashadigan metodik tavsiyalarni qamrab olishi kerak.

Modulli o'qitish texnologiyalarini qo'llash sharoitlari bilan bog'liq tarzda modulning mazmuni alohida bir ta'lim oluvchi yoki ta'lim oluvchilar guruhi uchun mo'ljallangan holda tanlanishi mumkin. Shu bilan bir qatorda muqobil modullarni ham shakllantirish mumkin. Bunda ayni bir o'quv materialini bayon qilishda turlicha yondashuvdan foydalanish imkoniyati mavjud. O'quv materialini mustaqil o'zlashtirish maqsadida ta'lim oluvchilar modullarni mustaqil tarzda tanlashlari uchun imkoniyat yaratiladi. Buning uchun o'quvchilar faoliyatiga ustuvor o'rin ajratiladi. Modulli o'qitishda o'quv faoliyati natijalari uchun mas'uliyat to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarning o'ziga yuklatiladi.

Modulli o'qitishning farqli jihatlarini o'quvchilarning pedagogik jarayonda faol ishtirok etishlarini ta'minlash imkoniyatlarining mavjudligidadir. Modullar, birinchi navbatda, o'quvchilarning faol tarzdagi bilish faoliyatlarini vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Modulli o'qitishning muhim jihatlaridan yana biri o'qituvchi mavqeyining alohida ahamiyat kasb etishidadir. Modulli o'qitish jarayonida o'qituvchi yuksak darajadagi kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Chunki o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy xarakterdagi murakkab savollariga javob bera olishi lozim. Bunday savollar o'quvchilarda modullar bilan ishlash jarayonida tez-tez tug'ilishi mumkin.

Modulli o'qitish jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish harakatlar tizimi orqali amalga oshadi. Modulning o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qiluvchi blok o'quv elementlarining egallanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Nazorat xarakteridagi savol va topshiriqlar qo'yilgan maqsadga muvofiq kelishi kerak. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash muayyan baholash shkalalarini qo'llashni nazarda tutmaydi. Bu o'rinda baholar “ha-yo'q”, “qabul qilindi-qabul qilinmadi” prinsipiga asoslangan holda qo'yiladi. Bunda o'quvchining muayyan topshiriqni bajarganligi yoki bu ishni amalga oshira olmasligiga e'tibor qaratiladi.

Modulli dasturlarning asosiy yutug'i uning moslashuvchanligi va ko'p variantlilikidadir. Shuning uchun ham modulli o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayonida keng qo'llash ta'lim samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, ushbu texnologiyani qo'llash o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash, mustaqil fikrlash; tahlil qilish qobiliyati nirivojlan-tirish, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay olish; xato va kamchiliklarni anglash hamda ularni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Третьяков П.И. Сенновский И.Б. Технология модульного обучения в школе. Практико-ориентированная монография. – Москва, 1997 г.*
2. *Чошанов М.А. Гибкая технология проблемно-модульного обучения.- – Москва, 1996 г.*
3. *Жанпеисова М.М. Модульная технология как средство развития ученика. – Алматы, 2001.*
4. *Инусова Х.М. Модульное обучение - что это такое? //Школьные технологии 1998, №2.*

Mavluda MUTALIPOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti
Iroda NURMATOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA FASILITATOR POZITSIYASI HAMDA UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda pedagoglarning malakasini oshirish jarayonida fasilitatsiya texnologiyasidan foydalanish yo'llari, moderator vazifasi, fasilitatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi, maqsad va vazifalari, shu bilan birga, fasilitatorlik va ekspertlik pozitsiyasi, uning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Malaka oshirish jarayoni, fasilitatsiya, fasilitatsiya texnologiyasi, moderator, fasilitator, ekspert, pozitsiya, afzalliklar, kamchiliklar.

В этой статье изложены вопросы, связанные с применением технологии фасилитации в процессе повышения квалификации педагогов, раскрыто значение слова "фасилитация", определены функции и обязанности модератора, а также преимущества и недостатки позиций фасилитатора и эксперта.

Ключевые слова. Процесс повышения квалификации, фасилитация, технология фасилитации, модератор, фасилитатор, эксперт, позиция, преимущества, недостатки.

Article outlines the issues related to the use of facilitation technology in the process of teachers' professional development, disclosed the meaning of the word "facilitation", defined the functions and responsibilities of the moderator, as well as the advantages and disadvantages of the positions of the facilitator and the expert.

Key words. Process of advanced training, facilitation, technology of facilitation, moderator, facilitator, expert, position, advantages, disadvantages.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri – interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bunda mashg'ulot jarayonida mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham mumkin. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadi:

1. Moderator – ta'lim mazmunini yaratuvchi, modullarini ishlab chiquvchi.

2. Trener – o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

3. Tyutor – masofadan o'qitish dasturlarini yaratuvchisi va bajarilishini ta'minlovchi.

4. Fasilitator – darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

Shundan kelib chiqib biz ushbu maqolada fasilitator faoliyatiga to'xtalib o'tamiz. Pedagog Sh.Sadriddinzoda tuzgan “Ta'lim texnologiyalari izohli lug'ati”da (metodik tavsiyanoma) fasilitator – darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi. U – dars samaradorligini oshirish maqsadida guruhlarda uning ishini tashkil etuvchi, olib boruvchi shaxs bo'lib, mashg'ulotda reglament, me'yor va mashg'ulot uchun qulay sharoit yaratuvchi sanaladi. Fasilitator guruh ishini jipslashtiradi, samarali ishlash muhitini yaratadi, deb izoh berilgan.

Ushbu tushuncha psixolog Rojers Karl tomonidan kiritilgan bo'lib, ingliz zabonli mamlakatlarning ta'lim muassasalarida keng foydalaniladi. 1989-yildan buyon Xalqaro bosh fasilitatorlar assotsiatsiyasi (The International Association of Facilitators) faoliyat yuritib kelmoqda. Bugungi kunda uning faoliyatida 63 davlatning 1200 nafardan ziyod a'zosi ishtirok etmoqda. Fasilitator faoliyati turli modellarda uchraydi.

Fasilitator (ingl. facilitator, lot. facilis so'zdan olingan bo'lib, “yengil, qulay” degan ma'noni bildiradi) – guruhlarda faoliyatni tashkil etishda ko'maklashadi. U guruhlardagi faoliyatni samarali bo'lishini ta'minlashi, guruhda sog'lom muloqotni o'rnatishi, guruhda ishlash qoidalriga va reglamentlariga amal qilishni ta'minlashi joiz. Fasilitator guruhda ijobiy ruhiy muhitni yaratadi va faoliyatining samarali bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, ekspert rolidan voz kechib, tinglovchilarga izlanishda yordam beruvchi yoki yo'naltiruvchi vazifasini bajarishga bel bog'lagan pozitsiyadir. Tinglovchilarni o'qitish amaliyotida natija ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash borasida na boshqaruvchilar, na moderator ochiqdan ochiq tinglovchilarni harakat qilishga o'rgata olishmaydi. Bu bilim yoki tajribaning kamligi emas, balki harakatlarning yangi yo'llarini hech qachon tayyor holda bo'lmasligidadir. Bunday vaziyatlarda moderatorlar ma'lum bir vaqtga “bilim beruvchilar” rolidan chiqib, bu rolga tinglovchilarning o'zlarini qo'yishadi.

Moderator vazifasi – aynan shu jarayonni yangi tajribalar ishlab chiqishda qo'llab-quvvatlashdir. Tinglovchilar malaka oshirgan tajribalari orqali har doim o'zlarida yangi bilimlarni olib yurishadi.

Fasilitatorning vazifasi – shu yangi bilimlarning o'sishida yordam berishdir. Treningning eng muhim natijasi – tinglovchilarni muvaffaqiyatli professionallar sifatida ish olib borishlari uchun kerakli qo'llanmalar bilan ta'minlash. Treningda olingan bilimlarning mustahkamligi – ularni har qanday vaziyatga moslashtirib, ishlata olish demakdir. Trener-fasilitator har bir savolga javob bera oladigan shaxs emas, balki shu javoblarni tinglovchilardan olish texnologiyasini bilishi kerak bo'lgan odamdur.

Fasilitatorning vazifasi axborot almashish jarayonini texnologiyalashtirishdir. Ekspertdan farqi shundaki, ekspertning o'zi axborotni berib, hal qilish yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ekspertning vazifasi aniq yo'nalishni ko'rsatib, yo'lni belgilashdir. Fasilitatorning vazifasi esa, harakatga yordam berishdir.

Ekspertlik va fasilitator farqini yaqqolroq ko'rish uchun kichik bir eksperiment o'tkazildi.

Misol: tinglovchilarning olgan bilimlarini chiqara olish.

Kattalar bilan ishlash uslubi treninglarida tinglovchilarni ikki guruhga bo'lib, ekspert va treningning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishi taklif qilingan. Natijada quyidagicha javob olingan:

Ekspert pozitsiyasi

Afzalliklari	Kamchiliklari
+ nazariy izchillik; + aniq struktura va mantiq; + silliqlangan (ko'p ishlatilgan) uslub; + vaqt chegarasining aniqligi; + tayyor qarorlar va xulosalar; + katta auditoriyani qamrash.	- tinglovchilar passivligi; - ularning tajribasi ishlatilmaydi; - uslubning bir xilligi; - tinglovchilarning tez toliqishi; - o'z fikrini boshqalarga o'tkazish; - individuallikning yo'qligi.

Fasilitator pozitsiyasi

Afzalliklari	Kamchiliklari
+ tinglovchilarning shaxsiy tajribasiga tayanish; + tinglovchilar faolligi; + nazariya va amaliyotning bog'liqligi; + tinglovchilarning tajriba almashishi; + yangi tajribani qo'llash imkoniyati; + qabul qilish va tushunishning osonligi; + tinglovchilar ijodkorligi; + tinglovchilar shaxsini o'zgartirish imkoniyati; + bir qaror bo'yicha fikrlarning xilma-xilligi; + tinglovchilar bir-birlarini tushuna olishlari; + trener mahoratining o'sishi.	- tajribaga tayyor javoblarni kiritish imkoniyatining pastligi; - nazariy materiallarning kamligi; - vaqt chegarasiga amal qilishning qiyinligi; - tayyorgarlik ko'rishda trenerlar mehnat xarajatining kattaligi; - aniq rejalashning qiyinligi; - trener olib boruvchi sifatida ish mas'uliyatining kattaligi va qiyinligi.

Fasilitator pozitsiyasida trener tinglovchilarning shaxsiy tajribalariga suyangan holda hayotiy voqealarni tahlil qilish, rol ijro etish, video yordamida qayta aloqa va tahlil o'tkazish, ishbilarmon o'yin usullarini qo'llash imkoniyati bor. Ekspert pozitsiyasida esa trener tinglovchilarga yetkazish maqsadida faqat umumlashtirilgan professional tajribani tushuntirib berishi mumkin.

Fasilitator pozitsiyasida ish olib borish katta mahoratni va bilim bazasini talab qiladi. Auditoriyada yuzaga kelayotgan har bir munozara bo'yicha yetarli bilimga va axborotga ega bo'lish va munozaralarni to'g'ri yo'nalishga tushurishda, berilgan savollarga vaqtida javob berishda qat'iyatlilik talab qilinadi. Munozara kuchayib ketgan vaqtda, albatta, uni boshqara bilish uchun bu xususiyatning yuqori bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Trener juda ziyrak bo'lib, hech qanday vaziyatda o'zini yo'qatib qo'ymaslikka harakat qilishi zarur.

Shunday qilib fasilitator quyidagilarni bilishi shart:

- jarayon mavzusi va muhokama orasidagi farqni bilish;
- muhokama mavzusi va borishida ishtirok etayotgan tomonlar munosabatini ongli ravishda tan olish;
- muhokama vaqtini ongli ravishda taqsimlash;
- hamkorlikda ishlash uchun yetarli maydon tashkil qilish;
- o'z fikrini bildirishga undash;

- boshqalar fikrini bo'lmagan eshita bilish;
- ochiqlik bilan muomalada bo'lish;
- tinglovchilarni ijodiy ishlashi uchun rag'batlantirish;
- hamkorlikda qilingan ishlar natijasini muhokama qilishda muvaffaqiyatli guruhlarni ko'rsatib o'tish; – muhokama vaqtida jarayondan uzoqlashmagan holda va shu bilan bir paytda kimgadir yon bosish maqsadga muvofiq emas;
- guruh ishlash dinamikasini nazorat qilib borish;
- hamkorlikda ish olib borilganda tinglovchilarga qiyin vaziyatlarda yordam berish;
- javobgarlikni mavzu uchun emas, balki izlanish jarayoniga qaratish;
- asosiy muhokama qilinayotgan masalani yodda tutish.

O'qitish jarayoni uchun olib boruvchi bilan bir qatorda tinglovchilar ham javobgarlikni bo'yinlariga olishadi. O'qitish jarayonida tinglovchi va trenerlarning hamkorlik muhitida majbur qilmaslik, raqobatchiliksiz va bir-biriga bo'ysunishsiz olib boriladi.

O'qish davomida asosiy rag'batlantiruvchi kuch bu baholashdan qo'rqish yoki maqtovg'a sazovor bo'lish uchun, ota-ona yoki trener oldidagi majburiyat ham emas, balki do'stona muhitda dilda borini o'rtaga tashlab, o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, ko'proq bilishga qiziqishning ortishidir.

Olib boruvchining asosiy vazifasi – tinglovchilarning har biriga tabiatdan har xil qobiliyat berilganligiga ishonirish va shu qobiliyatlarni aniqlab, ularni yanada rivojlantirishga yo'naltirishdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fasilitator pozitsiyasi yuqorida berilgan talablar doirasida pedagoglar malakasini oshirish jarayonida fasilitator texnologiyasi qo'llanilsa, tinglovchilar tomonidan oshirilgan malakalar yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom, – T.: O'zbekiston, 1997, 247-bet.*
2. Agapova O., Afanasova A., Molchanova T. va boshqalar. *Menga kim o'rgatadi? Katta yoshlilar ta'limi sohasida ishlaydiganlar uchun qo'llanma (o'zbek va rus tillarida).* – T.: Toshkent Matbaa Kombinati, 2007. 76-b.
3. Kochkarova M.S., Mamayeva N.K., *O'qitishning interaktiv uslublari va o'quv jarayonini boshqarish. Trenerlar tayyorlash bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. – T., 2007. 64-b.*
4. *“Ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni amalda qo'llash” fanidan ma'ruza matnlari. Ma'ruzachi: p.f.n. M.T. Jumaniyozova. – T., 2010.*
5. *Ta'lim texnologiyalari izohli lug'ati. Metodik tavsiyanoma. Tuzuvchi: Sh.Sadrid-dinzoda. – Samarqand, 2011.*

Maloxat ALIBAYEVA

Namangan viloyati 66-sonli Davlat ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi

BIOLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN UZVIY ALOQADORLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada biologik bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning tabiat va jamiyatga bo'lgan ongli munosabati xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarga biologiya fanini o'rgatishda fan asoslari orqali mustahkam o'zlashtirishlari mumkinligini misollar bilan keltirib bergan.

Kalit so'zlar. Biologiya fani, o'qitish metodi, o'quvchi, ilmiy dunyoqarashi, tabiat, tarbiya, munosabat, ilmiy bilim, ekologik madaniyat.

Статья посвящена проблеме усвоения учащимся биологических знаний и формирования у них сознательного отношения к природе и обществу. Приведены примеры, доказывающие возможность прочного освоения основ науки биологии.

Ключевые слова. Предмет биологии, обучающий метод, ученик, научное мировоззрение, природа, воспитание, отношение, научное знание, экологическая культура.

Article devoted to the problem of mastering biological knowledge by students and forming a conscious attitude to nature and society in them. Given the examples that prove the possibility of a lasting mastery of the fundamentals of the science of biology.

Key words. The subject of biology, teaching method, training, student, scientific worldview, nature, upbringing, attitude, scientific knowledge, ecological culture.

Tabiat to'g'risidagi yetakchi fanlarning biri biologiya zimmasiga o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda bir qancha mas'uliyatli vazifalarni tashlaydi. Shu sababli, maktab biologiya o'quv fanining mazmuni o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda katta imkoniyatga ega.

Biologiyani o'qitishda, avvalo, o'quvchilarni biologiyaning asosiy g'oyasi, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, amaliyot, xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida tutgan o'rni, biologik bilimlarini o'zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali insonning tabiat va jamiyatga bo'lgan ongli munosabatini tarkib toptirish bilan uzviy bog'langan holda ta'lim-tarbiyaviy tizim vujudga keladi. Mazkur tizim o'zida o'quvchilar tomonidan fan asoslarini mustahkam o'zlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, jismoniy, gigiyenik, mehnat va baynalminal tarbiyalash masalalarini mujassamlashtiradi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilarning biologiya fanini o'rganishi biologik obyektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayot faoliyati qonuniyatlarini tushunishiga olib keladi. Bu bilimlar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va e'tiqodlarini

mustahkamlaydi. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi biologik qonuniyatlarini “tabiat-inson-jamiyat” munosabatlarining tarixiy rivojlanish nuqtayi nazaridan tushunishga asoslanadi.

“Ilmiy dunyoqarash” tushunchasiga biologiya o'qitish metodikasining turli manbalarida turlicha yondashilgan. Jumladan, B.E.Raykov ilmiy dunyoqarash tushunchasini “Dunyo haqidagi bilimlar majmuasi”, V.V. Vsesyatskiy “Tabiatga nisbatan to'g'ri qarashlar majmuasi”, N.M.Verzilin va V.M.Korsunskaya “Insonning atrof-muhitga munosabati, jamoa va jamiyatdagi xulq-atvorini aniqlaydigan ilmiy tasavvurlar va tushunchalar tizimi” deb ta'rif berishgan.

Pedagogik ensiklopediyada “ilmiy dunyoqarash falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e'tiqodlar yig'indisi, insonning moddiy borliq haqidagi qarashlari majmuasi hisoblanib, shular asosida inson tabiat va ijtimoiy muhitga o'z munosabatini namoyon etadi” deb qayd etilgan.

Ushbu ta'rif asosida biologiyani o'qitish metodikasi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ahamiyatga molik bo'lgan tushunchalarni aniqlash, mazkur tushunchalarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni va asosiy bosqichlarni, biologiyani o'rganish natijasida vujudga keladigan qarashlar va e'tiqodlar tizimiga tavsif berishi, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishdagi o'rnini ko'rsatishi lozim.

Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashiga asos bo'ladigan tushunchalarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

– jonsiz va jonli tabiatning kimyoviy tarkibidagi o'xshashliklar, yuz beradigan hodisalarning umumiyligi va uzviyligi;

– tirik organizmlarda sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar va o'zgaruvchanliklarni tushunishda, muammoli o'quv topshiriqlarni hal etishda biologik qonunlar bilan bir qatorda, fizik-kimyoviy qonunlardan foydalanish orqali fanlararo bog'lanishni amalga oshirish;

– moddiy borliqdagi hodisa va voqealarni o'rganishning zarurati, ekologik fojealarning sabablari va ularni bartaraf etish tadbirlari;

– inson tomonidan tabiat qonunlarini o'rganish va undan samarali va oqilona foydalanish yo'llari;

– tabiiy hodisalarning o'zaro bog'liqligi va rivojlanishida sabab-oqibat bog'lanishlar;

– tabiatni muhofaza qilish – bu sayyoramizda hayotni asrashning asosi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi darslari o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish imkonini beradi.

Botanika o'quv fani dasturidan o'rin olgan “O'simlik – yaxlit organizm” mavzusini o'rganishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asos bo'ladigan bilimlar umumlashtiriladi, tabiatni muhofaza qilishga doir ko'nikmalarni amaliyotga qo'llash imkoniyati tug'iladi. Biologik bilimlar muayyan darajada o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, xatti-harakatini belgilaydi. Shu sababli o'qituvchi ushbu mavzuni o'rganishda jiddiy tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilarning e'tiborini mazkur bilimlarga tayanib, tabiiy boyliklarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini anglagan holda ularni asrash lozimligi haqida xulosa chiqarishiga yo'naltirishi lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida o'simlikning barcha qismlari o'zaro bog'liqligi, organizm bilan atrof-muhit o'rtasida uzviylik mavjudligi yoritiladi. O'qituvchi o'quvchilar faoliyatini o'simlikning tuzilishi va funksiyasi, ko'payish usullari, yashash muhitiga moslashishi haqidagi bilimlarini umumlashtirish, ilmiy dunyoqarashga oid xulosalar chiqarishga yo'llaydi.

O'quvchilar darslik, ko'rgazmali vositalar va tarqatma materiallar yordamida mustaqil ishlab, hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi va organizm o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlab, muayyan xulosaga keladilar.

O'quvchilar o'simliklar xususida boradigan hayotiy jarayonlarning mohiyatini anglashlari, jumladan, fotosintez jarayonida o'simlik organlarining bajaradigan vazifalarini aniqlash uchun quyidagi jadvalni to'ldirish tavsiya etiladi.

O'simlik organlari	Fotosintez jarayonidagi vazifa	Organik moddalar harakati va sarflangandagi ulushi	O'zaro bog'liqlik
Ildiz			
Poya			
Barg			
Gul			
Meva			

Dars yakunida o'simlik organlarida sodir bo'ladigan hayotiy jarayonlar, ularga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhit omillari qayd etilib, bilimlar umumlashtiriladi va o'simlik – yaxlit organizm ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda o'quvchilar tafakkurining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Biologiyani o'qitishda o'qituvchi o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritishiga, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga zamin tayyorlaydigan o'quv topshiriqlarini tayyorlashi lozim. O'qitishning bu shaklda tashkil etilishi o'quvchilarning faktlar, hodisalarning o'zaro bog'liqligi ustida mulohaza yuritishiga yordam beradi. Mulohaza yuritish o'quvchilarning o'quv materialini ongli va puxta o'zlashtirishiga imkon yaratadi. O'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish ularda mustaqil va ijodiy fikrlashni tarkib toptirishga bog'liq.

Ma'naviy-axloqiy *tarbiya*. Insonning ma'naviyati uning ongida aks etgan barcha ijobiy ruhiy, intellektual fazilatlar, axloq esa, umuminsoniy va millatning milliy qadriyatlarini asosida jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-atvor me'yorlari majmuasi sanaladi. Barkamol shaxsni kamolga yetkazishda ma'naviy-axloqiy yetuklik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlaridan biri "Milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish" deb belgilangan. Ushbu vazifalarni biologiyani o'qitish jarayonida hal etish uchun o'qituvchi darsda umumiy osoyishtalik, shaxsning rivojlanishi uchun qulay psixologik muhit, o'quvchilarda ongli intizomni vujudga keltirishi, tahsil olishdagi burch va mas'uliyatni tarkib toptirishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri tabiatni o'rganish jarayonida o'quvchilarda tabiat, mehnat, insonlarga nisbatan e'tiborli munosabatda bo'lish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish, topshirilgan vazifalarni to'la-to'kis, sifatli bajarish, rasmiylashtirish, ongli intizom, burch va mas'uliyatni tarkib toptirish, insonning qadr-qimmatini hurmat qilishga o'rgatish hisoblanadi. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'quv faoliyatini rag'batlantirish va asoslash, ijobiy xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, ularda uchraydigan salbiy holatlarni muhokama qilishdan o'tish vaqtida o'qituvchining shaxsiy namunalarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning organik olam va uning obyektlarini o'rganishda, o'simliklar, hayvonlarning rivojlanishi, ularning xilma-xilligi, hayotini saqlab qolish va ko'paytirish uchun qayg'urishi, g'amxo'rlik qilishi, yordam berishi haqidagi ilmiy bilimlar, muayyan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga e'tiborini qaratishi zarur. Tabiat, inson va jamiyat o'rtasida

sidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, yerda hayotni saqlab qolishda biologik bilimlardan foydalanishning ahamiyati, insonning tabiatga nisbatan insonparvarlashtirilgan munosabatining roli ko'rsatib o'tiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'lim tizimi orqali ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi nazarda tutilgan. Shaxsning bu xususiyatlari o'quv-bilish, ijtimoiy-foydali mehnat jarayonida ko'zga tashlanadi. Maktab biologiya o'quv fanlari o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi biologiya o'quv fanini o'qitish orqali ekologik tushunchalar: organizm va muhitning o'zaro bog'liqligi, tabiiy jamoalarning almashinuvi, biogeotsenzorlar, ekologik sistemalarning o'zgarishi, biosfera, insonning ekologik omil ekanligi va boshqalarni o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirishlari, ko'nikma va malakalarni egallashiga erishishi lozim.

O'quvchilarning ekologik madaniyatini tarkib toptirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

– o'quvchilar tomonidan tabiatning yaxlitligi, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi haqidagi ilmiy bilimlarni o'zlashtirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga asos bo'ladigan ekologik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga erishish;

– tabiat va uning tarkibiy qismlarining keng ma'nodagi ahamiyatini tushunish, tiklanadigan va tiklanmaydigan boyliklarning farqiga yetish;

– tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhitning tozaligini asrash, ko'kalamzorlashtirish va tabiiy boyliklarni ko'paytirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar, ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish motivlarini shakllantirish.

Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilish zarur:

1. Tabiat va atrof-muhitni o'rganish va o'zlashtirish insonning bilish va amaliy faoliyati birligi asosida tashkil etiladi. Shu sababli o'qituvchi biologiyani o'qitishda tabiatning har bir tarkibiy qismi, shu jumladan, o'simliklar, hayvonlarning tuzilishi va hayotiy jarayonlari o'rganilganda o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish bilan birga, mazkur bilimlarni amaliyotga tatbiqi haqida ham ma'lumot berishi, har bir organizmga tashqi muhitning ko'rsatadigan ta'siri, organizmlarning yashash muhitiga moslashishini tushuntirilishi;

2. Insonning jonsiz va jonli tabiatga, o'simliklar olami va hayvonot dunyosiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'sirini yoritish asosida, tabiat, inson va jamiyat munosabatlarini tushuntirilishi, fan sohalari bo'yicha to'plangan ilmiy bilimlar integratsiyasi va fanlararo bog'lanishlar amalga oshirilishi;

3. Sayyoramizda vujudga kelgan lokal va global ekologik muammolarni hal etishda dunyo hamjamiyati, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati, ya'ni ushbu ekologik muammolarning hal etilishida davlatlararo umumiy aloqadorlik masalalari haqida ma'lumot berilishi;

4. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarur.

Estetik tarbiya. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim oluvchilarda boy estetik dunyoqarashni hosil qilish masalasiga keng e'tibor berilgan.

Ma'lumki, estetika – go'zallik elementlari, sharoitlari va qonunlari to'g'risidagi fandır. Estetik tarbiya go'zallik hissi, tuyg'ular, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan.

Estetika mehnatda, ijtimoiy va shaxsiy hayotda o'z atrofida go'zallik barpo etishga intilishni vujudga keltiradi. Go'zallikni ko'ra bilish, idrok qilish, barpo etish va chiroyli ish ko'rish – tarbiya vazifalaridan biridir.

Biologiya darslarida o'qituvchi o'simliklarning organlari, gul va mevalar, o'simliklar qoplamini o'rganishda ularning go'zalligini yoritadi. Bunda o'quvchilarning e'tiborini o'simliklarning tashqi go'zalligiga qaratib, ulardagi yashirin go'zallik hayoti, muhit bilan uyg'unlashishi, tabiat va inson hayotida tutgan o'rnini idrok qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarni estetik tarbiyalashda biologiya o'quv xonasi, tirik tabiat burchagi, maktab tajriba yer maydonlaridagi tartib, shinamlik va go'zallik muhim rol o'ynaydi.

O'quv xonasidagi o'simliklar, ko'rgazma vositalari estetik talablarga javob berishi va ma'lum bir mazmunda joylashtirilgan bo'lishi kerak.

Estetik tarbiyaning vazifasi:

– o'quvchilarni go'zallikni ko'rish, uni idrok qilishi hamda ularning orasidagi farqni ajrata olish;

– tabiatda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda go'zallikni o'rnatish va himoya qilish, estetik didni mehnat va turmush madaniyati bilan bog'lash;

– turli hayotiy vaziyatlarda chiroyli ish tutishga, estetikani ma'naviy-axloqiy qarashlar bilan uyg'unlashtirishga o'rgatishdan iborat.

Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning estetik tarbiyasini rivojlantirishda dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar va ekskursiyalarini amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Iqtisodiy tarbiya. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish zaruratini keltirib chiqaradi. O'quvchilar botanika, zoologiya, umumiy biologiya o'quv fanlarida o'simlik va hayvonlarning mahsuldorligi, dalalarning unumdorligini oshirish, tuproq va yerga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartirish, olinadigan mahsulotlarni ham miqdor, ham sifat jihatdan orttirish masalalari bilan tanishadilar. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu mazmuniga bog'liq holda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishi zarur.

Masalan, "Poyaning eniga o'sishi" mavzusida daraxt tanalaridan qurilish, mebelsozlik, qog'oz tayyorlash sanoati va h.k.da keng miqyosda foydalanishi qayd etiladi. O'quvchilarda tejamkorlikni vujudga keltirish uchun o'qituvchi o'quvchilar e'tiboriga quyidagi ma'lumotlarni havola etadi. Bir tonna qog'oz tayyorlash uchun 50-80 yoshdagi 15-16 ta daraxt tanasi sarf bo'ladi. Daraxtlarni saqlab qolish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaysiz? degan savolni qo'yadi. O'quvchilar daraxtzorlarni ko'paytirish, keraksiz qog'ozlarni to'plash va qayta ishlashga topshirish zarurligini qayd etadilar.

Iqtisodiy tarbiya o'qitishning barcha shakllarida, shu jumladan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirish, bunda vatanimizning iqtisodiyoti va xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini rivojlantirishda biologiya fanining tutgan o'rniga oid ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Jismoniy tarbiya – har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, aqliy, estetik jihatdan uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Jismoniy tarbiya o'quvchilarning aqliy va ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan uzviy holda amalga oshirilgandagina kutilgan natija, jumladan, o'z salomatligini asrash va mustahkamlash, xatti-harakatlarning gigiyenik me'yorlari, harakat ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Jismoniy tarbiya masalasi biologiyani o'qitish metodikasida inson organizmining tuzilishi, hayotiy jarayonlari, rivojlanishi bilan uzviylikda o'rganish orqali amalga oshiriladi. "Odam va uning salomatligi" o'quv kursida o'quvchilar u yoki bu jismoniy mashqlarning bajarilishi organlar sistemasi ishiga ta'siri, sport bilan shug'ullanishning ahamiyati, organizmni chiniqtirish, gigiyenik ko'nikmalarni hosil qilishning ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Shuningdek, Vatanimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida olib borilayotgan tadbirlar, yoshlarning sport bilan shug'ullanishi, sog'lig'ining mustahkamlanishi

uchun yaratilgan sharoitlar qayd etiladi. Sport bilan shug'ullangan o'quvchilarda iroda va salomatlik mustahkamlanishi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yenga olish kabi ijobiy fazilatlar vujudga kelishi ko'rsatib o'tiladi.

Gigiyenik ta'lim-tarbiya o'quvchilarning sog'liklarini saqlash va mustahkamlash shart-sharoitlari va ularni vujudga keltirish haqidagi bilimlarga asoslanadi. Biologiya fanini o'qitishda mazkur mavzu mazmuniga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Masalan, botanikani o'rganishda o'simliklarning inson salomatligiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, ularning atrof-muhitning musaffoligini saqlashdagi roli yoritiladi. Bakteriya-lar bo'limi o'rganilganda, bakteriyalarning xayotiy faoliyati, tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini o'rganish bilan bir qatorda, parazit bakteriyalar, ular tomonidan keltirib chiqariladigan kasalliklar, mazkur kasalliklarni yuqtirmaslik chora-tadbirlari haqida ma'lumot beriladi.

Zoologiyani o'qitishda hayvonot olamining xilma-xilligi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini qayd etish bilan birga, parazit tarzda hayot kechiruvchi hayvonlar, ularning rivojlanish sikli, kasallik tashuvchi organizmlar, kelib chiqadigan kasalliklar va ularni yuqtirmaslik yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

“Odam va uning salomatligi” o'quv fanida o'quvchilarning o'z salomatliklarini as-rash, shaxsiy gigiyena bo'yicha bilimlari rivojlantiriladi, har bir organlar sistemasini o'r-ganish davrida organlar sistemasining ishiga jismoniy tarbiya va sportning ijobiy ta'siri, kasalliklarning kelib chiqish sabablari ularning oldini olish va bartaraf etish yo'llari haqida ilmiy tushunchalar beriladi.

Mehnat tarbiyasi. Barkamol shaxsni kamolga yetkazishda mehnat tarbiyasi muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli ham uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifa, fan va texnika-niing hozirgi bosqichidagi rivoji, davlat va jamiyat ehtiyojlari, o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlariga muvofiq holda kasb tanlashga yo'llash, ularda mehnat va o'quv mehnati ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatilgan. Mehnat tarbiyasi o'qitishning nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi prinsipini amalga oshirish, o'quvchilarda mehnat faoliyatiga nisbatan ijobiy motivlar, mehnat vositalari va qurollariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni vujudga keltirishga zamin tayyorlaydi.

O'quv dasturidan o'rin olgan mavzular bo'yicha laboratoriya va amaliy mash-g'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilarda mikroskop bilan ishlash, mikropreparat-lar, majmualar tayyorlash, darslik, ko'rgazma vositalari va tarqatma materiallari ustida mustaqil ishlash kabi o'quv mehnati ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu ko'nikmalar kelgusida o'quvchilarning tanlaydigan kasbi bo'yicha mehnat ko'nikmalariga aylanishi mumkin.

Biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash, mehnat tarbiyasini amalga oshirishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- qishloq xo'jalik, mikrobiologiya, tabiatni muhofaza qilish, inson mehnati faoliyatiniing ilmiy-nazariy asoslari;
- ishlab chiqarish mehnati samaradorligi, o'simliklar va hayvonlarning mahsuldorli-gini oshirishni ta'minlovchi texnika va texnologiyalarning asoslari bilan tanishtirish;
- biologik qonuniyatlar va umumiy ko'nikmalardan amaliy faoliyat va turmushda foydalanish asoslari bilan tanishtirish.

O'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda qishloq xo'jaligi mehnati ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Ular jumlasiga tuproqqa ishlov berish, o'g'itlash, o'simliklarni sug'orish, urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, o'simliklarni parvarish qilish, hosilni yig'ish

va saqlash, shuningdek, qishloq xo'jaligi hayvonlarini boqish, zararkunandalarga qarshi kurash, mehnat qurollari bilan ishlash kabilarni kiritish mumkin.

Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda o'qituvchi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga psixologik jihatdan tayyorlash, mehnat madaniyatini takomillashtirish, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan nazariy bilimlaridan foydalangan holda aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri tashkil etish ko'nikmalarini tarkib toptirishga e'tiborni qaratishi lozim. Mehnat tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri barkamol shaxsning asosiy fazilatlarini bo'lgan mehnatsevarlikni rivojlantirish sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy, aqliy, hissiy-irodaviy, ruhiy, jismoniy jihatdan uyg'un rivojlanishini amalga oshirish maqsadida xalqimizning boy ma'naviy durdonalari bo'lgan hadislar, hikmatli hikoyalar, maqollardan foydalanish tavsiya etiladi.

Baynalmilal tarbiya. Respublikamizda qabul qilingan milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalardan biri millatlararo totuvlik hisoblanadi.

"Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotni belgilaydi hamda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir". "Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga xos bo'lgan oliyjanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi".

Millatlararo totuvlik shaxsda mavjud bo'lgan baynalmilal tarbiyaning natijasida vujudga keladi. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarni baynalmilal ruhda tarbiyalash uchun mavzu mazmuniga bog'liq holda biologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan jahonning yetuk olimlari, ularning hayoti va ijodiy faoliyati, jahon sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo'shgan turli millat vakillari bilan tanishtirish orqali ular tomonidan yaratilgan umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiq.

Baynalmilal tarbiya o'qitishning barcha shakllarida, shu jumladan, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirish, bunda biologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan jahonning yetuk olimlari, ularning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan kechalar tashkil etish va o'tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda biologiya fanining o'qitish samaradorligi ta'lim va tarbiyaning uzviyligini amalga oshirilishiga bog'liq. Mazkur masalalar biologiyani o'qitish metodikasida alohida o'rganilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol shaxsni shakllantirishda tutgan o'rnini ko'rsatish bilan izohlanadi, mazkur jarayon bir-biri bilan uzviy, uyg'unlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
2. Abduqodirov F., G'afurov A. va boshqalar. "Biologiya". Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Sharq. 2012.
3. Prato O. va boshqalar. "Botanika". Umumiy o'rta ta'lim maktablarini 6-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2013.

Davlatjon MAMATQULOV,
A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TA'LIM TURLARI KESIMIDA "MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR" TURKUMIGA KIRUVCHI FANLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar tarkibidagi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarining maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida to'g'ri taqsimlash va ularni ta'sirchan shaklda o'qitishni ta'minlash masalasi muhokama etilgan. Bu borada muallif amalga oshirilishi kerak bo'lgan tavsiyalarini bayon qilgan.

Kalit so'zlar. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, ta'limning barcha turlari, globallasuv, ma'naviy va mafkuraviy xurujlar, mafkuraviy kompetentlik, axborot almashinuvi.

В статье обсуждаются вопросы, связанные с преподаванием предметов в разделе дисциплин "Идеология национальной независимости: основные понятия и принципы" на разных ступенях непрерывного образования, начиная с дошкольного образования и включая систему переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Автором изложены рекомендации по использованию технологий обучения названным дисциплинам.

Ключевые слова. Национальная идея, основы духовности, виды образования, глобализация, духовные и идеологические угрозы, идеологическая компетентность, обмен информацией.

Article discusses issues related to the teaching of subjects in the disciplines section "The Ideology of National Independence: Basic Concepts and Principles" at various stages of non-disruptive education, starting with pre-school education and including a system of retraining and advanced training for pedagogical personnel. The author outlines the recommendations on the use of teaching technologies to these disciplines.

Key words. National idea, the foundations of spirituality, types of education, globalization, spiritual and ideological threats, ideological competence, information exchange.

"Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar boshqa fanlardan farqli o'laroq ta'limning deyarli barcha turlari, ya'ni maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limining o'quv dasturlaridan mustahkam o'rin egallagan.

Ma'lumki, "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun nisbatan yangi fan hisoblanadi. Bu fan 2001-yil 18-yanvarda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ta‘lim dasturlarini yaratish va Respublika ta‘lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi asosida mamlakatimiz ta‘lim tizimiga joriy etilgan.¹

Yuqoridagi farmoyish hamda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining 2/1–HB-sonli buyrug‘i²ga asosan, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar sifatida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi” va “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” fanlari sanab o‘tilgan.

Ta‘kidlash lozimki, hech bir fan dogmatik qarashlar yig‘indisi emas. U o‘z mohiyati va vazifasiga ko‘ra jamiyatdagi o‘zgarish va rivojlanish bilan hamohang tarzda rivojlanaadi, taraqqiy etadi. Jumladan, bu jarayon “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarga ham bevosita taalluqlidir.

Ushbu turkumga kiruvchi fanlar bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda yosh avlodni turli ma‘naviy va mafkuraviy xurujlardan himoya qilishi, aniqroq qilib aytganda, yosh avlodda globallashuv sharoitida yashash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, bugungi shiddatli zamon “Yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlarni ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”³.

Darhaqiqat, yosh avlodni turli g‘arazli kuchlardan asrash, ularni ma‘naviy va g‘oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash masalasi ta‘lim-tarbiya tizimining eng asosiy maqsad va vazifasi hisoblanadi.

Ushbu dolzarb vazifa o‘z-o‘zidan yosh avlodni ma‘naviy va g‘oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga mo‘ljallangan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar zimmasiga juda katta ilmiy va ijtimoiy vazifani yuklaydi. Ushbu vazifani to‘laqonli ado eta olishi uchun, avvalo, bu turkumdagi fanlarning o‘zi ham bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrga moslashishi, ya‘ni tom ma‘nodagi yangi davr fani sifatida ham nazariy, ham amaliy-metodik jihatdan yanada takomillashuvi lozim.

Bugungi globallashuv sharoiti, ma‘naviy va mafkuraviy xurujlar avj olgan davr “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishni ham ta‘lim turlariga mos holda chuqur tahlil etishni hamda har bir ta‘lim turi auditori-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvarda qabul qilingan “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ta‘lim dasturlarini yaratish va Respublika ta‘lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. “Ma‘rifat” gazetasi. 2001-yil 20-yanvar.

² O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini singdirish samaradorligi to‘g‘risida”gi 2/1–HB-sonli buyrug‘i. // Ta‘lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining axborotnomasi. 2010-yil, 3-son, 26-38-betlar.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma‘ruzasi. www.xs.uz 08.12.2016

yasining xususiyatlariga mos keladigan ta'sirchan nazariya va metodikani joriy etishni taqozo etmoqda.

Mazkur turkumga kiruvchi fanlarni o'qitish jarayoni har bir ta'lim turi kesimida ham nazariy, ham metodik jihatdan chuqur tahlil va tadqiq etiladigan murakkab masala hisoblanadi. Chunki buning bir qator sabablari mavjud bo'lib, ular:

Birinchi, bu turkumdagi fan bir necha fan predmetlarining sintezi sifatida vujudga kelganligi va ayni vaqtda u o'z tarkibida ushbu predmetlarini saqlab turganligi bo'lsa;

Ikkinchi, ushbu fan juda katta auditoriyada, jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari (ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlari)dan boshlab umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida ham o'qitilishidir.

“Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni har bir ta'lim turi kesimida o'qitish jarayoni haqida so'z borganda, avvalo, ushbu fan tarkibida nisbatan bir-biridan farq qiluvchi ikkita predmet, ya'ni milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmeti mavjudligiga e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, milliy g'oya predmeti mafkuraviy xarakterga ega predmet hisoblanadi. Bu predmet ta'lim tizimida yosh avlodga bugungi davrdagi mafkuraviy jarayonlarni anglatishi va shu orqali ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishi, ularda bunyodkor va vayronkor g'oyalarni ajrata olish ko'nikmasini shakllantirishi hamda yoshlarda milliy g'oyamizga asoslangan mafkuraviy immunitetni hosil qilishi kerak.

Ma'naviyat asoslari predmeti esa, axloqiy va ruhiy xarakterga ega predmet bo'lib, u yosh avlodda, asosan, odob-axloq normalarini shakllantirishi, yoshlarga umuminsoniy va milliy ma'naviyatimizni inson va jamiyat hayotida turgan o'rni va rolini to'g'ri anglatish orqali ularda yuksak ma'naviyatni shakllantirishi zarur.

Shu bois milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarining o'qitilishini har bir ta'lim turi auditoriyasi (tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba va tinglovchilar)ning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda to'g'ri taqsimlab olish juda muhim hisoblanadi. Bizningcha, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini ta'lim turlari kesimida (har bir ta'lim turi auditoriyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib) o'qitishning foiz ko'rinishida quyidagicha taqsimlash mumkin:

(1-jadval).

1-jadval. Ta'lim turlari kesimida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini o'qitishning foizlarda taqsimlanishi

№	Ta'lim turi	“Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni ta'lim turlari kesimida nomlanishi	“Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani tarkibidagi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini foizlarda taqsimlanishi	
			Milliy g'oya predmeti	Ma'naviyat asoslari predmeti
1.	Maktabgacha ta'lim muassasalari	Ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulotlar mazmuniga singdirish	20%	80%

2.	Umumiy o'rta ta'lim 1-4-sinflar	Odobnoma		20%	80%
	5-6-sinflar	Vatan tuyg'usi		30%	70%
	7-8-9-sinflar	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari		60%	40%
3.	10-11-sinflar	Milliy istiqlol g'oyasi	Ma'naviyat asoslari	100%	100%
	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi				
4.	Oliy ta'lim	Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari		80%	20%
5.	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash	Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari		80%	20%

Mazkur turkumga kiruvchi fanlarni o'qitish jarayoni uzluksizlik va izchillikni talab etadi. Bu jarayon, albatta, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulotlardan boshlanishi katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari yo'nalishida alohida fanni joriy etish mumkin bo'lmasa-da, lekin bu predmetlarni mazmunan ushbu muassasalarda o'tiladigan ta'limiy-tarbiyaviy mashg'ulotlar mazmuniga singdirish mumkin. Albatta, bu ishni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga milliy g'oya predmetidan ko'ra ko'proq ma'naviyat asoslari predmetining mazmuniga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchisi yoshidagi avlodda birinchi navbatda bugungi davrdagi mafkuraviy jarayonlarni anglatish hamda bunyodkor va vayronkor g'oyalarni ajrata olish ko'nikmasini shakllantirish emas (chunki mafkuraviy tarbiya ancha murakkab va og'ir jarayon hisoblanadi), avvalo, bu yoshdagi tarbiyalanuvchilarda odob-axloq normalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi avlod tarbiyasida milliy g'oya bilan bog'liq ma'lumotlarni 20 foiz, odob-axloq va ma'naviyat bilan bog'liq ma'lumotlarni 80 foiz ko'rinishida taqsimlash maqsadga muvofiqdir.

Yosh avlod umumiy o'rta ta'lim turi (boshlang'ich ta'lim)ga kirib kelar ekan, u hali psixologik jihatdan to'la maktab o'quvchisi darajasiga yetmagan bo'ladi. Ya'ni boshlang'ich ta'lim bosqichiga qadam qo'ygan bola hali tarbiyalanuvchi holatidan to'la chiqib keta olmagan va ayni vaqtda to'liq maktab o'quvchisi darajasiga ko'tarila olmagan holatda bo'ladi. Lekin shunga qaramay ushbu bosqichda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni, ya'ni "Odobnoma" fanini o'qitish boshlanadi. "Odobnoma" fanini o'qitishda yosh avlodni psixologik jihatdan hali tarbiyalanuvchi holatidan to'la chiqib ketmaganligini va ayni vaqtda to'liq maktab o'quvchisi darajasiga ko'tarilmaganligini hisobga olish lozim. Shunga ko'ra ushbu bosqichda ham xuddi maktabgacha ta'lim muassasasi bosqichidagidek "Odobnoma" fanida milliy g'oya bilan bog'liq mavzularni 20 foiz, odob-axloq va ma'naviyat bilan bog'liq mavzularni 80 foiz ko'rinishida o'qitilishini ta'minlash kerak.

Umumiy o'rta ta'limning 5-6-sinflarida "Vatan tuyg'usi" fani o'qitiladi. Albatta, bu fan ham milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlari asosida shakllanadi. Bizningcha, 5-6-sinflar o'quvchilarining yosh va o'zlashtirish xususiyatlaridan kelib chiqqan

holda yuqori (1-jadval)da ko'rsatilganidek, “Vatan tuyg'usi” fani mazmunida maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limga nisbatan milliy g'oya predmetiga biroz ko'paytirilgan holda 30 foiz mavzular, ma'naviyat asoslari predmetiga esa biroz kamaytirilgan holda 70 foiz mavzular ajratilishi foydadan holi bo'lmaydi.

Umumiy o'rta ta'limning 7-8-9-sinflarida esa – eng asosiy “Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fani o'tila boshlaydi. Bu fan o'z nomlanishi bilan tarkibida ikki predmet, ya'ni milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlari mavjudligini yaqqol ko'rsatib turadi. Mazkur sinflarda “Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari” yaxlit fan sifatida o'qitilsa-da, bunda o'quvchilarning yosh xususiyati, ya'ni ularni o'smirlik davrida ekanliklarini, mamlakat va ayni damda jahondagi voqealarga ham qiziqishlari ortganligidan kelib chiqib, ushbu fan tarkibidagi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini mazmunan to'g'ri taqsimlashga katta e'tibor qaratish lozim.

Ma'lumki, 7-8-9-sinf o'quvchilari bu yoshda ko'cha-ko'yda nisbatan mustaqil harakatlana boshlaydi. Bu yoshgacha ular faqat tor doira (masalan, maktab va mahalla)da do'st va tanishlar orttirgan bo'lishsa, endilikda ular keng doira (ko'cha-ko'yda, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa joylar)da do'st va tanishlar orttirish imkoniga ega bo'lishadi. Bu esa, ko'p hollarda ularni ishonchli do'st va tanishlardan ham ko'ra ko'proq ishonchsiz, yot ma'naviy va mafkuraviy xurujlar yoki jinoiy maqsaddagi kimsalarga yaqinlashishiga ham olib kelishi mumkin. Shu bois 7-8-9-sinflardagi “Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fani mazmunida milliy g'oya predmetiga oid mavzularni yanada ko'paytirish, ya'ni uni 60 foiz, ma'naviyat asoslari predmetidagi mavzularni esa 40 foiz etib belgilash lozim bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'limning 10-11-sinflari hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (kasb-hunar kollejlari va akademik litsey) o'quvchilari o'zining yosh xususiyatlari va qiziqishlariga ko'ra eng murakkab davrdagi o'quvchilar hisoblanadi. Shuning uchun ham bu davrda milliy g'oya predmeti 100 foiz “Milliy istiqloq g'oyasi” fani sifatida, ma'naviyat asoslari predmeti esa 100 foiz “Ma'naviyat asoslari” fani sifatida bir-biridan ajratilgan holda o'qitilishi hamda bu ikki predmetga ushbu bosqichda teng o'quv soatlarni ajratilishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Buning natijasida o'quvchilarda milliy g'oya asosida mafkuraviy immunitet to'la shakllanishi mumkin. Ma'naviyat asoslari predmetini 100 foiz “Ma'naviyat asoslari” fani sifatida o'qitish orqali esa ularda milliy va umuminsoniy ma'naviyatni to'la shakllantirishni to'liq ravishda tugallash lozim bo'ladi. Binobarin, bunday qilinmagan taqdirda, oliy ta'limda ta'limni davom ettirmay, bevosita ishlab chiqarish jarayoniga o'tib ketadigan ko'plab yoshlarda mafkuraviy immunitet va milliy ma'naviyatni to'la shakllantirish masalasi hal etilmay qoladi.

Oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlari “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fani sifatida yana birlashadi. Albatta, ushbu bosqichda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlari garchi umumiy tarzda “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” fani sifatida birlashsa-da, baribir ushbu ikki predmetning bu fandagi ulushini to'g'ri taqsimlab olish juda zarur hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi auditoriyasigacha yetib kelgan shaxslarda umumiy holatda, avvalo, yosh xususiyati va qolaversa maktabgacha ta'limdan boshlab to oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida tarbiyalanuvchi va o'quvchi-yoshlarga nisbatan ancha barqaror ma'naviy-ruhiy holat shakllangan bo'ladi. Ushbu holat va oliy ma'lumotli-

lik darajasi sabab bu toifadagi kadrlarga jamiyatda boshqa insonlarni, jumladan, yosh avlodning g'oyaviy va ma'naviy tarbiyasi bilan ham shug'ullanish vazifasi yuklanadi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi auditoriyasining xususiyatlari hamda mazkur auditoriyaga yuklanadigan vazifalardan kelib chiqqan holda "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining mazmunida milliy g'oya predmetini 80 foiz, ma'naviyat asoslari predmetini esa 20 foiz etib belgilash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi auditoriyasiga "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida, avvalo, ushbu auditoriyada nisbatan barqaror ma'naviy-ruhiy holat shakllanganligini va ayni damda ular zimmasiga yosh avlodning g'oyaviy va ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanish vazifasi yuklanganligini hisobga olish lozim. Buning uchun ularga "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagidek ularni ko'proq ma'naviy tarbiyalashga urg'u bermay, (cheklangan vaqt va imkoniyat oralig'ida) asosan, mafkuraviy bilimni oshirishga, ularda milliy mafkura bo'yicha mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishga urg'u berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mafkuraviy kompetentlik deganda, shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va o'zi ishongan mafkura bo'yicha kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasi tushuniladi.

Mafkuraviy kompetentlik yaxlit ko'rinishda bo'lsa-da, biroq unda uchta asosiy komponent mavjud bo'ladi. Ular:

- mafkura sohasida chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish;
- muayyan mafkura (nazariyasidagi g'oya va tamoyillar)ga nisbatan kuchli ishonch va e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi;
- o'zi ishongan mafkuraning g'oyalarini boshqa insonlarda ham shakllantira olish uchun muayyan (ichki, ilmiy-nazariy va tashqi tashkiliy-metodik) ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kabilardir.

Biror-bir shaxsda yuqoridagi uch komponentning birgalikda mavjud bo'lishi bu shaxsda mafkuraviy kompetentlik mavjudligini ko'rsatadi. Aksincha bo'lsa, ya'ni muayyan shaxsda yuqoridagi komponentlardan birining mavjud emasligi unda mafkuraviy kompetentlik to'la shakllanmaganligini bildiradi.

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi o'ta jadallashib borayotgan davrda yosh avlodning hayoti juda ko'plab foydali va foydasiz axborotlar ta'siri ostida kechayotganligini inobatga olish hamda shundan kelib chiqqan holda oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining o'qitish jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Bu jarayonda esa "pedagog kadrlarning mafkuraviy masalalar borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish"⁴ga va shu orqali ularda milliy mafkuraga asoslangan mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishga ko'proq urg'u berilsa, foydadan holi bo'lmaydi.

Xulosa sifatida aytganda, "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar tarkibidagi ikki predmet, ya'ni milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarining maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida to'g'ri taqsimlash va ularni ta'sirchan shaklda o'qitishni

⁴ G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012, 212-b.

ta'minlash jarayoni kichik bir maqola yoki ma'ruza bilan hal etiladigan oddiy jarayon emas.

Bu ishni amalga oshirish uchun, birinchidan, barcha ta'lim turlarida “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish bo'yicha umumiy konsepsiyani ishlab chiqish;

ikkinchidan, ushbu umumiy konsepsiyani kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuniga singdirish;

uchinchidan, kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida ham nazariy, ham metodik jihatdan ta'lim turlarining xususiyatlariga mos keladigan darslik va qo'llanmalarni yaratish;

to'rtinchidan esa, oliy ta'lim hamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limida yosh avlodning g'oyaviy va ma'naviy tarbiyasiga mas'ul bo'lgan kadrlarni tayyorlash miqdori va sifatiga talabchanlik bilan yondashishni yo'lga qo'yish lozim.

Shundagina “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlar tarkibidagi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini har bir ta'lim turi kesimida to'g'ri taqsimlashning huquqiy-me'yoriy asosi shakllanadi va ayni vaqtda ushbu fanni yuqori malakali, mafkuraviy kompetentlikka ega kadrlar bilan ta'minlash imkoni vujudga keladi. Huquqiy-me'yoriy asos va yuqori malakali, mafkuraviy kompetentlikka ega kadrlar o'z-o'zidan har bir ta'lim turi auditoriyasida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari predmetlarini mantiqiylik, uzluksizlik hamda izchillik tamoyillari asosida o'qitishni va shu orqali yosh avlodga globallashuv davriga mos ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvarda qabul qilingan “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida”gi Farmoyishi. “Ma'rifat” gazetasi. 2001-yil 20-yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining “Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarga vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'ularini singdirish samaradorligi to'g'risida”gi 2/1-HB-sonli buyrug'i. // Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. 2010-yil 3-son, 26-38-betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” nomli ma'ruzasi. www.xs.uz. 08.12.2016.

5. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012, 212-b.

Gulruxsor ERGASHEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n

TALABALARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada “kreativlik” tushunchasining mohiyati, ijodkorlik tushunchasi bilan o‘zaro farqi va bog‘liqligi hamda kreativ texnologiyalar xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyatini ilmiy asoslab bergan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, ijodkorlik, kreativlik jarayoni, axborot oqimi, anglash, vaqt, infra-struktura, kreativlikning ta’sir mexanizmi, kreativ axborot texnologiyalari.

В статье раскрывается сущность понятия “креативность”, идет речь о различии и взаимосвязи креативности с творчеством, о креативных технологиях, значении технологий, развивающих креативное мышление студентов.

Ключевые слова. Креативность, творчество, процесс креативности, поток информации, осознание, время, инфраструктура, механизм влияния креативности, креативные информационные технологии.

Article reveals the essence of the concept of “creativity”, it is about the difference and relationship of creativity with creation, creative technologies, the importance of technologies that develop the creative thinking of students.

Key words. Creativity, creation, the process of creativity, the process of creation, information, the flow of information, awareness, time, infrastructure, the mechanism of the influence of creativity, creative information technologies.

Bugungi kunga kelib har qaysi zamonaviy davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi birinchi navbatda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga, bu sohadagi ilg‘or o‘zgarishlar esa, avvalo, mutaxassis kadrlar ijodiy qobiliyatlari darajasi-ga bog‘liq ekanligi bois, tafakkur kreativligini rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini aniqlash, bu maqsadga xizmat qiluvchi samarador pedagogik-psixologik texnologiyalarni ishlab chiqish masalasiga pedagogika fanidagi dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Ta’limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga doir bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko‘rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, oliy maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta’lim tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potentsiali, o‘z-o‘zini ijodiy rivoj-

lantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim.

Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o'sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo'lsa-da, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differensiyasini topmagan va ijod psixologiyasiday yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.¹

Hozirda rivojlanishning zamonaviy bosqichida mazkur an'analar inson omilining hal qiluvchi o'rini belgilamoqda. Bu omilning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi. Faqat ijodiy, kreativ qarash haqiqiy yangilikni anglashga olib keladi.

Zamonaviy axborotlashgan makonda insonga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar va ommaviy kommunikatsiyaning tuzilishi asosiy rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar axborotlar bilan ishlovchi ko'plab faoliyat doiralarida, masalan, marketing, reklama va boshqalarda amalga oshiriladi. Axborot makonini tayanch elementi va rivojlantiruvchi sharoitlari kreativlik hisoblanadi.

Mavjud qator vaziyatlarni, faqat kreativ fikrlashga ega shaxslargina hal etishi mumkin. Ba'zi hollarda ish muammoli tus olishi, faoliyat boshi berk ko'chaga kirib qolishi, vaziyatni hal qilishdan umid bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda ijodiy g'oyalar, muvaffaqiyat konsepsiyasini tuzish zaruratini paydo qiladi. Kreator shunday g'oyalar tashabbuskori va yaratuvchisi.

Kreativlik – lotincha atama bo'lib, “ijod” yoki “yo'q narsadan yaratish” kabi ma'noni anglatadi. G'arbda kreativlik ijodning texnologik elementi sifatida talqin etiladi. Axborot davriga qadar kreativlik va kreativ texnologiyalar haqida kamdan-kam insonlar ma'lumotga ega bo'lgan. Ijodkorlik XX asrlarda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Ko'pchilik “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini sinonim deb o'ylashadi, bu albatta noto'g'ri. Ijodkorlik jarayoni muallifning ilhomlanishiga, uning qobiliyatiga, an'analariga asoslanadi. Kreativlik jarayoni haqida gapiradigan bo'lsak, azaliy tushunchalarning borligi, nimanidir nima uchun, kim uchun va qanday yaratish va aynan nimani yaratish uning asosiy tashkil etuvchi pragmatik elementi hisoblanadi.

Bu savollarga bilimlarga tayangan holda javob berish va ishni muvofiq tamoyillar asosida tashkil etish atrofidagi insonlar bilan ish natijasini yuqori samarada taqdim etishni ta'minlaydi. Ma'lumki, rassomlar, kompozitorlar, yozuvchilar va boshqa ijod kishilari, o'zlariga bu savollarni bermaydi va ijod qiladi, o'zining kayfiyati va emotsiyasini boshqaradi. Ijod har doim birlamchi va fundamental. Birgina kreativ mahsulot pragmatik maqsad asosida yaratiladi. Masalan, kreativ mahsulot – bu manzara bo'lib, avvaldan belgilangan muzeyning rejalashtirilgan joyida, tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb etib, katta zavq bag'ishlashi oldindan belgilanadi. Kreativlikni ijodsiz amalga oshirish mumkin emas. Kreativlik – bu ijod jarayonining tashkil etish texnologiyasi,

¹ Mavlonova R., Raxmanqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2013. 270-b.

agarda aniq maqsad va uni amalga oshirish uchun o'z oldiga ma'lum vazifalarni qo'y-masa samarasiz bo'ladi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijod va kreativlikni o'zaro bog'lash imkoniyati tug'ildi. Agar avvallari insonlar hayotida pul, yer, oltin va boshqalarning moddiy qimmatini birlamchi o'rinda tursa, bugungi kunda asosiy qimmatga ega narsa axborot hisoblanadi, dunyoni axborotlar bilan ishlash va uni to'g'ri yo'naltirish xususiyatiga ega bo'lgan insonlar boshqaradi. Bu axborotlar ustida o'ziga xos anglash imkoniyatiga ega bo'lgan (qaysi bir axborot zarur bo'lgan) insonlar faoliyatni amalga oshiradi. Bundan kelib chiqib, har biri mustaqil yangilik haqida xulosa qiladi, sanoatlashgan resurs paradigmasi asosida to'rtta element – axborot, anglash, vaqt va infrastruktura yotadi. Har bir resursni alohida boshqarish ko'nikmasi ahamiyatli sifati, bu resurslarning aniqlangan tuzulishdagi konfiguratsiyasida birgina faoliyat samarali hisoblanadi.

Sanoatlashgan makonda axborotlar ko'lami juda keng. Insoniyatni ommaviy, individual, korporativ, etnik anglash – bunday hajmdagi axborotlarni qabul qilishga mos emas. Axborot oqimi juda katta tezlikda kirib kelmoqda. Zamonaviy moliyaviy bozorlarda kapitalning harakatlanish tezligi amaliy jihatdan axborotlar harakat tezligiga mos. Bu esa, o'z navbatida, axborotlarga murojaat etish va almashinish doirasi tezligining ortishiga olib keladi. Barcha xabarlarining kreativ yadrosi yaxlit auditoriyaning ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligini maksimal ta'minlash, shuningdek, xabarlar paketida "axborotli shovqin" ko'tarilmasligi va e'tibordan chetda qolmaslikdan iborat. Ayni vaqtda axborot asosiy mahsulot bo'lib, moddiy tashkil etuvchi emas. Iste'molchini mahsulotning funktsionalligini emas, sotib olingan narsaning bo'lajak egasi sifatida ijtimoiy statusda yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Shunday qilib, sotib oluvchi tanlovini tovarning axborot tashkil etuvchisi vositasida samarali boshqarish mumkin. Demak, bu tashkil etuvchining kreativ komponenti hisoblanadi.

Kreativ ta'sir mexanizmining asosini kreativ axborot texnologiyalari tashkil etadi. Ta'sir butun auditoriyaning madaniy kodlari, belgilari, miflari va axborot iste'molchisining psixologik afzalliklari, ishlab chiqilgan tadqiqot metodlari asosida aniqlanadi. Axborot oqimini shakllanish prinsipi va uni boshqarish maqsadli auditoriyalarni anglash tarkibiga muvofiq tuzilgan, hamda yangi maqsadli auditoriyalarning shakllantirishga yo'naltirilgan demak, buning zahirida kreativ texnologiya yotadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan, kreativlik faoliyatda namoyon bo'ladi va shakllanadi, ya'ni o'quv sohalarni o'rganish jarayonida talabalar faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga erishish mumkin.

Talabalar kreativligini rivojlantirishning asosiy komponentlari quyidagilar:

- motivatsion – ijodiy faoliyatga milliy munosabatda bo'lish, qiziqishlari, motivlarini ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
- mazmunli – bilim va ko'nikmalarni; umummadaniy, kasbiy va maxsus xarakterdagi kompetensiyalarni qamrab oladi;
- faoliyatli – harakat usullarini qamrab oladi, fikrlashga oid mantiqiy jarayon, shuningdek, amaliy faoliyat usullari;
- reflektiv – shaxsiy ijodiy faoliyati haqida fikrlash va tahlil etish.

Talabalar kreativligini rivojlantirish ko'p darajali bo'lib, ta'lim jarayonini quyidagi prinsiplar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega:

- qulay va psixologik xavfsiz ta'lim muhiti;²
- shaxsning o'z-o'zini ijodiy faollashtirish prinsipi;
- o'qitishni zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida amalga oshirish (ko'rgazmalilik prinsipi);
- muammoli-izlanish faoliyati prinsipi;
- ta'lim jarayonini individuallashtirish prinsipi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishning asosiy mezonlari sifatida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi va ularning fikrlash tiplarini aniqlash hisoblanadi.

Hozirgi kun ta'lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish – fikrni shakllantirish va takomillashtirish: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, rejalashtirish, mavhumlashtirish; quyidagi fikrlash tavsiflarga ega bo'lish: tanqidiyligi, teranligi, moslashuvchanligi, kengligi, tezligi, xilma-xilligi, shuningdek, tasavvurni rivojlantirish va turli mazmundagi bilimlarning sohibi bo'lish.³

Shaxsning kreativligini shakllantirish uchun nafaqat axloqiy xususiyatlari, balki maxsus tashkiliy muhit ham talab etiladi. Masalan, kreativlikni rivojlantirishning “lokal” metodikalari (misol uchun, nostandart topshiriqlarni yechish) bevosita foydali. Birgina ularni qo'llash natijasida, tahsil oluvchilar masalani hal etishning bir qancha yangi usullarini o'zlashtiradilar va yakunda o'zlashtirgan harakatlarni ishlab chiqaradilar (masalan, intellektual olimpiadalarda ishtirok etish uchun maxsus tayyorlanadi). Bunday hollarda kreativlik shaxsning shaxsiy talablari natijasi emas, balki aniq holatda tashqi ta'sirga javob ko'rinishida namoyon bo'ladi. Aynan shuning uchun ham kreativlikni ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyati sifatida shakllantirishda har tomonlama tizimli ta'sir ko'rsatishni ta'minlovchi maxsus muhit zarur.

Ijodiy fikrlash tajribasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishning psixologik-pedagogik sharoitlarini ikki guruhga ajratish mumkin: obyektiv (vaziyatli) va subyektiv (shaxsiy). Subyektiv sharoitlar bu inson xarakterining barqaror jihatlari, u yoki bu vaziyatlarda holatga butun qobiliyati bilan yondashish. Obyektiv muhit sharoitlariga ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchi tashabbusiga ta'sir o'tkazmasdan, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonchni shakllantirish, mustaqilligini rag'batlantirish, tasavvurni rivojlantirish kabilar kiradi.

Subyektiv (shaxsiy) sharoitlar shaxsga xos xarakter xususiyatlari yig'indisi, bo'lajak mutaxassislarni ijodiy fikrlashini shakllantirish tajribasi asosida (pedagogik uslublar, metodlar, vositalar yordamida) amalga oshiriladi. Mazkur yig'indi o'zida quyidagilarni qamrab oladi:

- a) ta'lim oluvchilarning shaxsga xos sifatleri;

² Федотенко, И. Л. Теоретические аспекты профессиональной подготовки будущих учителей к проектированию психологической безопасной образовательной среды // И. Л. Федотенко, Д. В. Малий // Вестник Челябинского Государственного педагогического университета. 2013. № 7. – С. 138 –148.

³ Кохановская Д.Р. Теоретический анализ проблемы развития креативности у студентов // Д. Р. Кохановская // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы ИИИ междунар. науч. конф. – Уфа., 2012.

b) ijodiy faoliyatning barqaror ijobiy motivatsiyalari, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, shaxsning intilish darajasi, bilish faoliyatiga talabchanlik;

d) ijodiy yaratuvchanlik, emotsional holatlar tizimini qamrab oladi;

e) umumiy va maxsus nazariy tayyorgarlikning zaruriy va yetarli darajasi kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning mazmunli bazasi sifatida;

f) shaxsning kasbiy yo'naltirilganligi motivlarni shakllantirish asosida vazifalarni hal etishga kasbiy-ijodiy yondashuv asosida yo'naltirish;

g) maqsadga erishish.

Obyektiv (vaziyatli) sharoitlar maqsadga yo'naltirilgan pedagogik (shakllantiruvchi) ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ta'minlaydi, shuningdek, belgilangan maqsadga muvofiq yo'naltiradi. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

a) pedagog shaxsi va axloqi. Pedagog texnologik jarayonda asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi, uni tashkillashtiradi, talabalar bilan aniq amaliy hamkorlikni ta'minlaydi, motivatsion qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi, ijodiy potensialini faollashtiradi. Talabalar ijodiy faolligini orttirish uchun o'qituvchi, avvalo, o'zining shaxsiy kreativligini namoyon qilishi lozim;⁴

Pedagog ta'lim oluvchilarda xotira, tafakkur, axloq va munosabatlarda rejalashtirilgan zaruriy o'zgarishlarni yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratishi va uni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi, ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi va o'z faoliyati bilan ularga o'rnak bo'lishi zarur.

b) jamoadagi ma'naviy-psixologik iqlim ijodiy muhit yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi, ijodga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni bartaraf etishi lozim. Qulay psixologik muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi: barcha talabalarda ijodiy jarayonning ortishi, stereotiplarning erkinligi, muhokamaning noqulay bo'lmasligi, tashabbusi va mustaqilligi, ijodiy kasbiy faoliyatga qiziqishi va tayyorligi. Buning uchun pedagog o'quv jarayonini o'zaro hurmat, talabalarning kuchli tomoniga tayanish, ularning individual xususiyatlarini o'rganish, hamkorlik ruhi va tenglik munosabatlarini vujudga keltirish, har bir talabaning muvaffaqiyatini rag'batlantirish asosida tashkil etishi lozim. Ijodiy muhitni yaratish uchun musobaqa kayfiyatini vujudga keltirish, har bir talabaning ijodiy g'oyalarini qadrlashni ta'kidlash zarur;

d) moddiy-texnik baza. Har qanday kasbiy ahamiyatli sifatlar, ko'nikma va malakalar asosida bilim yotadi. Talabalarning zarur bilimlar bilan qurollantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifasi sanaladi. Yetarli hajmdagi bilimni egallash uchun talabalar nafaqat o'quv mehnatiga qiziqishi va mustaqil ilmiy tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalariga, balki muvofiq imkoniyatlarga ham ega bo'lishi zarur. Bu adabiyot fondi va kompyuter ta'minoti, Internet tarmog'idagi ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyati va jamiyatga madaniy qadriyatlar asosida munosabatda bo'lishdan iborat;

e) o'quv jarayonini tashkil etish. O'quv jarayonini tashkil etish kasbiy-ijodiy fikrlash tajribasini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, muammoli xarakter kasb etishi lozim.

⁴ Информационно-коммуникационные технологии в образовании и профессиональной деятельности: Курс лекций: Учеб. пособие // А. Н. Сергеев, А. В. Сергеева, П. Н. Медведев, Д. В. Малий. Тула: Изд-во Тул. гос. пед. ун-та им. Л. Н. Толстого, 2014.

Talabalarda kreativ fikrlash tajribasini shakllantirish jarayoni – pedagog va ta'lim oluvchilarning maqsadli ijodiy hamkorligini ta'minlovchi maxsus tashkiliy sharoitlar, zarur metod, shakl va mexanizmlarni qo'llashni talab etadi.

Mashg'ulotning tashkiliy metod va shakllari majmua holda qo'llanib, shakllantirishning aniq bosqichi vazifalariga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy-ijodiy fikrlash tajribasini shakllantirish yo'nalishlarini quyidagi metodlar guruhlariga ajratish mumkin.

O'quv faoliyatini tashkil etish usullariga ko'ra:

a) mantiqiy strukturali (topshiriqli) metodlar. Ular didaktik topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarishni tashkillashtirish, uni hal etish usullarini tanlash, olingan natijalarni tashxislash va baholash bilan tavsiflanadi (oddiydan-murakkabga, nazariyadan-amaliyotga) (G.A.Ball, I.P.Kaloshina);

b) treningli metodlar. Ular o'zida o'quv-bilish faoliyatining aniqlangan algoritmini puxta o'zlashtirish va o'qitish davomida namunaviy topshiriqlarni hal etish usullari (testlar va amaliy topshiriqlar, belgilangan bosqichda mazmunga ijod elementlarini qo'shish zarur);

d) o'yinli metodlar. Mazkur guruh metodlari ta'lim jarayonida subyektga o'yin shaklida ta'sir ko'rsatish bilan tavsiflanadi; ta'limiy topshiriqlar o'yin mazmuniga singdiriladi (ishchan o'yinlar, kasbiy bellashuvlar, munozaralar).

Shakllantiruvchi yo'nalishda:

a) ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish metodlari:

– qiyinlashtirilgan sharoitlarni qo'llash metodlari: vaqtni chegaralash metodi, kutilmagan to'siq metodi, yangi variantlar metodi, ma'lumotlar kamyobligi metodi;

– ijodiy izlanishni jamoaviy stimulashtirish metodlari: aqliy hujum metodi, sinektiklar “insonlar”ning fikrlarini umumlashtirish metodi, o'nlab turli xildagi fikrlar ichidan original hayotiy yechimni topish. Biri tavsiya etadi, ikkinchisi shakllantiradi, uchinchisi rivojlantiradi. Biroq har biri fikrlashning ijodiy jarayonlarini qamrab oladi. Taqdim etilgan topshiriqni yechishda aniq amaliy natijadan tashqari, bir andozada fikrlashdan voz kechib, qo'shimcha samaraga erishiladi;

b) emotsional ta'sir ko'rsatish metodlari (shaxsiy kasbiy-ijodiy va o'quv-bilish faoliyati tajribasini shakllantirish va unga pozitiv emotsional munosabat sharoitini yaratish): kengaytirish, o'quv-emotsional o'yinlar, muvaffaqiyat vaziyatini vujudga keltirish, baholash rag'batlantirish, ijodiy topshiriqlarni erkin tanlash, alternativ topshiriqlarni tanlash, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini ta'kidlab o'tish (Y.Y. Yakovleva).

d) xotira tayyorgarligini shakllantirish metodlari. Kasbiy komponentlar aqliy faoliyatda kasbiy vazifalarni hal etishning va kasbiy bilim, ko'nikmalarni boshqarishning shaxsiy yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, uni rivojlantirish kasbiy faoliyat mazmunida aniq vazifalarni hal etish bilan bog'liq bo'ladi. Bu mazmunda kasbiy ijodiy fikrlash tajribasining boshqaruv va sifatli komponentlari rivojlantiriladi.

Talabalarning ijodiy rivojlantirish sharoitlari, metodlarini tanlash va darslarni loyihalashtirish pedagogdan yuqori kasbiy mahorat, ijodiy izlanish hamda ko'p vaqt talab etadi. Bu ijodiy izlanishlar natijasida oliy o'quv yurtining bitiruvchilari kelajakda respublikamiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan, kasbiy to'siqlar va muammolarni ijodiy fikrlash darajasida olgan bilimlariga tayangan holda hal etadigan yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishga zamin tayyorlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, talabalar kreativligini rivojlantirishda o'quv jara-yonining muhim tarkibi sifatida murakkablik darajasi turlicha bo'lgan, ijodiy qobiliyat-larini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlardan keng foydalanish hamda bir turdagi loyihalashga xos bo'lgan topshiriqlar miqdorini kamaytirish lozim. O'quv dasturlarini tuzishda talabalarning ta'limiy talablarini qondirish, kasbiy faoliyat-larida yuqori natijalarga erishishga yo'naltirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mavlonova R., Raxmanqulova N. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovat-siya, integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uy, 2013. 270-b*

2. *Федотенко, И. Л. Теоретические аспекты профессиональной подго-товки будущих учителей к проектированию психологической безопасной об-разовательной среды // И. Л. Федотенко, Д. В. Малий // Вестник Челябинского Государственного педагогического университета. 2013. – № 7. – С. 138–148.*

3. *Кохановская Д.Р. Теоретический анализ проблемы развития креатив-ности у студентов // Д. Р. Кохановская // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы ИИ междунар. науч. конф. – Уфа., 2012.*

4. *Информационно-коммуникационные технологии в образовании и про-фессиональной деятельности: Курс лекций: Учеб. пособие / А. Н. Сергеев, А. В. Сергеева, П. Н. Медведев, Д. В. Малий. Тула: Изд-во Тул. гос. пед. ун-та им. Л. Н. Толстого, 2014.*

Tahririyat: *Ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashda talaba-yoshlar faoliya-tini maqsadga muvofiq tashkil etib, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim sifatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Albatta, bugungi kun yoshlarining yangilik yaratishga bo'lgan maqsadlari oliy darajada. Shu bois muallif o'z maqolasida tala-ba-yoshlarga bu yo'lda to'g'ri yo'nalish berish eng avvalo, pedagogning yuqori kasbiy mahoratining shakllangan bo'lishi lozimligini ilmiy xulosalab bergan. Ishonchimiz ko-mil, ushbu maqola o'qituvchi pedagoglar uchun ijobiy samara beradi.*

Maftuna GAPPAROVA,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHILAR TAYYORLASH JARAYONLARINI TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Annotatsiya

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish yo'nalishidagi konseptual yondashuvlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib tayyorlangan mazkur maqola o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni tatbiq etishning zaruratiga bag'ishlangan. Shuningdek, unda murakkab pedagogik tizim sifatida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari komponentlarining tizimga xos xususiyatlari hamda ularning amaliy ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ta'lim, tizimli yondashuv, konseptual yondashuv, o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari, komponentlar, murakkab pedagogik tizim, yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik, boshqaruvchanlik.

В статье рассмотрена проблема управления процессом подготовки учителей на основе результатов педагогических исследований по организации системного подхода к управлению, научно обоснована система компонентов управления, определены особенности данной сложной педагогической системы.

Ключевые слова. Непрерывное образование, системный подход, концептуальный подход, процесс подготовки учителей, копоненты, сложная педагогическая система, целостность, общность, универсальность, дифференцированность, управление.

Article deals with the problem of managing the teacher training process on the basis of the results of pedagogical research on the organization of a system approach to management. Also scientifically substantiated the system of management components, determined the features of this complex pedagogical system.

Key words. Continuous education, system approach, conceptual approach, components, complex pedagogical system, teacher training process, integrity, community, universality, differentiation, management.

Zamonaviy pedagogika fani pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish g'oyalari har tomonlama, turli yondashuvlar asosida tadqiq etish bilan bir qatorda, ularni ta'lim amaliyotiga joriy etish texnologiyalarini takomillashtirib boradi. Bugungi kunda o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyalarini joriy etmasdan mazkur jarayonlarning samaradorligini ta'minlashni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qituvchilar tayyorlash jarayonlariga tizimli yondashuvni joriy etish uzluksiz ta'lim jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash asosida kompetentli o'qituvchilar tayyorlashga xizmat qiladi.

O'qituvchilar tayyorlash jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etishda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tashkil etiladigan, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha pedagogik jarayonlar majmuyi yaxlit tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda pedagogik jarayonlarning aloqalari va bog'liqligi hamda o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari samaradorligiga ta'siri inobatga olinib, tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lgan barcha jarayonlar bir butun, ya'ni yaxlit tarzda loyihalashtiriladi.

O'qituvchilar tayyorlash tizimi samaradorligini o'rganishda uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratilib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda tizimga muayyan yaxlitlikni tashkil etuvchi hamda o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlarning majmuyi sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar pedagogik tizimlarni o'rganish jarayonida, yaxlit tarzda pedagogik tizimni bir necha tashkil etuvchi jarayonlarning majmuyi sifatida ko'rib chiqadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, amaliyotda mazkur jarayonlar bir-biriga uzviy bog'liq va aloqador bo'lmagan holda tashkil etilmoqda.


Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlariga tizimli yondashuvni joriy etish o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan mujassamlashtirilgan texnologiyalarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Tizimli yondashuvni tatbiq etish texnologiyalari majmuyi o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini loyihalashtirish, modellashtirish, tashkil etish va boshqarish yo'nalishlarida pedagoglarga qo'yilayotgan talablar majmuyini ifodalashi bilan bir qatorda, ularning faoliyati samaradorligini ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

Demak, o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarining tizimga xos xususiyatlari, ya'ni: ta'lim tizimi sifatida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari komponentlari (tashkil etuvchi qismlari) ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi; har qanday (ya'ni o'zaro bog'liq va aloqador bo'lmagan) tashkil etuvchi qismlar (komponentlar) majmuyi tizimni tashkil etmasligi; yaxlitlik; umumiylik; universallik; differensiallik; strukturaviylik va boshqaruvchanlik; muayyan maqsadga yo'naltirilganlik. Shuningdek, eng asosiysi, tizimga xos yetakchi xususiyatlari sifatida izchillik, uzviylik va uzluksizligini e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida keltirilishicha, ta'lim tizimi: davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va no-davlat ta'lim muassasalari; ta'lim tizimining rivojlanishini ta'minlash uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi idoralari, ularning tasarrufidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlardan iboratdir.

Shunday ekan, o'qituvchilar tayyorlash tizimi ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi murakkab pedagogik tizim bo'lib, uni tashkil etuvchi komponentlarning barcha xususiyatlari va jihatlari pedagogik tizimga xos xususiyatlardir. Mazkur xususiyatlar uzluksiz ta'lim tizimi komponenti sifatida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari majmuyini ham murakkab tashkiliy tuzilmaga ega ekanligini ifodalaydi. Murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarining strukturaviylik va boshqaruvchanlik kabi xususiyatlari tizimni tashkil etuvchi komponentlarning har biri alohida kichik tizim ekanligini, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari makrotizim ekanligini ifodalaydi. Chunki o'z o'rnida makro-

tizim hisoblanayotgan har bir komponent o'z tarkibida sinf, guruh, fakultetlar va h.k.lar ko'rinishidagi kichik tizimlarga ega (1-rasm).



1-rasm. O'qituvchilar tayyorlash tizimi murakkab pedagogik tizim sifatida

Murakkab pedagogik tizim sifatida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari komponentlari (tashkil etuvchi qismlari)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi xususiyatlari har bir kichik tizim tarkibiy qism sifatida yaxlit tizimning tashkil etuvchisi (komponenti) ekanligini ifodalaydi, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim jarayonlari o'qituvchilar tayyorlash tizimi komponentlari hisoblanadi. O'qituvchilar tayyorlash tizimining murakkab pedagogik tizim sifatidagi yaxlitlik va umumiylik xususiyatlari esa o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan (yuqorida sanab o'tilgan) barcha kichik tizimlarning majmuyi uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etishini tavsiflaydi.

Demak, murakkab pedagogik tizim sifatida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarining eng muhim xususiyatlaridan biri yaxlitlik bo'lib, murakkab pedagogik tizimga xos mazkur xususiyat o'qituvchi shaxsining har tomonlama kamol topishi uchun o'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatuvchi atrof-muhit va pedagogik jarayon qatnashchilarining ijtimoiy yaxlitligini ifodalaydi. Ya'ni uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'limdan boshlab o'qituvchilik kasbiga qiziqtirish, maktab va maktabdan tashqari ta'lim jarayonlarida kasbga yo'llash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi va tarbiyachilar tayyorlashni amalga oshirilishi o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarining izchilligi va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni tatbiq etish zaruratining barcha asoslari o'qituvchilar tayyorlash muammolariga konseptual yondashuvlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini o'zaro bog'liq va aloqador tarzda,

ya'ni yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish ham tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuvni tatbiq etishning zaruriyati, mazmun-mohiyati va ahamiyati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarida subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;
- o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari murakkab pedagogik tizim sifatida o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan jarayonlar majmuyidan iborat ekanligi;
- uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro bog'liqligi;
- uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlari alohida bir tizim sifatida hamda yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- o'qituvchilar tayyorlash tizimining tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarining pedagogik tizim sifatidagi faoliyat samaradorligi mazkur jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyalarini tatbiq etishga bog'liq bo'lsa, pirovard natijada kompetentli o'qituvchi shaxsini tayyorlash ko'p jihatdan mazkur jarayonlarning mazmunan davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligiga ham bog'liq bo'ladi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimida murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan o'qituvchilar tayyorlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi muammolarining ko'pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat mazkur jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalarini o'zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Аблязимова Н.М. Педагогические условия формирования компетентности будущего учителя в аспекте инновационной деятельности. // Uzluksiz ta'lim jurnali. – T., 2008. – №4 – С.39-43.*

2. *Бордовский В.А. Теория и практика организационно-методического обеспечения инновационного развития высшего педагогического образования: дисс. ... д-ра пед.наук. – СПб., 1999. – С.365.*

3. *Тихомиров А.А. Управление развитием инновационного потенциала педагогических кадров в школе: дисс. ... канд.пед.наук. – Череповец, 2001. – С.80.*

Abdujamil KARIMOV,

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil izlanuvchisi

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi bayon etilgan. Muallif raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tizimini ishlab chiqib, kollej bitiruvchilariga bo'lajak kichik mutaxassislariga davlat, jamiyat va mehnat bozorining talablarini qayd etib o'tgan.

Kalit so'zlar. Raqobatbardosh kadr, mehnat bozori, bozor iqtisodiyoti, ta'lim-tarbiya sifati, innovatsiya, kompetensiya, sifat.

Статья посвящена вопросам подготовки конкурентоспособных кадров в системе среднего специального, профессионального образования. Автором изложены требования к выпускникам профессиональных колледжей, младшим специалистам, исходя из потребностей государства, общества и рынка труда.

Ключевые слова. Конкурентоспособные кадры, рынок труда, рыночная экономика, качество обучения и воспитания, инновация, компетенция, качество.

Article devoted to the issues of training competitive personnel in the system of secondary specialized, vocational education. The author outlines the requirements for graduates of professional colleges, junior specialists, based on the needs of the state, society and the labor market.

Key words. Competitive personnel, labor market, market economy, quality of education and training, innovation, competence, quality.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integ-rallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim sifati har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sifati bilan belgilanuvchi intellektual salohiyat jamiyat farovonligining muhim omiliga aylanmoqda. Bugun mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizni modernizatsiyalash sharoitida ta'lim tizimini malakali rahbar kadrlar bilan ta'minlash, ta'limni boshqarish tuzilmalari va raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatni kiritish g'oyasini ham ilgari suradi. Zamonaviy mutaxassislar nafaqat tabiiy-ilmiy bilimga va kasb-hunar bilimiga, balki o'zining ma'naviy dunyosini kengaytirish uchun gumanitar bilimga ham ega bo'lishi lozim. Chunki axloqiylikdan mahrum bo'lgan, ma'naviy dunyoqarashi tor mutaxassislar har bir qabul qilinayotgan qarorning tub mohiyatini anglamagan holda o'ziga ham, jamiyatga ham zarar yetkazib qo'yishi mumkin.

Uzluksiz ta'lim turlaridan bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotda joriy etish, yuksak ma'naviyatli, ijodiy fikr yurita oladigan, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, jamiyat, davlat va oilada javobgarlikni his etadigan barkamol shaxsni tarbiyalash, ular qalbiga va ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlarning muammolari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchisi mehnat bozorida o'z o'rnini topsa, raqobatbardosh bo'lsagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Amaliy tahlillar hozirgi kunda O'MKHT tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislar tezkor rivojlanayotgan jarayonlarning talablaridan orqada qolayotganini ko'rsatmoqda.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorligi ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo'lib, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri ta'lim tizimida mavjud gorizont va vertikal munosabatlarni tubdan o'zgarishiga olib keldi. Ta'lim sohasiga bozor munosabatlarini joriy etish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tasvirlovchi "raqobatbardoshlik", "raqobatbardosh mutaxassis", "raqobatbardosh kadr", "ta'lim xizmati", "ta'lim xizmati bozori", "iste'molchi", "mijoz" va h.k. degan tushunchalar paydo bo'ldi. Ayni paytda ta'limda tashkiliy, iqtisodiy, pedagogik, uslubiy va texnologik qayta jihozlashga yangi yondashuvlar talab qilinmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimi faoliyatini tubdan yangi shakllarda barpo qilish uchun mamlakatdagi ta'lim muassasasi ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga asoslangan ta'lim rivojlanishining strategiyasini loyihalashtirishga, ta'lim xizmati bozorining dinamikasiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Ushbu muammoni hal qilishning samarali usullaridan biri ilmiy va innovatsion yondashuvga asoslangan an'anaviy va global tendensiyalar eng yaxshi tajribalar hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizning iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ijtimoiy sohaga, xususan, ta'lim, kadrlar tayyorlash sohasiga katta e'tibor qaratilib, uzluksiz ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda innovatsion yondashuv asosida ta'lim tizimini individual komponentlarini rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy-tadqiqotlar, turli darajadagi yoki bosqichdagi o'quv jarayonlarini innovatsion boshqarish, innovatsion jarayonlarni modellashtirish, innovatsion faoliyat uchun o'qituvchilar tayyorlash zaruriyati tug'ildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda texnologik taraqqiyot va o'quv jarayoni tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlarni o'rganish va tahlil etish asosida ta'lim tizimini modernizatsiyalash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlari, o'quv-uslubiy jarayonga innovatsiyalarni joriy etish, pedagoglarni zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirish, ta'lim sifatini ta'minlashga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq masalalarni hal etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Albatta, raqobatbardosh kadrlarni shakllantirishning asosiy mexanizmi o'qitish va ta'lim xizmatlari sifatiga bog'liq. Iste'molchiga (ta'lim oluvchiga) ko'rsatilgan sifatli ta'lim xizmatigina uning ijobiy o'rnini shakllantiradi. O'MKHT muassasalarini samarali boshqarish va ijobiy imijini shakllantirish ta'lim xizmatida raqobatbardosh pozitsiyani egallashda innovatsion yondashuvni talab etadi. Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish miqyosida zarur ahamiyatga ega eng muhim omil faqat texnik g'oyalarni ishlab chiqarish emas, balki ichki va tashqi bozorlarga xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, uni amalga oshirish uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni ta'lim muassasalarida sifatli tayyorlash lozimligidir.

Bugungi kunda yangi ta'lim paradigmasiga mos kelish uchun O'MKHT tizimida ta'lim oluvchilarni maqsadli ravishda ijodiy shaxs sifatida shakllantirishni o'rganish juda muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchini nafaqat ijtimoiy-kasbiy bilimlar bilan ta'minlash, balki unda tanlagan kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam berish lozim. Ta'kidlash joizki, ta'lim jarayoni uchta asosiy maqsadlarni hal qilishi lozim. Bular:

- davlat manfaatlariga mos holda, o'quvchini bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlash;
- o'quvchini jamiyat a'zosi sifatida shakllantirib, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarini, me'yorlarni anglagan, jamiyat manfaatlari bilan hamohang faoliyat ko'rsatuvchi kadrlarni tayyorlash;

- o'quvchini faol, tashabbuskor, mantiqan fikrlovchi individ sifatida rivojlantirish.

O'quvchilarni mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- o'z intellektual imkoniyatlarini yuqori darajada amalga oshira olish, ijodiy potensialini imkoni boricha tashabbus va tadbirkorlikka yo'naltirish;
- ilmiy-texnik bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish;
- murakkab masalalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qila olish;
- raqobatli bozor iqtisodiyoti sharoitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyati darajasida raqobatbardosh etib tayyorlash.


O'MKHT tizimi kadrlar tayyorlash tizimi amaliy tajribalarini o'rganish, bu muammo bo'yicha o'tkazilgan maxsus tadqiqotlar ta'lim tizimining tezkor yangilanishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish va ulardan o'zib ketishga yetarli tayyor bo'lmagan amaldagi kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi o'rtasidagi keskinlashgan ziddiyatning mavjudligini ta'kidlashga imkon beradi.

Ushbu ziddiyatning jiddiyligi shubhasizdir – unda ta'limga, shaxsga va pedagogik kadrlar faoliyatiga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy talablar va bu talablarga yetarli darajada javob bermaydigan kichik mutaxassislar tayyorlash tizimining holati o'rtasidagi tashqi nomunofiqlik aks etadi.

Ziddiyatlarni tan olish va ilmiy tahlil qilish ularni bartaraf qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, izlanishlarning mazmuni va yo'nalishlarini hamda O'MKHT tizimida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-didaktik tizimini ilmiy tamoyillar asosida qayta ishlab chiqishning aniq choralarni aniqlaydi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik tizimi

(Ijtimoiy-pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida raqobatbardosh kadr modeli belgilangan)



Belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda uzluksiz ta'limga bo'lgan konseptual qarashlar tizimini rivojlantirishni, kadrlar kasbiy-shaxsiy rivojlanishining psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashni talab qiladi. Fanlararo tadqiqotlarning natijalarini jamlaydigan pedagogik konsepsiyaning mohiyati uzluksiz pedagogik ta'limning tabiatini – ta'limning maqsadi, mazmuni, o'qitishning metodlari va shakllari hamda ular tarkibiga kirgan aniq ta'lim texnologiyalari, pedagogning uzluksiz ta'limi jarayonining samaradorligi mezonlari, boshqaruv mexanizmlari kabi kategoriyalar orqali ochishda ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz pedagogik ta'limning muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobiy baho berib, hozirda shakllangan O'MKHT muassasalarida kadrlar tayyorlash zamonaviy talablarga javob berishi uchun yuqoridagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ilmiy-pedagogik tizimidagi kompetensiya va sifatlarga ega bo'lish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Инояттов У.И. *Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук* : – Т., 2003. – С. 236.

2. Инояттов У.И. *Инновационный характер управления качеством образования внутри колледжа // журналы Касб-хунар таълими. 2001. №6. 28-31-б.*

3. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. *Ta'lim sifatini boshqarish*. – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.

4. Махмудов С.Ю. *Организационно-педагогические условия подготовки конкурентоспособных специалистов в профессиональных колледжах: дисс.канд. пед. наук* : – Т., 2002. – С. 201.

5. Sharipov Sh. *Ta'lim jarayonlari sifatini oshirish tayyorlanayotgan kadrlar bandligini ta'minlash omili sifatida*. – dr-sharipov.com, 2014.

6. Беланже, П. *Образование взрослых в промышленно развитых странах // П. Белан-же // Перспективы. Вопросы образования. ЮНЕСКО. 1992. № 4. – С.13-23.*

7. Arcaro, J. *Quality in education: An implementation handbook*. Delray Beach, Fla.: St. Lucie Press. 1995.

Matluba SHODIYEVA,

Qashqadaryo viloyat XTXQTMOI maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası mudiri

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida innovatsiyalarni joriy qilish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagog kadrlarning innovatsion salohiyatini oshirish vositalari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, o'quv-uslubiy ta'minot, pedagogik texnologiya, loyihalash, model, motiv.

В данной статье рассматриваются пути внедрения инноваций в процессе повышения квалификации. А также даются рекомендации по повышению инновационного потенциала педагогических кадров.

Ключевые слова. Инновация, инновационный процесс, инновационная деятельность, образовательная и методическая поддержка, педагогическая технология, проектирование, модель, мотив.

Article describes the ways and ideas of implementing innovations in advanced training. Also given recommendations about raising innovative potential for pedagogic personnel.

Key words. Innovation, innovation process, innovation activity, educational and methodological support, pedagogical technology, design, model, motive.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik islohotlar amalga oshirildi. Xalq ta'limi tizimida muhim davlat dasturlari qabul qilindi va mazkur dasturlar natijasida ta'lim sifatini oshirishning o'ziga xos moddiy asosi yaratildi. Shunga muvofiq moddiy omillar bilan bir qatorda ta'limning sifati va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va salohiyatini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifa qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarining faoliyati asosida amalga oshiriladi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish – ta'lim turlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablari (Davlat talablari) asosida kasbiy va pedagogik mahorat doimiy ravishda o'sib borishini, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori ilmiy-metodik darajada olib borilishini ta'minlaydigan, o'qitiladigan o'quv fani yoki kurs, pedagogik yoki axborot texnologiyalari va o'qitishning interaktiv metodlari bo'yicha kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borishdan iborat.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarida tahsil oluvchilarning ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlaridan iborat ekanligini inobatga olgan holda, malaka oshirish tizimi pedagog kadrlarning ehtiyojlari asosida tashkil etilishi, xususan, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yishda hamkorlik metodlariga asoslanish, dars mashg'ulotlarini yangi shakl va texnologiyalarga muvofiq tashkil qilish va o'tkazish o'z pedagoglik faoliyatlariga innovatsion yondashuvni taqozo etadi.

Innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlarga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir. Innovatsion jarayon – yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda ta'lim muassasasi amaliyotida samarali qo'llash.

S.T.Turg'unov, B.X.Daniyarov, D.M.Otajonova muallifligidagi “O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari” nomli o'quv qo'llanmada innovatsion jarayon innovatsiyalarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog'liqligi ta'kidlangan. Shuningdek, innovatsion salohiyatiga ko'ra yangiliklar; modernizatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o'zgartirish, rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma'lum bo'lgan metodlar elementlarining yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o'xshashlik va umumiylikka ega bo'lmagan radikal innovatsiyalar pedagogik jarayonlar samaradorligining asosi sifatida belgilanadi.

Ilmiy-tadqiqot natijalariga ko'ra innovatsiyalarning quyidagi turlari ajratilgan:

– texnik-texnologik (ishlab chiqarishning yangi vositalari va yangi texnologiyalar), bu yangiliklardan muassasa xodimlari salbiy holatlarni kutishmaydi;

– tashkiliy-boshqaruv (jamoani boshqarishning yangi tizim va metodlari, faoliyatning yangicha nazorati);

– ijtimoiy-iqtisodiy (yangi materialli rag'bat, mehnatga haq to'lash tizimi).

Sh.Mardonov, B.X.Xodjayev, T.A.Almamatov muallifligidagi “O'qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatli yo'nalishlari: strategiya, taktika va kafolatlangan natija” nomli uslubiy qo'llanmada yuqoridagi ro'yxatga yana ikki turini qo'shganlar. Bular quyidagilar:

– huquqiy (xo'jalik va mehnat qonunchiligidagi o'zgarishlar, yangi qonunlarning paydo bo'lishi, jumladan, intellektual mulkni qo'riqlash qonuni);

– pedagogik (ta'lim va tarbiyaning yangi shakl, model va metodlari, yangi jamoat organlarining tashkil etilganligi).

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish – ta'lim-tarbiya jarayonida yangi shakl va metodlarni, yangi texnologiyalarni amaliyotda joriy qilish bilan belgilanadi.

Innovatsion texnologiyalar – pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi (talaba) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonida innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqot loyihalarida ta'lim jarayonini rivojlantiruvchi innovatsiyalarning beshta bosqichi belgilab berilgan. Bular quyidagilar:

Birinchi bosqich – yangilik, ma'lum turdagi innovatsiyani joriy qilish qarorining qabul qilinishi.

Ikkinchi bosqich – nazariy bo‘lib, unda innovatsiyalar psixologik-pedagogik tahlil asosida asoslanadi, qayta ishlanadi, bunda innovatsion jarayonning qanday rivojlanishi oldindan aytib beriladi hamda uning salbiy va ijobiy tomonlari ko‘rsatib beriladi.

Uchinchi bosqich – tashkiliy-amaliy bo‘lib, unda yangiliklar o‘zlashtiriladi, yangi tuzilmalar yaratiladi.

To‘rtinchi bosqich – analitik, tahliliy bo‘lib, olingan model tahlili, umumlashmasidir.

Beshinchi bosqich – joriy qilish bosqichi, tajriba-sinovga mo‘ljallangan va to‘liq bo‘lishi mumkin.

Malaka oshirish jarayoniga tatbiqan innovatsiya bu – ta‘limning maqsadi, mazmuni, shakli, metodlarining yangilanishi, shu bilan birga mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish, tinglovchilar faoliyatini tashkil etishga yangilik kiritishni anglatadi. Malaka oshirish tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar va o‘qitishning zamonaviy metodlari asosida tashkil qilishi, o‘tkazish jarayonida har bir faoliyatini ilmiy asoslangan metodlar bilan yangilab va takomillashtirib borishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, pedagog kadrlar faoliyatining yangilanishi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida hamkorlik texnologiyalariga amal qilinishini ta‘minlaydi.

Malaka oshirish tizimidagi kuzatuv, turli so‘rovnomalar va tahlillar natijasida, ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga jalb etish, o‘z faoliyatlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil qilishga nisbatan motiv hosil qilish uchun malaka oshirish muassasalari quyidagi vazifalarni bajarishlari zarur:

- ta‘lim jarayonini yangilashga asoslangan o‘quv-uslubiy ta‘minotni yaratish;
- intensiv o‘qitish vositalari, ilmiy asoslangan metod va usullarni tanlash;
- interfaol uslublarni qo‘llash bosqichlarini tizimlashtirish;
- ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan yaxlit dars jarayonini loyihalashtirish mexanizmini yaratish;
- DTS talablariga mos o‘qitish jarayonining rivojlantiruvchi modelini ishlab chiqish;
- DTS – darslik – hamkorlikda o‘qitish metodlarining yaxlit modelini ishlab chiqish;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik vositalarini takomillashtirish.

Shaxs tomonidan ma‘lum bir yangiliklarning qabul qilinishi mavjud harakatdagi tizimning o‘ziga xos xususiyatlariga qay darajada mos kelishiga hamda imkoniyatlarni shakllantirishda subyektning holatini yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgartirishiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan innovatsion vositalarning muvaffaqiyatli amalga oshirishida quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- tanlangan innovatsion vositalar mavzuning mazmuniga uyg‘unlashgan bo‘lishi va tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari, kasbiy tajriba va imkoniyatlariga mos kelishi;
- mashg‘ulot davomida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning ilmiy asoslangan bo‘lishi;
- tanlangan innovatsiyalarning ishonchlili (qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning tinglovchilarda shubha uyg‘otmasligi);
- tanlangan innovatsiyalarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida qo‘llanilayotgan vositalar bilan uyg‘unligi;
- innovatsiyalarning tinglovchilarni individual, psixologik xususiyatlariga mos bo‘lishi;
- tanlangan innovatsiyalarning mazmunida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining DTS, amaldagi dasturlari, darsliklarning o‘z ifodasini topishi.

Malaka oshirish jarayonida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash natijasida ularda:

- o‘z-o‘zini kasbiy rivojlantirish;
- innovatsion jarayonlarga bo‘lgan shaxsiy qiziqish;
- faollik va tashabbuskorlik;
- ta‘lim-tarbiyaning rivojlanishida innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglash;
- o‘z-o‘zini anglash va baholash;
- pedagoglik faoliyatlarini yangilashga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi.

Xulosa shuki, malaka oshirish muassasalarida innovatsiyalarni joriy qilish asnosida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining pedagogik kadrlari salohiyatini rivojlantirish, ta‘lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish darajasi yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 234-sonli qarori. 2014-yil 15-avgust.*

2. *Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A.. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008, 130-b.*

3. *Jo‘rayev R., Yuldashev M., Raxmanqulova N., Bahramov A., Zakirov A. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2014. 159-b.*

4. *Turg‘unov S.T., Daniyarov B.X., Otajonova D.M.. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta‘lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. –T.: Sano-standart, 2011. 148-b.*

5. *Sh.Mardonov, B.X.Xodjayev, T.A.Almamatov. O‘qituvchilar malakasini oshirishning innovatsion-qadriyatli yo‘nalishlari: strategiya, taktika va kafolatlangan natija. – T.: Fan va texnologiya, 2014, 159-b.*

6. *Hidoyatova D. Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – T.: Abu matbuot-konsalt, 2014, 195-b.*

7. *Shodiyeva M. Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuv. –T.: Yangi nashr, 2014. 243-b.*

Vahobjon O'ROZMATOV,

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti magistranti

YOSHLARNI MA'NAVIY BARKAMOL ETIB TARBIYALASHDA MUSIQA SAN'ATINING TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada inson ma'naviy olamini boyitishda, unga ruhiy ozuqa berishda musiqaning o'rni katta ekanligi, uning inson ruhiyati va organizmiga ta'siri bayon etilgan. Musiqa ko'pgina kasalliklarga davo ekani ham Sharq va G'arb mutafakkirlarining tavsiyalari misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, ritm, qo'shiq, maqom, kuy, musiqa terapiya, Shashmaqom, Ushshoq, kasallik, ta'sir.

В статье рассматривается вопрос о важной роли музыки в нравственном обогащении и духовном воспитании человека, её влиянии на духовное и физическое состояние личности. Приведены примеры из учений просветителей Востока и Запада, описывающие лечебные свойства музыки.

Ключевые слова. Музыка, ритм, песня, музыкотерапия, Шашмаком, Ушшок, болезнь, влияние.

Article deals with the issue of importance of musics in the spiritual education of a person, its influence on the spiritual and physical state of a person. Also given the examples from the teachings of the educators of the East and West, describing the therapeutic properties of music.

Key words. Music, rhythm, song, music therapy, Shashmak, Ushshok, Farobiy, illness, influence.

Musiqa – insonlarni ezguliklar olamiga yetaklovchi ma'naviy vosita hisoblanadi. Musiqa insonning didi, tasavvuri va tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ichki xotirjamlik bag'ishlaydi. Ba'zan aql-zakovat ham anglashga ojizlik qiladigan botiniy ritmlarni uyg'otadi, allalaydi.

“Musiqa deb atalmish ilohiy bu mo'jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish, ta'sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo'q, – deb ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. – ...O'zbek xalqi o'zining yuksak musiqiy salohiyati, musiqa san'atiga ulkan muhabbati bilan azaldan jahon ahlining e'tirofini qozongan. Yurtimizda o'z musiqachisi, o'z san'atkori bo'lmagan qishloq yoki mahallani topish qiyin. Har bir o'zbekning mehmonxonasida dutor yoki tanbur kabi biron-bir cholg'uning doimo osig'liq turishi ham xalqimizning ana shu san'atga cheksiz hurmati va ixlosidan dalolat beradi”.¹

¹ Betakror musiqa saroyi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zidan. 2002-yil 21-mart.

Musiqa shunday vositaki, u yangi avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi, inson ruhiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tinglovchi dunyoqarashini shakllantiradi. Ayni chog'da u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi, his-tuyg'ularini boyitadi. Inson hayotida qo'shiqning hamisha o'z o'rnini, o'z vazifasi mavjud – u ermakka to'qilmagan, havasga aytilmagan, bekorchilikdan eshitilmagan: qo'shiq kishilarni yashashga, kurashga chorlagan, mehnatga, muhabbatga ruhlantirgan, dardu qayg'usiga malham, baxtu quvonchiga sherik bo'lgan. Qo'shiqning xalq orzu-armonlarining ifodasi, xalq ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundan.

Musiqaning inson organizmiga ta'siri ko'pgina manbalarda yozib qoldirilgan. Ulug' alloma Abu Ali ibn Sinoning “Ashsh-shifo” asarining musiqaga bag'ishlangan qismida ham bu xususda so'z yuritiladi.

“Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsalardan biri tovush bo'lib, u o'ziga xos yoqimlilik bilan ajralib turadi. Inson qalbi har bir yoqimli nag'madan orom oladi” deyiladi asarda.

Olimning “Tib qonunlari” kitobidagi bir necha qismlarda musiqa hatto ruhiy bemorlarga “shifo dasturi” sifatida tavsiya etiladi. Ibn Sino bemorlarning tomir urishiga mos musiqalarni tanlab bergani haqidagi ma'lumotlar bor. Shuningdek, Abu Nasr Forobiyning “Musiqa haqida katta kitob” (“Kitabul musiqa al-Kabir”), Abu Ali ibn Sinoning “Shifo kitobi” (“Kitob ash-shifo”, ushbu kitobda musiqaga oid maxsus bo'lim bor), “Najot kitobi” (“Kitabul najat”), “Donishnoma”, Al-Xorazmiyning “Bilimlar kaliti” (“Mafatixul ulum”), Sayfuddin Urmaviyning “Oliyjanoblik haqida kitob”, “Sharafiya kitobi”, Abdurahmon Jomiyning “Musiqa haqida risola”, Najmiddin Kavkabi Buxoriyning “Risolai musiqiy”, Darveshali Changiyning “Tuxfat us-surur”, “Risolai musiqiy” kabi asarlarida musiqa va uning inson ongiga va organizmiga ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

Musiqaning inson ma'naviyatiga ta'siri haqida so'z ketganda buyuk Sharq mutafakkiri Forobiyning eslamay iloj yo'q. Forobiy (873 – 950) qomusiy olim bo'lish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlar bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy ifodasini ham topgan. Forobiyning o'z davri uchun yangilik bo'lgan musiqa asbobi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani haqida rivoyatlar ko'p.

Forobiy o'zining “Musiqa haqida katta kitob” asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa, ehtiroslarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va, nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi. Shunday qilib, Forobiy musiqaning rivojlantirish bosqichlarini, uning inson ruhiga u yoki bu holda ta'sir qilishini, ma'naviy oziq berib, uni yaxshi ishlarga ruhlantirishini, xursandchilik va qayg'uda odamga hamdam bo'la olishini va, nihoyat, musiqa odamni katta ishlarni amalga oshirish uchun kurashga chorlay olishini bashorat qilgan.²

Qadimiy “Shashmaqom” kuylari, shuningdek, “Ushshoq”lar yangraganida inson g'am tashvishlarini unutib, ruhi ko'tarilib, qalbi shodlikka to'la boshlaydi. Go'yo lazzatli “darmondori” iste'mol qilayotgandek tuyuladi. Aslida musiqiy tabobat X-XI asrda Movarounnahrda rivojlangani tarixiy manbalardan ma'lum. Buxorolik mashhur muhaddis Kalobodiy o'z davrida musiqaning inson ruhiyatiga ta'sirini shunday ifodalaydi:

“Ot-ulovlarga qaraginki, to'xtab qolgan chog'da kishi unga qo'shiq aytsa, samo quvvatidan (“samo” – eshitish orqali qabul etiluvchi ilohiy xitob) kuchayib, yukni yana

² Kuy va qo'shiq sehri. Metodik-bibliografik qo'llanma. Tuzuvchi N.Alautdinova. – T.: A.Navoiy nom. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. 28-b.

ancha joyga eltadi. Bolaga qaraginki, belanchakda yig'lab turgan holda onasi unga alla aytisa, samo quvvatidan u orom olib, uxlab qoladi. Ko'pgina devonalarni samo bilan davolashadiki, to ular shifo topib hushlariga qaytadilar...”.

Maqomlarning kishi ruhiyatiga ta'sir etish xususiyatlarini ko'plab olimlarimiz o'z asarlarida qayta-qayta uqtirib o'tishgan. Masalan, “Ushshoq”, “Navo” maqomlari kishini shijoatlik va jasoratga undaydi. “Iroq”, “Isfahon” kuylari esa huzur, xush kayfiyat bag'ishlaydi. “Buzruk”, “Zirafkand”, “Raxoviy”, “Zangula” maqomlari esa g'amginlik, ruhiy xorg'inlik, alamni ifodalaydi. “Hijoziy”, “Husayniy” kuylari eshituvchida ham quvonch, ham qayg'u kayfiyatini uyg'otishga qodir.

Musiqa insonni xotirjam qilishi, ovutishi yoki aksincha, bezovta qilishi, asabiylashtirishi mumkin. Xursand bo'lishga yoki yig'lashga ham majbur qila oladi. Musiqaning ushbu imkoniyatlaridan kimdir ko'proq, kimlardir kamroq foydalanishadi.

Dunyo olimlarining izlanishlari natijasida musiqaning nafaqat kayfiyat ko'taruvchi, tetiklashtiruvchi ekanligi, balki uning jiddiy kasalliklarga davo ekanligi isbotlandi.

Qadimgi Misr va Yunonistonda tabiblar bemorlarni turli tovushlar bilan davolashgan hamda uning ta'siri haqida keng ko'lamli bilimga ega bo'lishgan. Qadimgi Xitoy tabiblari musiqa orqali istalgan kasallikni davolash mumkin deb hisoblashgan va hatto u yoki bu organga ta'sir etuvchi “Musiqali retsept” yaratishgan.

Rossiyaning shimoliy hududlarida, masalan, Evenkiya, Yoqutiston, qolaversa, Laplandiya va Alyaskada tabiblar dori-darmonning ta'sirini kuchaytirish maqsadida o'zlarining kasallikni daf etuvchi afsun va duolarini past ovozda kuylashgan, shamanlar esa baraban hamda childirma tovushlari bilan ularga jo'r bo'lishgan.

XIX asr oxirlarida shifokor-nevropatolog Jeyms Korning ilk bora jiddiy tarzda musiqaning inson organizmiga sog'lomlashtiruvchi ta'sirini o'rgandi. U inson ruhiy holatining buzilishini davolashda Vagner musiqasidan foydalandi. Shifoxonada bastakorning musiqiy asarlari bemorlarga eshittirilganda a'lo ijobiy natijani bergan. Shundan so'ng bu yerda maxsus davolovchi konsertlar o'tkazishni boshlashgan. Yuz yil o'tgandan keyin bu usul, ya'ni musiqaterapiya dunyoning ko'plab qismlarida, xususan, Amerika va Yevropada keng qo'llanila boshlandi.

Bundan bir necha yil oldin Rim akademiyasi olimlari musiqaning insonga ta'sirini o'rganib, natijasini ommaga e'lon qilishdi. Unga ko'ra, depressiya, qo'rquv, stress, yurak kasalligi va qon bosimining oshib ketishi kabi kasalliklarning 90 foizini musiqa yordamida davolash mumkin ekan.

Mutaxassislarning fikricha, bastakorlardan Borodina, Shopen, Betxoven musiqalari insonning o'zini anglashiga, o'z tuyg'ularini fahmlashiga yordam beradi. Chaykovskiyning simfoniyasi ko'ngilni darddan va yoqimsiz xotiradan “tozalaydi”. Brams, Bax hamda Listning mayin kuylari tortinchoqlikni yengishga, dilidagini ochiq ifoda etishiga ko'maklashadi. Shostakovichning musiqasi salbiy hissiyotlar (kek, adovat, xusumat, gina, g'azab, qahr, jizzakilik)ni nazorat qilish uchun qulay. Motsart va Bizening asarlari, Shtraus, Kalma hamda Legarning raqs musiqasi insonda hayotga umid bilan qarashni shakllantiradi, Shopen va uning fortepiano ijrosidagi konsertini tinglash esa insonni o'rab turgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi.

Musiqaning davolovchi ekanligiga yana bir asosiy sabab uning ritmidir, deb ta'kidlashadi ba'zi mutaxassislar. Chunki ritm “musiqaning yuragi”. Demak, uning asosiy davolovchi kuchi ham shu ritmlaridadir. Tabiatdagi barcha narsalar aniq bir ritmga bo'ysunadi. Inson organizmi ham bundan mustasno emas. Vujudagi har bir a'zo o'z tebranishiga mos keladigan ma'lum tovushlar va cholg'u asboblarning ritmi hamda

quvvatini tanlaydi. A'zo faoliyati buzilsa, u boshqa bir ritmda ishlashni boshlaydi, uning tebranish kuchi va chastotasi o'zgaradi. Agar inson og'riyotgan a'zo ritmi qaysi cholg'u asbobidan yangrayotgan ritm bilan o'zaro mosligini bilsa va doimiy tarzda “shifo” ritmlarni eshitsu, a'zo yana oldingi holatidagi faoliyatiga qaytadi.

Inson yuragining tebranish chastotasiga yaqin cholg'u asbobi Yevropada gitara hisoblansa, bizda esa tamburdir. Bejizga “Tambur” so'zi “yurak tirnovchi” degan ma'noni anglatmaydi.

AQShning Illinoys shtatidan neyrobiolog Jon Xyudjes tutqanoq kasalligiga uchragan 36 nafar mijoziga Motsart asarlarining ta'sir etish jarayonini tekshirib ko'rdi. Olim kuzatuv mobaynida Motsart musiqasining ta'sirini, uni eshinish va ungacha bo'lgan davrda mijozlarining bosh miya biotoklarini yozib oldi. Ushbu guruhdagi 29 ta bemorda tutqanoq tutgan paytda Motsart musiqasi eshittirilganda, ko'p o'tmay xuruj pasayib, kechish vaqti ham kamaygani kuzatilgan. Bastakorning asari eshittirilmaganda esa bemorlarda hech qanday o'zgarish sezilmagan. Bundan ko'rinadiki, mumtoz asarlar haqiqatdan ham bosh miyadagi nosozliklarni bartaraf etadi.

Yapon olimlarining xalq musiqasi, mumtoz musiqa va rok musiqasi namunalari ta'sirida o'simlik va jonivorlar rivojlanishidagi o'zgarishlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, xalq musiqasi va mumtoz musiqa ta'sirida tirik mavjudotning rivojlanishi me'yorlarga mos, ijobiy tomonga qarab me'yordan yuqorilashib boradi. Rok musiqasi ta'sirida esa, aksincha holat kuzatiladi, ya'ni o'simlik rivojlanishdan to'xtaydi va so'lib boradi. Shunday ekan, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida tabiatga muhabbat, ona yerga hurmat bir so'z bilan aytganda ular ongida ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirishda xalq musiqasi namunalari, mumtoz musiqiy merosimiz namunalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ko'plab mamlakatlarda bolalarni musiqa maktablariga berish odat tusiga kirgan. Bu narsa bolaning musiqachi bo'lib yetishishi uchun emas, aksincha, bolaning musiqani anglashi uchungina qilinadi. Chunki musiqaga qalban bog'langan bolada, avvalo, eng go'zal fazilatlar shakllanadi, bola katta va bebaho boylikka – ma'naviy xazinaga yaqinlashayotganini his etadi. Shuningdek, yosh avlod nafaqat ajdodlarimizning boy madaniy merosi bilan tanishadi, balki bu merosni kelajak avlodga bezavol yetkazish mas'uliyatini ham his etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Betakror musiqa saroyi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zidan. 2002-yil 21-mart.*
2. *Kuy va qo'shiq sehri. Metodik-bibliografik qo'llanma. Tuzuvchi N.Alautdinova. – T.: A.Navoiy nom. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. 28-b.*
3. *Axmedova Z.K. Musiqiy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslari. – T., 2010.*

Dilnoza MUSAYEVA,

Toshkent shahar Uchtepa tumani 431-sonli IMTM mudirasi

MAXSUS MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI ICHKI TIBBIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KOMISSIYASINING ISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasasi ichki tibbiy psixologik-pedagogik komissiyasi-ning ish faoliyatini yanada takomillashtirish tamoyillari va ularning usullari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, aqliy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish jarayoniga oid ko'rsatkichlar, psixologik me'yorlar hamda so'rovnomalar qay darajada tashkil etilish lozimligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar. Maxsus maktabgacha ta'lim, aqliy va ruhiy nuqson, daraja, ko'rsatkich, faoliyat, maxsus ta'lim.

В статье изложены принципы и приёмы дальнейшего совершенствования деятельности внутренней медицинской психолого-педагогической комиссии дошкольного образовательного учреждения. Выражено мнение автора о важности разработки показателей, психологических норм и вопросников для анализа процесса умственного и психологического развития детей с недостатками в данной области.

Ключевые слова. Специальное дошкольное образование, умственные и психические недостатки, уровень, показатель, деятельность, специальное образование.

Article outlines the principles and methods for further improving the activities of the internal medical psychological and pedagogical commission of a pre-school educational institution. The author expresses the opinion on the importance of development of indicators, psychological norms and questionnaires for analyzing the process of mental and psychological development of children with disabilities in this field.

Key words. Special pre-school education, mental deficiencies, level, indicator, activity, special education.

Ta'lim va tarbiya shaxsning ijtimoiy qadri, go'zal fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlar doirasini vujudga keltirishga qaratilgan jarayondir. Shu boisdan hozirgi kunda yurtimizda ta'lim tizimini takomillashtirishga, xususan, yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bu borada rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni parvarishlashga mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda bosh miyaning organik jarohatlanishi tufayli bilish jarayonlarining turg'un pasayishi bilan bir qatorda, xulq-atvor, xatti-harakatlar, hissiy-irodaviy

jarayonlarning shikastlanishi ham ko'zga tashlanadi. Aksariyat hollarda chuqur aqliy orqada qolish nutq, motorika, diqqat-e'tiborning buzilishi bilan murakkablashadi, shuningdek, eshitish, ko'rish qobiliyati, tasavvuri, atrof-muhitda mo'ljal olish va o'z-o'zini to'g'ri idora qilish qobiliyatlarining izdan chiqishi kuzatiladi.

Shuning uchun ham, maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksion ta'lim-tarbiya jarayoni ancha murakkab va o'ziga hos hisoblanadi.

Bu borada bolani har tomonlama va bir butun o'rganish va tekshirish maqsadida, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya a'zolari bola haqidagi anamnestik ma'lumotlarni va taqdim etilgan boshqa mavjud hujjatlarni chuqur o'rganib chiqib, tibbiy psixologik-pedagogik va logopedik tekshiruvlar o'tkazishadi.

Tekshirishda qo'llaniladigan metodlarning maqsadi: bola haqida to'liq anamnestik ma'lumotlar yig'ishdir.

Muassasada ota-onalar bilan ham alohida suhbatlar olib boriladi. O'tkaziladigan suhbatlar orqali bolaning bir yoshgacha bo'lgan va bir yoshdan keyingi rivojlanishi aniqlanadi – bola hayotini turli davrlardagi (homiladorlik, tug'ruq davri, tug'ruqdan keyingi davr, ilk bolalik) – qachon boshini tuta boshlagan, o'tirgan, yurgan hamda birinchi so'zlari paydo bo'lgan davri belgilanadi. Bolaning qanday kasalliklar bilan kasallanganligi, motor, sensor, nutqiy rivojlanishida kamchiliklar kuzatilganmi yoki yo'qligi, yaqin qarindoshlarining sog'lig'i (nasliy), oilaviy tarbiya muhiti aniqlanadi.

Agar, bu bolalarga oilada noto'g'ri tarbiya berilsa, qo'pol munosabat ko'rsatilsa, ulardagi kamchiliklar ortishi yoki ikkilamchi nuqsonlar, asoratlar paydo bo'lishi mumkin. Eng avvalo, maktabgacha yoshdagi aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyasini uning oilasidan, ya'ni ota-onasi bilan suhbat va metodik maslahatlar berishdan boshlash lozim.

Ya'ni:

- bolaning kun tartibini to'g'ri va aniq tashkil qilish (har kuni bir vaqtda uyquga yotish, uyqudan turish, badantarbiya qilish, eng sodda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalariga o'rgatish, ovqatlanish va sayr vaqtida doimiy nazorat qilish);

- bola bilan muloyim, bosiq muomalada bo'lish;

- bola berilgan vazifalarni bajarishda bosh tortganda, uni majburlamay, boshqa faoliyat turiga jalb etish;

- bolaning oldida doimiy tinch ohangda gaplashish, uni ham baqirmay muloyim gapirishga o'rgatish;

- ortiqcha maqtamaslik va barcha qaysarliklariga beparvo bo'lmaslik;

- bolani har qanday topshiriqlarni bajarishida shoshirmaslik, keragidan ortiqcha yordam bermaslik va uning o'rniga berilgan topshiriqni bajarmaslik kerak, negaki, bola ko'rsatmani tushunib, vazifani imkoniyati darajasida bajarishga intilsin.

Yuqoridagi ma'lumotlar o'rganilib tahlil etilgach, bolaning quyidagi xususiyatlari chuqur tekshiruvdan o'tkaziladi.

1. Eshitish qobiliyatining holati.
2. Ko'rish qobiliyatining holati.
3. Nutq qobiliyati.
4. Tafakkurining rivojlanish darajasi.
5. Tayanch-harakat holati.
6. Bola xulqini kuzatish.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tekshiruvidan o'tkazish jarayonida bolaning ota-onasi ham kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin, ammo komissiya qarorlari ota-onalarning ishtirokisiz qabul qilinadi va tayyor holda ularga beriladi.

Me'yorida rivojlanayotgan bolalar mustaqil ravishda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishib, atrof-muhitni idrok qilib, unga ta'sir o'tkazish jarayonida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lib borsa, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarda esa ushbu holat kuzatilmaydi. Bu esa aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tevarak-atrof haqida tasavvuri va tushunchalarini sayoz bo'lishiga olib keladi.

Ruhiy va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aniqlash darajalari quyidagilar:

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar (F-83). Maxsus metodika bo'yicha barcha topshiriqlarni ko'rsatilgandan so'ng bajaradi, nutqi bor, so'z boyligi kam. Syujetli rasmlardagi harakatning ketma-ketligini yordam bilan ajratib bera oladi. Ko'rsatilgan predmetlarning nomini aytadi. Piramida va matryoshkani to'g'ri yig'a oladi.

Aqliy orqada qolishning yengil darajasi (F-70). Bunday bolalarga o'yinchoqlarga nisbatan bee'tiborlik betartib va maqsadsiz o'yin harakatlari shular jumlasidan. Ularning nutqi yaxshi rivojlanmagan va sodda so'zlardan iborat (ber, ol). Lekin predmetlarni ayta olmasa ham, tana qismlarini va predmetlarni ko'rsata oladi. Bunday bolalar oddiy madaniy gigiyenik ko'nikma va malakalarni egallagan bo'ladilar.

Aqliy orqada qolishning o'rta darajasi (F-71). Bunday bolalarda aqliy va jismoniy rivojlanish orqada, koordinatsiya harakatlari buzilgan, qo'l mushaklarining mayda xarakati sust rivojlangan bo'ladi. Madaniy gigiyenik ko'nikma va malakalarni qisman egallagan. Topshiriqlarni bir necha marta ko'rsatilgandan so'ng qiyinchilik bilan bajaradi. Artikulyatsion apparati rivojlanmagan, o'ziga qaratilgan nutqni tushunadi. Nutqi 1-2 ta oddiy so'z va bo'g'inlardan iborat.

Aqliy orqada qolishning og'ir darajasi (F-72). Bunday bolalar aqliy va jismoniy rivojlanishda keskin orqada qoladilar. Koordinatsiya harakatlari qo'pol buzilgan, qo'l mushaklarining mayda harakati rivojlanmagan. Madaniy gigiyenik ko'nikma va malakalarini egallamagan. Tekshiruv jarayonida topshiriqlarni bajara olmaydi. Diqqati tarqoq, predmetlarga va unga qarata aytilgan gaplarga bee'tiborlik bilan qaraydi, nutqi rivojlanmagan, muloqotda so'z bo'g'inlarni zaif talaffuz qilinishi kuzatiladi.

O'zlashtirish doirasi tor, lekin maqsadga yo'naltirilgan korreksion pedagogik mashg'ulot qanchalik erta ko'rsatilsa, bu bolalarning potensial imkoniyatlarini ochishda, ularning bilish faoliyatlarini faollashtirishda yaxshi samara beradi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda kompleks jihatdan o'qitish samaralidir. Bu kompleks – guruhli mashg'ulotlar o'tkazish, mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, multimediya vositalaridan unumli foydalanish, bo'sh vaqtlarda o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, lug'at boyligini oshirish, predmetlarni vazifasi bo'yicha amaliyotda foydalanishni takomillashtirish ishlarini olib borish hamda bu ishga bolalarning ota-onalarini jalb etishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolani o'rganishdagi asosiy usul – bu o'yin faoliyatini kuzatishdir: o'yinchoqlarga qiziqishi, qiziqishning barqarorligi, o'yinchoqlardan adekvat foydalana olishi. Tekshiruvni har tomonlama va aniq o'tkazish uchun har xil usullardan foydalaniladi.

Tekshiruv olib borish uchun quyidagi usullar tavsiya etiladi:

“Piramida” usuli.

Daslab bolaga 4-qismdan iborat piramidani yig'ish vazifasi beriladi. Vazifani bajarish jarayonida bolani mayda qo'l motorikasi qanday holatda ekanligi, hajmini solishtirish (katta, kichik, halqa), ranglarni ajrata olish, son-sanoq haqidagi tushunchalari aniqlanadi (bitta doirachani, ikkita, uchta ... ber), tekshirish davomida qimirlatib, tasdiqlab turish

mumkin emas. Bola xatoga yo'l qo'ysa aytish kerak, bola xatosini tuzatsin. Agar bola tushunmasa, bolaga “katta doirachani ol” deb, ko'rsatib berish kerak. Bola berilgan vazifani bajarsa, qiyinrog'i beriladi. 5-6 yoshli bolalarga 6-8 qismdan iborat piramida beriladi.

“Matryoshka” usuli

Bolaga 2-3 qismli matryoshkani sochib, so'ngra to'g'ri yig'ish taklif etiladi. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar adekvat bo'lmagan harakatlar qilishadi (kichkina-sini kattasiga kiygazishadi).

Katta yoshdagi bolalar bilan 6-7 qismdan iborat matryoshkalar yordamida ish olib boriladi. Bolaga topshiriq beriladi – “Bitta qilib yig'ib ber”. Bolada idrok bo'lsa, u mustaqil yig'ib bera oladi. Matryoshkani yig'ish orqali instruksiyalarni tushunish, harakatlarni ketma-ket bajarish malakalari, katta-kichik haqidagi tushunchalar aniqlanadi.

“Juft rasmlar” usuli

Shakl va rang haqidagi bilimlarini aniqlab olingandan so'ng beriladi, 3 tadan tanlab olish – 3-4 yoshgacha bo'lgan bolalarga beriladi. Rasmni olib, juftiga qo'yish kerak. Tanlab olishni 5 tagacha ko'paytirish mumkin.

“Kesma rasmlar” usuli

Bunda bolaga tanish bo'lgan predmetlar tasviri beriladi:

a) koptok – ikki qismdan iborat;

b) it – uch qismdan iborat;

d) qo'g'irchoq – uch qismdan iborat (5 yoshdagi bolalar uchun);

e) mashina – to'rt qismdan iborat (6 yoshdagi bolalar uchun).

Tekshiruv jarayonida namuna berilmaydi. Kesma rasmlar berilganda bolalarda bu predmetning shakli haqidagi tasavvuri bor yoki yo'qligi tekshiriladi va uni bir butun holda idrok eta olishi aniqlanadi. Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar kesma rasmlar bilan maqsadsiz harakatlar qilishadi.

Son-sanoq. Ko'plikdan taqlid orqali “bitta-ko'pni” ajratib olish

Defektolog stol ustiga sanoq cho'plarini sochadi. So'ngra, kaftiga bitta cho'pni oladi va bolaga “shuncha ol” deydi. “Ko'p” ustida ham analogik tanlov olib boriladi. Bir qo'lga ko'p cho'plar olish va bolaga “shunday qil” deyish kerak. So'ngra ikkita cho'pni olish va 4-5 gacha tekshirish lozim. Agar bola undan ko'pni bajarsa, bu yaxshi. Undan so'ng barmoqlarda taqqoslanadi. Oxirida, so'z orqali taqqoslash malakasi tekshiriladi (menda nechta tayoq bor, 2-3 tayoqcha ol va h.k.).

Bolalar nutqini tekshirish

Nutqni tekshirish predmetli, harakatga va tafakkurga oid syujetli rasmlar orqali o'tkaziladi. Predmetning nomi, harakati, rangini to'g'ri izohlab bera oladimi, yo'qmi aniqlanadi. Bolalarga predmetning o'zini yoki predmet harakatini, predmetning alohida belgilarini nomlash taklif qilinadi (vazifalar bolalar nutq imkoniyatlarini nazarga olgan holda beriladi).

Bolalarga quyidagi vazifalar beriladi:

– ko'rsatilgan predmetlarni nomlash (Bu kim? Bu nima?);

– ko'rsatilgan predmet rasmi bo'yicha ish harakatini nomlash (“Nima qilayapti?”, “Bola nima qilayapti?” va h.k.). Bola ish harakatini nomlab, savolga javob berishi kerak;

– ko'rsatilgan predmetning sifatini aniqlash (“Qanday?”, “Qanaqa?”, “Osmon qanaqa?”, “Ranglar qanday?” va h.k.).

Syujetli va seriyali rasmlar

Sabab-oqibat bog'lanishlari xususiyatlarini, voqe'lik, hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri idrok etish malakalari aniqlanadi.

Bolalarga savollar beriladi:

- “Siz qanday o‘ylaysiz, tashqarida havo issiqmi yoki sovuqmi?”
- “Nimaga gullar yo‘q?”
- “Yilning qaysi fasli?” va h.k.

Bola oldiga 5 ta turli vaziyatdagi, ammo syujeti bir-biri bilan bog‘langan, ketma-ketligi noto‘g‘ri ravishda joylashgan rasmlar qo‘yiladi va boladan to‘g‘ri joylashtirish so‘raladi. – “Oldin nima?”, “Keyin-chi?”.

Shakli va rangiga qarab guruhlash

Bu bolalarni aqliy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan yoki umumiy rivojlanishdan orqada qolganligini aniqlaydi.

Aniqlash uchun kerakli qo‘llanmalar:

5x6 hajmdagi 5 juft rasm: qizil, sariq, ko‘k, yashil va boshqa rangdagi geometrik shakllar (doira, kvadrat, to‘rtburchak, oval, uchburchak va h.k.).

Avval shakliga qarab klassifikatsiya qilinadi (rangiga diqqati jalb qilinmaydi). Keyin faqat rangiga qarab klassifikatsiya qilinadi. Bu topshiriq 6 yoshlilarga beriladi.

Tekshiruv davomida bolaning shaxsiy hissiy holatiga ahamiyat berish kerak. Bunda:

1. Muloqotga kirisha olishi.
2. Qiziqishi.
3. Harakatchanligi.
4. Diqqat va xotirasi.
5. O‘ziga qarata aytilgan nutqni tushunishi.
6. Idrok etish va vazifani bajarish adekvatligi.
7. Mantiqiy fikrlash.
8. Toliqishi va h.k.

O‘yin va ta‘lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta‘lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruh mashg‘ulotlarda esa, ta‘limning roli ortadi. O‘yinda bolaning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan munosabat usullari, his va didlari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog har bir tadbir yoki mashg‘ulot, avvalo, bola uchun tashkil etilayotganligini yodda tutishi lozim. Guruhdagi har bir bolaga alohida e‘tibor berib, qalbiga quloq solishi, ular tomonidan aytilayotgan javoblarni diqqat bilan tinglashi, oqilona munosabatda bo‘lishi, ularni qo‘llab-quvvatlab borishi, qisqasi, bolani shaxs sifatida hurmat qilish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. *O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1997.
3. G‘oziyev E.G. *Umumiy psixologiya.* – T., 2010.
4. Shomaxmudova R.Sh. *Inklyuziv ta‘lim (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar).* – T.: TDP, 2011.121-b.
5. Kaxarova D.S. *Inklyuziv ta‘lim texnologiyasi.* – T.: Fan va texnologiya, 2014. 192-b.
6. Малофеев Н.Н., Шматко Н.Д. *Базовые модели инклюзивного обучения.* – М.: “Дефектология” научно-методический журнал. 2008, №1.

Shaxnoza AKBAROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ERTAKLARNI INGLIZ TILIDA O'RGATISHNING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili dars jarayonini mazmunli tashkil etishda o'qitishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish orqali bolalarda til o'rganishga qiziqishni oshirish va tafakkurini rivojlantiruvchi vazifalarni rejalashtirish muhimligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar, samarali metodika, she'r, ertak, qo'shiq, tafakkur, tadqiqot ishi.

В статье освещены эффективные методы повышения интереса детей к изучению английского языка, определено содержание учебного материала, способствующего развитию мышления дошкольников на занятиях по английскому языку.

Ключевые слова. Дошкольники, продуктивные методы, стихотворение, сказка, песня, познание, научное исследование.

Article highlights effective methods of increasing the interest of children in the study of the English language, also determined the content of educational materials that contributes to the development of thinking of preschool children in English classes.

Key words. Preschoolers, productive methods, a poem, a fairy tale, a song, cognition, scientific research.

Hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey, kollejlarda, balki maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolajonlar ham chet tillarini o'rganishga qiziqish bildirmoqda. Chunki iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalar kattalarga nisbatan chet tilini tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalarning bo'sh vaqti ko'pligi buning asosiy sabablaridir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 5-6 yoshli bola so'zlar ma'nosini tushunib emas, unga to'g'ridan-to'g'ri yodlashadi. Shuning uchun maktab yoshiga yetmagan bolalarga chet tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik kerak. Bunday vaziyatda bolada zo'riqish hosil bo'lib, til o'rganishga bo'lgan qiziqish yo'qoladi.

Shuningdek, kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatishda ularning yosh va psixologik-individual xususiyatlarini e'tiborga olish kerak bo'ladi. Shu bois, bolalarni

xorijiy tillarga o'rgatishda asosan, ularning so'z boyligini oshirish, to'g'ri talaffuzga o'rgatish kabi amaliy maqsadlar ko'zda tutiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar ham chet tillarini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqdalar. Shunisi e'tiborga sazovorki, bu masalaga hatto ota-onalar ham o'ta mas'uliyat bilan yondashmoqda. Biroq aynan kichik yoshdagi bolalarga chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rgatishga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar bizda yetarlicha emas. Bu bolalarning chet tillarini egallashlarida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida bu sohada qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, keyingi yillarda bog'cha va boshlang'ich maktab sharoitida xorijiy tillarni integratsiyalashtirib o'rgatish, ya'ni bolalarga til o'rgatishda faqat amaliy maqsadlar bilangina chegaralanmay, bolaning tafakkurini rivojlantiruvchi vazifalarni rejalashtirish ham muhimligi qayd etilgan. Bunday munosabat o'quv materiallari va usullarning yangi turlarini jalb etishni taqozo etadi. Bu xorijiy tillarni o'rgatish mazmunini yangilash, ta'lim berishda yuzaga keladigan ayrim psixologik qiyinchiliklarni yengib o'tishga imkon yaratidigan eng samarali yo'llardan biridir.

O.A Denisenko, O.A Trubanyeva, O.Y. Yatsenko kabi olimlar fikricha, mavjud muammolarning asosiy sabablari:

1) bola uchun ibrat bo'ladigan rivojlantiruvchi o'quv materiallarining yangi turlarini ishlab chiqish zarurati;

2) bolaning ruhiy, emotsional, estetik jihatdan rivojlanishi va nutqining o'sishida she'r, qo'shiq, ertak, topishmoqlarning ahamiyati;

3) maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda o'quv materiallaridan foydalanish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarning ishlab chiqilmaganligidir.¹

Respublikamizda xorijiy tillarni o'rganishga va o'rgatishga e'tibor nihoyatda katta bo'lsa-da, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning didaktik tamoyillari to'liq ishlab chiqilmagan. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish va kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali metodikasini ishlab chiqish mavzusi haligacha dolzarb. Bunda she'r, qo'shiq, ertak, topishmoqlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi lug'atini o'stirish, so'z boyligini o'stirish va so'zlashishga o'rgatish jarayonini tezlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tilidagi so'z boyligini o'stirish va so'zlashishga o'rgatishda she'r, qo'shiq, ertak, topishmoqlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari hamda samarali metodikasini ishlab chiqishdan iborat. Qo'yilgan maqsadga muvofiq quyidagi faraz shakllantirildi: kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish chet tillarini o'rgatishning lingvodidaktik jihatlari e'tiborga olingan holda, kichik yoshdagi bolalarning lingvopsixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan va tashkil etish, bolalarning so'z boyligini oshirishda she'r, qo'shiq va topishmoqlardan keng foydalanish, ertaklar va ularning multimedia tasvirlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi bog'lanishli nutqini, fikrlash qobiliyatini o'stirib borish, ularni savol-javob asosida ertak mazmunini so'zlab berish, rolli ijro qilib be-

¹ Денисенко О.А. Методика раннего обучения английскому- 166 языку на основе произведений детской англоязычной литературы (для школьников шестилетнего возраста): Автореф. дис. . канд. пед. наук. Тамбов, 1995. – С. 20.

rishga o'rgatish kabi metodik usullardan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Buning uchun, albatta, chet tillarini maktabgacha ta'lim bosqichida barvaqt o'rgatish tajribasiga murojaat etib, maktabgacha ta'lim va tarbiya berish amaliyotida keng foydalaniladigan metod va usullarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qayd etish kerakki, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda lug'at ustida ishlash jarayonida she'r, qo'shiq va topishmoqlardan foydalanish, ertaklar va ularning multimedia tasvirlari vositasida kichik yoshdagi bolalarning ingliz tilidagi lug'atini o'stirish kabi masalalar xorijiy tilni o'rgatish metodikasida ham keng miqyosida hali o'rganilmagan.

R.I. Jukovskaya olib borgan tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalar she'r, topishmoq, tez aytish va boshqalarni yodda saqlab qolishlari uchun ularning jarangdorligi, qofiya va vaznlari mos bo'lishi sezilarli ahamiyatga egaligini ko'rsatib o'tgan. Uning fikricha, she'rlar o'z shakliga ko'ra mukammal bo'lsagina, uni eslab qolish va mazmuniga nisbatan qiziqish uyg'onishiga ko'maklashadi.²

Ertak, she'r, qo'shiq, topishmoqlar dunyoqarashni kengaytirish, tafakkur qilish, qobiliyatini o'stirish jihatidan ham, nutqni o'stirish jihatidan ham nihoyatda noyob o'quv materialini hisoblanib, ona tilini rivojlantirish borasida ularning imkoniyatlari ancha keng yoritilgan. Biroq chet tillarini, xususan, ingliz tilini erta o'rgatish metodikasida ertak, she'r, qo'shiq, topishmoqlardan o'quv materialini sifatida foydalanish masalalari hali yaxshi o'rganilmagan. Ingliz tilini o'rgatish mashg'ulotlarida mazkur o'quv materiallaridan foydalanish nutq o'stirish jarayonida ta'limning rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va amaliy jihatlarini qo'shib olib borishga ham katta imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, she'r, ertak, qo'shiq, topishmoqlar vositasida nutqqa o'rgatishning o'ziga xos lingvodidaktik jihatlari mavjud bo'lib, kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishda ushbu muammolarga lingvopsixologik muammolar ham kelib qo'shiladi. Biroq chet tillarini, xususan, ingliz tilini erta o'rgatish metodikasida aynan lingvodidaktika va lingvopsixologiya bilan bog'liq jihatlarining yaxshi o'rganilmaganligi, uning samarali metodlari ishlab chiqilmagani ushbu muammolarni barataraf qilish nechog'lik dolzarbligini isbotlaydi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning xorijiy tildagi bog'lanishli matnlar mazmunini anglash mexanizmlari tadqiq etilgan ishlarning umuman yo'qligi esa ushbu masalalarning metodik yechimini yanada murakkablashtiradi.

G'arb olimlarining tadqiqotlarida paydo bo'lgan "ertak yoshi" atamasi bola ertakni necha yoshidan boshlab yaxshi idrok eta olishini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asosida yuzaga kelgan bo'lib, Sh. Byuler bu yoshni 4-8 yosh, B. Bettelxaym 4-5 yosh deb belgilaganlar, K. Federshpil esa bolalar ertaklarni 5 yoshidan boshlab so'zlab bera boshlashi kerakligini ta'kidlaydi.

Albatta, kichik yoshdagi bolalarni tilga o'rgatish borasida, avvalo, bolalarning idrok etish, xotirada saqlash kabi psixologik xususiyatlari, bola nutqiy a'zolarining rivojlanishi bilan bog'liq fiziologik xususiyatlari bilan ham tanishib chiqish, ularning bir-biriga ta'siri va rivojlanishining lingvodidaktik omillari ham atroflicha o'rganilishi kerak bo'ladi.

² Малкина Н. А. Методика использования сказки в обучении дошкольников устной речи на английском языке: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. Москва, 1996. – С. 1.

Shuningdek, bu o'rinda hatto bolalarning gender xususiyatlari, milliy mentalitetga xos jihatlari ham katta rol o'ynaydi. O'g'il bolalarga qaraganda qiz bolalarning so'zga chechanroq bo'lishi, g'arbga nisbatan sharqda insonlarning erta uyg'onishi allaqachon o'z isbotini topgan haqiqatdir. Buyuk mutafakkir bobomiz hazrat Alisher Navoiyning 4-5 yoshlaridayoq o'z zamonasining yetuk shoiri Fariddun Attorning "Lison-ut tayr" nomli falsafiy asarini to'liqligicha yod olganliklari va umrlarining oxirigacha ushbu asarni o'z xotiralarida saqlaganliklari, o'zlari ham chuqur falsafiy ma'noga yo'g'rilgan she'rlar ijod qila boshlaganliklari, buyuk bobokalonlarimiz Mirzo Ulug'bek 15 yoshidan boshlab, Zahiriddin Muhammad Bobur 14 yoshidan boshlab davlatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanganliklari barchaga ma'lum. Shunday ekan, kelajak avlodni yetuk inson qilib tarbiyalash va ularga ta'lim berishga yanada mas'uliyat bilan yondashish, bolalarni maktabga tayyorlashda hamda o'zlari qiziqqan fanlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Денисенко О.А. *Методика раннего обучения английскому- 166 языку на основе произведений детской англоязычной литературы (для школьников шестилетнего возраста): Автореф. дисс. . канд. пед. наук. Тамбов, 1995. – С.20.*
2. Запорожец А.В. *Психология восприятия сказки ребёнком-дошкольником // Дошкол. воспитание. 1948. N 9. – С. 34-41.*
3. Алхазисвили А.А. *Теория и практика обучения устной речи на иностранном языке: Учеб. пособие для вузов и фак. Тбилиси: Ганатлеба, 1984. – С.224.*
4. Амонашвили Ш.А. *Психологические особенности усвоения второго языка младшими школьниками // Иностр. яз. в шк. 1986. N 2. – С. 24-27.*
5. Малкина Н. А. *Методика использования сказки в обучении дошкольников устной речи на английском языке: Автореф. дисс. ... канд. пед наук. Москва, 1996. – С.1.*

Yulduz MAXMUTAZIMOVA,
Toshkent shahar Bektemir tumani
573-maktabgacha ta'lim muassasasi defektologi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA DEFEKTOLOG, PSIXOLOG, TARBIYACHI VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlarida hamkorlik ishlarini rivojlantirish va kelgusida taraqqiy ettirish yo'llari ochib berilgan. Shuningdek, muassasadagi defektolog, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligini kengaytirish haqida ma'lumotlar berilib, pedagogik jarayon ishtirokchilarini oila bilan muvaffaqiyatli hamkorlik o'rnatishning ilg'or pedagogik usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim muassasasi, oila, defektolog, psixolog, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ota-onalar, hamkorlik, pedagogik targ'ibot.

В этой статье говорится о дальнейших путях развития сотрудничества в дошкольных учреждениях в процессе учебно-воспитательной работы. Имеется в виду совместная деятельность дефектолога, психолога, воспитателей и родителей воспитанников. Автором освещены передовые педагогические технологии эффективной совместной работы участников педагогической деятельности с семьёй.

Ключевые слова. Дошкольное учреждение, семья, дефектолог, психолог, воспитатели, дети, родители, совместная деятельность, педагогическая пропаганда.

Article discusses further ways of developing cooperation in preschool institutions in the process of teaching and educational work. This refers the joint activity of a defectologist, a psychologist, educators and parents of pupils. The author highlights the advanced pedagogical technologies of effective joint work of the participants in pedagogical activity with the family.

Key words. Preschool, family, defectologist, psychologist, educators, children, parents, joint activities, pedagogical propaganda.

Maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) – maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarini o'rganish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini ta'minlaydi.

2017-yilning 9-iyunida Xalq ta'limi vazirining buyrug'i bilan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari tasdiqlandi. Unga ko'ra Davlat talablari quyidagi vazifalardan iborat:

- bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash;
- bolalarning sog'lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash hamda unda o'qishga intilish hissini uyg'otish;

-
- bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun integral ta'limni tashkil etish;
 - shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;
 - bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
 - bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashda ularning ota-onalari bilan o'zaro hamkorlik qilish hamda ota-onalarga amaliy jihatdan ko'maklashish;
 - bolalarda ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy, estetik, intellektual, jismoniy sifat va salohiyatlarni uyg'otish hamda rivojlantirish;
 - bolalarni sog'lom turmush tarzi bilan tanishtirish;
 - bolalarda mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlarini shakllantirish;
 - bolalarga dunyo haqida tushunchalar berish va tasavvurlarini kengaytirish;
 - bolalarning yoshi, individual, psixologik va jismoniy xususiyatlari hamda qobiliyatini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasida esa maqsad – ta'lim-tarbiya berish, korreksion-pedagogik va davolash-sog'lomlashtirish faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi. Uning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ularning bilish faoliyatiga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlash, jamiyatga moslashuviga ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarining vazifalariga korreksion ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual tarzda tashkil etish, bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlari shakllanishi uchun zarur korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya muhitini yaratish, bolalarni ijtimoiy hayotga va maktab ta'limiga sifatli tayyorlash kabilar kiradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining oila bilan hamkorligini ta'minlashda defektolog, logopedlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan rivojlanishida kamchiligi bor bolalar bilan muassasa defektologi korreksion-pedagogik faoliyatni olib boradi. Albatta, bu jarayonda defektolog bilan birgalikda bevosita hamkorlik jarayoniga tarbiyachi, psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya instruktorigi, hamshira va ota-onalar jalb etiladi. Ushbu hamkorlikdagi pedagogik jamoa, eng avvalo, bir-birini to'ldirib boruvchi istiqbolli rejalar ustida ish boshlashi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida defektolog faoliyatida hamkorlik ishlari keng amalga oshirilayotgani samarali natijalarga erishishni ko'zlaydi. Defektolog o'zining pedagogik-korreksion faoliyati bilan oila va maktabgacha ta'lim muassasasining birgalikdagi hamkorlik ishlarida bevosita faol ishtirok etadi.

Bola, eng avvalo, oilada kamol topadi, rivojlanadi, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olib, maktab ta'limiga tayyorlanadi. Shunday ekan, biz mutaxassis defektolog, logopedlar, psixolog va tarbiyachilar ota-onalar bilan yaqindan muloqot o'rnatishimiz, oiladagi shart-sharoitlar bilan mukammal tanishib chiqib, ota-onalarning pedagogik ongi va madaniyatini shakllantirishimiz zarur, deb o'ylayman.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining qatnashchilari oila bilan muntazam hamkorlik o'rnatish uchun muassasada ota-onalar uchun maslahat soatlari o'tkazib borish, hamkorlikni kuchaytirish, "Ota-onalar muloqot xonasi"dan samarali foydalanishi kerak. Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga oid muammolarni joyida hal etish, kelgusida rivojlantiruvchi fikrlar, taklif-mulohazalar bilan o'rtoqlashish juda ahamiyatlidir. Shu jihatdan har bir guruhda ota-onalar qo'mitasi faoliyatini jonlantirish va to'g'ri yo'lga qo'yish, faol ota-onalarni

kengash a'zolari etib saylash, maqsadli rejalar bilan ishlash, shu orqali ota-onalarni muassasadagi tashkiliy-pedagogik ishlarga jalb etish, barchaning fikr va takliflarini o'rganib chiqish, umumlashtirish, keng ommaga asosli taqdim eta olish, ota-onalar o'rtasida muloqotchanlikni oshirish, pedagogik madaniyatni shakllantirish bugungi kun talabi sanaladi.

Shuningdek, muassasada pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash va yuksak ma'naviy ongini shakllantirishda “MTM kutubxonasi”ning o'rnini alohida ahamiyatga sazovordir. Ota-onalarni kutubxonaga a'zo qilish orqali ularni kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish, o'z farzandlariga kitob o'qib berish malakasini o'stirish, zamon talabiga javob beradigan qulayliklar yaratish, muassasadagi kutubxona faoliyati bilan yaqindan tanishish, shu maqsadda “Farzandimga kitob sovg'a qilaman” nomli kitoblar ko'rgazmasini tashkil etish, ota-onalar o'rtasida “Zukko kitobxon” ko'rik-tanlovlarini o'tkazishni rejalashtirish samarali natijani beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jamoa va ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini amalga oshirish hamkorlik faoliyatini yanada mustahkamlaydi. Oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida guruhlarda tarbiyachi, muassasa psixologi, defektologlar ta'lim-tarbiyaviy reja mazmuni bilan tanishtiradi. Pedagog bolalarni oilada tarbiyalashning ilg'or usullarini o'rganib, umumlashtiradi. Bu izchil ravishda amalga oshiriladi hamda maktabgacha ta'lim muassasasi mudirasi tomonidan yillik rejaga kiritiladi. Ishni tashkil etish usullari quyidagilarni tashkil etadi:

- har hafta juma kuni ota-onalar majlisini o'tkazish;
- bolaning yashash sharoiti bilan tanishish;
- doira shaklidagi stol atrofida muloqot olib borish, maslahat soatlari uyushtirish, ota-onalar uchun maslahat burchaklarini tashkil etish;
- yakka individual tarzda suhbatlar o'tkazish;
- ota-onalar uchun ijtimoiy-psixologik treninglar, so'rovnomalarni o'tkazish;
- ochiq eshiklar kunini tashkil etish;
- seminar-treninglar, master-klasslar tashkil etish;
- quyidagi mavzularda konferensiyalar o'tkazish – “Defektolog – bola – ota-ona”, “Farzandim kelajagi uchun mas'ulman”, “Bolangiz maktabga qanday tayyorlanadi?” kabi;
- bolaning ijodkorligidan foydalanib, ko'rgazmalar tashkil etish va ota-onalarni jalb etish;
- “Farzandimga kitob sovg'a qilaman”, “Kitob o'qishga yo'l”, “Savodxon bolajon” mavzularida oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtasida mazmunli va maroqli tadbirlar tashkil etish, tematik bayramlarni muntazam o'tkazish;
- ota-onalar uchun stendlar, plakatlarni, ko'rgazmalar yaratish, muassasaning markaziy peshtoqiga o'rnatish, uni har hafta yangilab turish;
- muntazam uyga vazifa daftarlari bilan ishlash.

Ota-onalar majlisi sentabr oyi boshida muassasa mudirasi, oktabr oyida esa defektolog tomonidan o'tkazilib, bolalarni tekshirish natijalari ota-onalarga tanishtiriladi. Yanvar oyida 1-yarim yillik natijalari bilan, may oyida 2-yarim yillik o'quv va yili yakuni bo'yicha ma'lumot beriladi.

Tashkil etilgan stendda – me'yorda nutqning rivojlanishi, nutq nuqsonlarining turlari, sabablari, bartaraf etish yo'llari, ommabop adabiyotlarning ro'yxati hamda nutq nuq-

sonini korreksiyalash usullari bo'yicha maslahatlar beriladi. Bundan tashqari stendda axborot bo'limi mavjud bo'lib, e'lonlar, unda ota-onalar majlislarining sanalari hamda mutaxassislarining konsultatsiya berish vaqti ko'rsatilgan bo'ladi.

Rivojlanishida kamchiligi bor bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar tizimida defektolog va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan uyga vazifa daftari asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Uyga vazifa daftariga bajara olish qobiliyatiga ko'ra mustahkamlash uchun ota-onalarga tushuntiriladi va vazifalar beriladi. Uyga vazifa daftari 12 ta komponentga tayangan holda yuritiladi. Uyga vazifa daftari uyda mustahkamlash uchun ota-onaga tushuntiriladi va har hafta so'nggida beriladi:

1. Nafas mashqi.
2. Artikulyatsion mashq.
3. Tovushni nutqqa qo'yish.
4. Fonematik idrokni rivojlantirish.
5. Lug'at boyligini oshirish.
6. Nutqning grammatik tomonini rivojlantirish.
7. To'g'ri tovush talaffuzini shakllantirish va savodga tayyorlash, o'rgatish.
8. Mayda qo'l motorikani rivojlantirish.
9. Umumiy motorikani rivojlantirish.
10. Mustaqil nutqni rivojlantirish.
11. Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.
12. Bolaning rivojlanishidagi kamchiliklariga qarab ijodiy yondashish.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida bevosita "Ota-onalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya faoliyati, o'z bolalariga berilayotgan ta'lim va ko'rsatilayotgan tibbiy-korreksion yordam bilan tanishish huquqiga egadir", deb ta'kidlab o'tilgan.

Bundan ko'rinadiki, ota-onalar muassasa bilan hamkorlik chog'ida aynan o'z farzandining kelajagi uchun, uning kelgusidagi porloq hayoti haqida qayg'urishi, ta'lim-tarbiyasi bilan qiziqishi juda muhim. Muassasada o'tkaziladigan ochiq eshiklar kunida ishtirok etishi, mashg'ulotlarni kuzatishi, o'z farzandining qay darajada ta'lim-tarbiya olayotganining guvohi bo'lishi ota-onalardan alohida vaqt, e'tibor, qunt talab etadi. Ota-onalar farzandlarining ovqatlanishi, mazmunli faoliyat olib borishini bevosita ko'rib, mulohaza yuritishi, takliflar kiritishi mumkin.

Shu o'rinda "Defektolog, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi qanday kengaytiriladi va taraqqiy etadi?" degan savol tug'iladi. Buning uchun, eng avvalo, defektolog, psixolog va tarbiyachilarning pedagogik kompetentligini oshirish samaradorligi birinchi o'rinda turadi. O'ziga xos kasbiy mahorat, shaxsiy va umummadaniy bilimlarga ega bo'lish pedagogik jamoada faol ishtirok etayotgan defektolog, psixolog va tarbiyachilarning bajaradigan ishlarining asosi hisoblanadi va hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantiradi.

Kecha muassasadagi hamkorlik ishlari ma'lum darajada shakllangan bo'lsa, bugun pedagogik jamoaning har bir a'zosi – defektolog, psixolog, jismoniy tarbiya instruktori, musiqa rahbari, muassasa shifokori kabilar o'z faoliyatlarini puxta ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirishadi. Ertaga yanada mustahkam istiqbol rejalarini tuzish muassasadagi tarbiyalanuvchilarning sifatli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bunday hamkorlik faoliyati natijasida kamchilikka ega bolalarning ta'lim-tarbiyasi ham samarali rivojlanadi.

Mashhur psixolog Uri Bronfenbrennerning fikricha, “ ... bolalar rivojlanishida ota-onalarni jalb qilishga asosiy urg‘u berish, hoynahoy, har qanday yoshda ham ijobiy natijalarga ega bo‘ladi, ammo bunday ish qancha erta boshlansa, bolaga shuncha foydalidir...”.

Maktabgacha ta‘lim muassasasi qanday qilib ota-onalarni o‘z hammaslklariga aylantirish mumkin?

Rivojlanishida nuqsoni bor bola tarbiyalanayotgan oilalar ko‘p sonli muammolarining yuki ostida yashashadi. Bu esa oila ichidagi muhitni murakkablashtiradi. Hamma ota-onalar ham bolasining muammosini qabul qilishga, munosib baho berishga qodir emas. Rivojlanishida kamchiligi bor bolani tarbiyalayotgan ota-onalar farzandidagi kamchilikka ko‘nika olmishmaydi va ayrimlar bu kamchilikni tan olmaydi ham. Shu bois, avvalambor, bola tarbiyalanayotgan oila muhiti, ota-ona hamda bola o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan tanishib chiqish kerak bo‘ladi.

Har bir ota-ona oilaviy sharoitiga ko‘ra o‘z farzandi ta‘lim-tarbiyasiga, muassasa bilan hamkorlik va muloqot o‘rnatishga turlicha yondashadi. Shunga ko‘ra ota-onalarni 3 toifaga bo‘lish mumkin:


Lider ota-onalar (doimo mustaqil tashabbus bilan chiqa oladigan, barcha korreksion-pedagogik jarayonda faol ishtirok etadigan ota-onalar).

Mas’uliyatli ota-onalar (berilgan vazifalarni bajarish muhimligini anglagan holda ish tutadigan, turli vaziyatlarga qarab ma’lum topshiriqlar asosida ish yuritadigan ota-onalar).

Tanqidiy kuzatuvchi ota-onalar (korreksion-pedagogik jarayon faqatgina mutaxassislarining ishi deb hisoblaydigan, ta‘lim-tarbiya ishtirokchilari o‘z ish faoliyatini qat’iy bajarishini talab qiladigan ota-onalar).


Bolaning nutqiy rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan vosita – bu oila muhidadir. Ota-onalarning ongiga farzandining nuqsonini bartaraf etish mumkinligi va zarurligini yetkazish defektologning vazifasi sanaladi. Buning uchun ota-ona va defektologning o‘zaro yaqin mustahkam hamkorligini yo‘lga qo‘yish zarur.

MTM defektologi bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, korreksion-rivojlantiruvchi jarayonni tashkil qiladi. Korreksion ishda maxsus usullar va texnologiyalarni qo‘llash haqida ota-onalar va pedagog xodimlarni xabardor qilib boradi. Logoped, defektolog, psixologning xulosasi psixik, jismoniy, nutq buzilishlarini erta aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi. Endigina rivojlanayotgan bolalarda o‘z vaqtida aniqlanmagan va ahamiyat berilmagan muammo keyinchalik qaytarib bo‘lmas natijaga olib kelishi mumkin.



Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasida va davlat maktabgacha ta'lim muassasasida ham bolalar maktab ta'limiga tayyorlanib borishadi. Shunday ekan, rivojlanishida kamchiligi bor bolalarga alohida e'tibor berilsa, vaqtda chora-tadbirlar amalga oshirilsa, samarali natijalarga erishiladi. Tibbiy pedagogik-psixologik komissiya orqali bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni ota-onalar bilan birgalikda o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog-xodimlari bevosita ta'lim-tarbiya jarayonining qatnashchilari – hamkorlari hisoblanadi.



Bundan ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida hamkor ishtirokchilar doimiy ish faoliyatini puxta ishlab chiqilgan reja asosida amalga

oshirsa, yaxshi samara beradi. Muassasa rahbari, ya'ni mudiraning serqirra boshqaruv jarayoni har bir tarbiyachi-xodimlarni maqsadli pedagogik targ'ibot ishlarini tashkil etishga undaydi. Shu asosda defektolog va psixolog, metodist bevosita ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini boshlaydi hamda ota-onalar va bolaning oiladagi o'rni qay darajada ekanligini o'rganadi, tarbiyachiga yordam berishga intiladi, muassasadagi musiqa rahbari, jismoniy tarbiya instruktorigi, hamshira va shifokorlar ham ushbu pedagogik jarayonga qo'shib, chambarchas bog'liqlikda faoliyat olib boradilar.

Birgina defektolog o'z hamkorligi chog'ida musiqa rahbari va jismoniy tarbiya instruktorigidan katta kuch oladi. Ya'ni ular bilan mashg'ulotlarni kompleks mujassamlashgan tarzda tashkil etsa va unga ota-onalar jalb etilsa, juda muvaffaqiyatli natijalarga erishiladi. Shu bilan birgalikda muassasa hamshirasining har kungi bolalar qabulidagi tekshiruv orqali har bir bolaning holati, sog'ligi nazorat qilib boriladi.

Har bir bolaning kun davomidagi qay holatda bo'lganligi, qanday natijalarni qo'lga kiritganligi, o'zini tutishi va rivojlanish ko'rsatkichlari muassasada tashkil etilgan ota-onalar uchun maxsus stendlar va e'lon burchaklarida, monitoring oynasida aks etishi darkor. Shunda ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni sifati oshib, samaradorlik ham yuksak bo'lishiga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2016-yil 29-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi 528-son qarori. 2017-yil 19-iyul.
4. Bolajon. Tayanch dastur. – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2010.
5. Xasanboyeva O.U. Barkamol avlod ma'naviyati. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2010.
6. Xasanboyeva O.U. Oila pedagogikasi. – T.: O'qituvchi, 2010.

Tahririyat: *Har bir bolaning hayoti bu – kichkina mo'jiza. Hatto barchadan farqli bola ham ota-onasiga quvonch olib kelishi, unga o'zgacha zavq bag'ishlashi mumkin. Buning uchun esa, uning barcha kamchiliklari, o'ziga xosligi-yu boshqalarga o'xshamasligi bilan qabul qilinishining o'zi kifoya.*

Muallif rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni o'z tengdoshlari orasiga qo'shishdek mas'uliyatli vazifani teran his qilgan holda bu borada ularning ota-onalari, difektolog, dietolog, psixologlar bilan birga uzluksiz hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularga metodik yordam ko'rsatishga doir kerakli ma'lumotlar va o'z tavsiyalarini jamlab, taqdim etishi sohada yanada samarali natijalarga erishishda keng yo'l ochishiga ishonamiz.

Feruz AKRAMOVA,

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi yetakchi ilmiy xodimi,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

OILADA OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Annotatsiya

Maqolada ota-ona va bola munosabatlarining psixologik masalalari asoslab berilgan. Shuningdek, muallif oila muhitida ota-ona va farzand munosabatlarini to'g'ri tashkil etishda mas'uliyat, obro'-e'tibor, aql-idrokni, ifodalash yo'llarining psixologik jihatlarini tahlil qilib bergan.

Kalit so'zlar. Oila, ota-ona, farzand, oilaviy hayot, oila munosabatlari, jamiyat, tarbiya, oila muhiti, obro'ni ifodalash turlari.

В статье обоснована значимость вопроса воспитания в семье. Приведён анализ вопросов влияния ответственности, внимания, мышления и путей выражения своего авторитета родителями на установление правильного отношения со своими детьми.

Ключевые слова. Семья, родители, ребёнок, семейная жизнь, семейные отношения, общество, воспитание, среда семьи, виды проявления авторитета.

Article substantiates the importance of the issue of upbringing in the family. The author analyzes the issues of the influence of responsibility, attention, thinking and the ways of expressing one's authority by parents to establish a proper relationship with their children.

Key words. Family, parents, child, family life, family relations, society, upbringing, family environment, types of authority.

Oila jamiyatning negizi, har bir shaxsning ongida, xatti-harakatida bolaligidan boshlab shakllanadigan barcha fazilatlarini, niyatlari, maslaklari amalga oshadigan maskan hamdir.

Farzand – oila tayanchi. Oila esa – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati. Shuningdek, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladandir.

Bordi-yu jamiyatda oila tuzuk bo'lmasa, tarbiyaga ham e'tibor berilmasa, qancha buyuk bo'lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi. Abdurauf Fitrat oila taqdirida yurt va xalq baxtini nekbinlik bilan ko'radi. Shu mulohazalardan kelib chiqib u: "Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi" deb ta'kidlaydi.

Oila – bu bir kunlik, bir yillik emas, balki bir umrlik makondirki, bu makonda har kun, har soatda qanchadan-qancha voqea-hodisalar, yangidan-yangi tashvishu quvonchlar sodir bo'ladi.

Shu yilning 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi" mavzusida o'tkazilgan anjuman-

da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev buyuk allomalarning ushbu fikrini keltirib o'tdilar: “Bola ota-ona qo'lida bir – omonatdir”. “Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi, haqiqatan ham, juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas.”¹

Darhaqiqat, farzandga beriladigan tarbiya dastlab oila muhitida bajariladigan eng asosiy vazifadir. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan nusxa oladilar. “Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh” bo'lib o'sadi.

Joriy yilda “Oila” ilmiy-amaliy markazi tomonidan “Kelajakda qurilajak oilangiz o'z oilangizga o'xshashini istarmidingiz?” mazmundagi so'rovnomaga o'tkazildi. Undagi ishtirokchilarning qariyb 35 foizi o'z oilasidagi muhitdan qoniqmasligini bayon qilishgan. Xo'sh, bu nimadan dalolat? O'sha oilalarning notinchligidan, farzandlarning o'z ota-onalari xulq-atvoridan qoniqmasligidan dalolat emasmi?!

Shuning uchun, ota-onaning vazifasi bolaga faqat nima qilish lozimligini anglatish emas, balki nima yaxshi-yu, nima yomonligini o'rgatish kerakligini ham taqozo etadi.

Shu o'rinda bugungi kunda o'zbek oilalarda mavjud bo'lgan tarbiyadagi nuqsanlardan biri haqida aytishni lozim topdik. Ya'ni ota-onalarning rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiya usuli bunda bolalarning xohish-istagi, o'y-xayollari, orzu va intilishlari inobatga olinmaydi, natijada ularning erki cheklanadi. Bunday tarbiya usulida bolalar o'z fikr-mulohazalarini ochiq bayon etolmaydigan, mustaqil qaror chiqara olmaydigan, muayyan vaziyatlarga o'z nuqtayi nazarini bildira olmaydigan jur'atsiz bo'lib ulg'ayadi.

Jur'atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o'z-o'ziga ishonch hissi yetishmaydi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlariga tobe bo'lib yashaydi. Ular birovlarining bo'lar-bo'lmas gaplariga ishonadilar. Shuning uchun ham aldovlar, ko'zbo'yamachiliklar, ta'magirliklar qurboniga aylanadilar. Birovlarning ta'siri, qistovi natijasida turli xil qonunbuzarliklarga aralashib qolishi, yo'ldan adashishi mumkin. Zotan, “bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfatdir. Bunday vaziyatda, avvalo, shu bolaning ota-onasi, yaqinlari jabr ko'rishadi. Afsuski, ba'zida biz ulardan o'zimizni olib qochamiz. Xalqimiz tomonidan uyushtiriladigan to'y va marosimlarga qo'shmaymiz, u ham yetmagandek, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aldangan insonlarni ashaddiy dushmanga aylantirib qo'yamiz. Natijada esa kulfat kamayishi o'rniga ko'payadi. Bu esa boshqa oilalar hayotiga ham kirib boradi”.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida aynan oilagina farzand tarbiyasida eng muhim maskan ekanligiga oid fikrlarni o'qiydiz: “Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”².

Ayniqsa, ota-onalar bilan farzand munosabatlarining o'zbek oilalari muhitida o'rganilishi millat va davlat kelajagini o'ylash hisoblanadi. Mazkur maqolada oiladagi ota-ona

¹ Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida o'tkazilgan anjumanda so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 16-iyun 2017.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 56-bet.

va farzand munosabatining ta'sirini maxsus o'rganish orqali shu munosabatlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini ko'rsatib berishni lozim deb topdik.

Oiladagi ota-ona va farzand munosabatlarining samarali kechishi ota-onalarning bu rollarga qanchalik muvofiq ekanligini taxmin qildik. Buning uchun o'zbek oilalarida ota-onalarning farzandiga bo'lgan munosabat xususiyatini aniqlash masalasiga e'tiborni qaratdik.

Tadqiqot obyektini sifatida Toshkent aloqa kollejida o'qiydigan 50 nafar o'quvchilarni hamda ularning ota-onalarini jalb etdik.

Maqsadga monand ravishda ushbu metodikalardan foydalanildi: Bular: maxsus tuzilgan so'rovnoma anketasi, "Ota-ona o'z nomiga qanchalik loyiq ekanliklari" hamda "Oiladagi o'zaro munosabatlar, ota-onaning bolalariga munosabatini aniqlash" mavzusidagi "Keu" testlari shular jumlasidan.

Oilalarda ma'naviy ijtimoiy muhit o'rganilganda "Farzand tarbiyasi uchun kim ko'proq mas'ul?" savoliga bildirilgan fikrlarni tahlil etsak, ota, ona, ota va ona mas'ulligi eng asosiy ekanligi e'tirof etildi: 31,0 foiz – "ota", 35,0 foiz – "ona", 22,0 foiz "ota-ona" ko'rsatkichlari eng yuqori darajada belgilanadi. Bu holat oilalardagi ota-onalarni farzandlar tarbiyasida namuna va ibrat bo'lishi zarur ekanligi, maslahat va fikrlari bilan farzandlarini to'g'ri yo'lga boshlashlari, har tomonlama andoza bo'lish sifatlariga ega bo'lishini taqozo etadi.

Farzand tarbiyasi ota-onaning eng katta va mas'uliyatli vazifalaridan biri sanaladi. Bu vazifaga e'tiborsizlik kelajakda jamiyat taraqqiyotiga xavfli ta'sirini keltirib chiqaradi. Shuning uchun tarbiya qisqa muddatda va birdaniga singdiriladigan jarayon emas, uni yillar davomida go'daklikdan singdirib borish talab etiladi. Bugun farzand tarbiyasida "o'zini qay darajada ko'ra olayotgan" ota-onalarni o'rganish uchun "Farzandlaringiz tarbiyasiga yetarli e'tibor berayapsizmi?" savoli bo'yicha berilgan natijalarga e'tiboringizni qaratamiz. Savolga 86,0 foiz ota-ona "ha" degan ta'kidni bildirishdi. Bu ota-onalarni farzandlari tarbiyasiga bo'lgan mas'ulligini his eta olishini, o'zlarini farzandlari kamolotidagi ishtirokidan ko'ngli to'layotganligini anglatadi. "Yo'q" javobi 7,0 foizda va "javobi yo'q" javobini tanlanishi 7,0 foizda belgilanganlik kuzatilgan. Demak, ota-onalar orasida farzandlarining tarbiyasini o'z tasavvurlari va imkoniyatlari doirasida olib bora olmayotganligini tan olayotgan, o'zlarini balki bu masalada tajribasiz, no'noq his etayotganliklarini va bu holat ularda norozilik tuyg'ularini keltirib chiqarayotganligini ko'rsatadi. Ota-onalar aniq va ko'ngli to'ladigan javobni bera olishmagani, farzandlari hayotida o'zlari ibrat bo'la olmayotganidan, ularning tarbiyasidagi ishtirokidan ko'ngillari to'lmayotganidan ham darak beradi. Bu borada ota-onalarni ota-onalikka munosib o'rgatish, tarbiya borasidagi ilmlarini kengaytirish va zarur tavsiyalarni berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerakligi ko'rindi.

Darhaqiqat, oila – har bir shaxsda bolaligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu istaklar, qadriyatlar kamol topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir.

Farzand tarbiyasi mas'ullikni talab etadi. Milliy mas'uliyat insonning har bir amali, faoliyatini to'liq tasavvur qilgan holda, uning o'zi va millati uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejalashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi. Bunga erishishning eng qulay yo'li, avvalo, ota-onalarning bilimlarini oshirish, ularning sog'lom tafakkuri va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir. Bu esa ota-onalardan farzand oldidagi, el-yurt oldidagi ma'naviy burchini to'g'ri anglashni, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odat va an'analarimizning eng

nodirligini turmushga singdirish orqali bolalarda insoniy munosabatlarni shakllantirishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Bola shaxsini shakllantirishida, unga tarbiya berishda ota-onadagi mavjud psixologik va pedagogik bilimlar, ularning oiladagi va ijtimoiy hayotdagi obro'si juda muhim hisoblanadi. Lekin ba'zan ota-onalar o'z obro'larini soxta asosda yuzaga keltirishlari ham mumkin, uning bir qancha turlari mavjud:³

Muhabbat obro'si. Ko'pincha yumshoq gapirish, o'z muhabbatini bildirib, ortiqcha erkalash, bolaning xohish-istagini qondirishga harakat qilish, uni hissayotga beriluvchan qilib voyaga yetkazish bilan bir qatorda hamisha o'z manfaatini o'ylovchi shaxs bo'lib o'sishiga sabab bo'ladi.

Mehribonlik obro'si. Me'yoridan ortiqcha bo'lgan ko'ngilchanlik, yumshoqlik, mehribonlik bilan muhabbat obro'sidan farqlanadi. Ota-ona uchun oilaviy ziddiyatlarning bo'lmashligi juda muhim. Shuning uchun ham ular bolaning hamma xarxashalariga ruxsat berishadi. Bunday holda ota yoki ona farzandining aybini boshqalardan berkitishga, ularning salbiy xatti-harakatlarini himoya qilishga, shuningdek, ijobiy sayqal berishga harakat qiladilar. Har bir ishda bolaga nisbatan ko'rsatilayotgan “mehribonlik” natijasida uning salbiy ishlarini yana va yana takrorlashiga ota-ona tomonidan zamin yaratiladi.

Rasmiyatchilik obro'si. Bunday ota-onalar farzandlaridan o'zlari kabi fikrlashni talab etadilar. Ularning farzandlari bilan bo'lgan muomala va munosabatida yaqinlik va samimiylik emas, balki rasmiyatchilik ustunlik qiladi. Bunday vaziyatda bolalar o'zlariga boshqa joylardan “o'ziga yaqin odamni” qidirishiga va o'zgalarning ta'siriga ko'proq erishishiga olib keladi. Buning natijasida esa, ota-ona va farzandning bir-biridan uzoqlashishiga hamda bir-birini tushunmasligiga sabab bo'ladi.

O'z shaxsini ulug'lash obro'si. Bunda ota yoki ona o'zini xizmat ko'rsatgan, ahamiyatli inson qilib ko'rsatadi va buni har qadamda farzandiga ta'kidlashni ma'qul ko'radi. Bunday o'z shaxsini ulug'lab ko'rsatish bolaga hech qanday foyda bermay, aksincha, uni ham o'z shaxsini ulug'lash, maqtanchoqlik, boshqalarni mensimay past nazar bilan qarashga, pirovard natijada uning ruhiyati sustlashuviga olib keladi.

Oilada ota-onaning, shu oiladagi kattalarning yurish-turishidan tortib, so'z madaniyati, kiyinishi, insonlar bilan muomalasi, hatto atrof-muhitga munosabati va shu singari oddiy bo'lib ko'rinadigan holatlar ham bola tarbiyasiga katta ta'sir qiladi. Shu bois, bola yonida bo'lar-bo'lmas gaplarni aytish ularning ruhiyatiga ta'sir etib, tarbiyasining buzulishiga olib keladi. Afsuski, yosh bolalar oldida ayrim ota-onalar yomon so'zlarni o'ylamay-netmay gapiradi. Bular esa, bola tarbiyasiga ta'sir etmay qolmaydi.

Oiladagi ota-ona va farzand munosabatlarining samarali kechishi ota-onalarning bu rollarga qanchalik muvofiqliklariga hamda farzandining hayotga nisbatan munosabati xususiyatlariga e'tibor berishlari lozim. Ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarining samarali kechishida rollarga munosiblik va farzandlari voyaga yetayotgan maskan oiladagi muhitga nisbatan munosabatlari muhim bo'lib ko'rindi.

Bu, o'z navbatida, ularning bola tarbiyasida tushunib, ilm bilan yondashishlari mumkinligi, farzandiga munosabatda faqat o'zlari bilganicha ish tutishlari emas, balki yoshi ulug' nuroniy buva-buvilar yoxud mahalla faollari hamda bola bilim olayotgan maktab pedagoglari bilan bamaslahat ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

Shaxslararo munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida ota-ona va farzandlar orasida amalga oshadigan munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish masalasi juda muhimdir. O'zbek oilasi sharoitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o'ziga xos ijobiy

³ Yo'ldoshev M. oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. – T., 2004. 99-b.

tomonlari kuzatilgani bilan ayrim tomonlari borki, bu o'z navbatida, bola xarakterining shakllanishida namoyon bo'ladi.

Ota-onalarga ota-onalik mas'uliyati va baxti nasib etgach, farzandlari tarbiyasiga, uning kelgusida qanday inson bo'lishiga bevosita javobgar ekanliklarini anglab yetishlari lozim. Buning uchun ular:

– o'z farzandlari oldida yaxshi insoniy munosabatlarni, jumladan, namunali muomalani namoyish etishlari;

– mahalla – shaxs ijtimoiylashuvining asosiy maskanlaridan biri bo'lganligi sababli, ota-ona va farzand ishtirokida shaxslararo munosabatlarga doir suhbatlar uyushtirishlari;

– hayotiy misollar vositasida, mahalladagi obro'li insonlarning farzand tarbiyasiga doir tajribasini ibrat qilib ko'rsatishi;

– ota-onalarning bola tarbiyasida psixologik savodxonlik masalalariga e'tibor berish, joylarda psixologik maslahatxonalar tashkil etish lozim.

Demak, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat bola shaxsi shakllanishidagi yetakchi omillardandir. Jamiyatimizda olib borilayotgan barcha o'zgarish va ma'naviy islohotlar jamiyatda komil-barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir, bu esa o'z navbatida yaxshi fuqaro, jamiyatning barkamol a'zosini tarbiyalash hamdir.

“Keyingi yillarda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan “O'z uyingni o'zing asra!” degan da'vatga bugun “O'z bolangni o'zing asra!” deb qo'shimcha kiritish vaqti keldi, deb o'ylayman.”⁴ Bu da'vat ma'lum darajada oila va jamiyatda yuz beradigan barcha jarayonlarga ham taalluqlidir.

Shuning uchun biz oila muhitida ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etishga oila a'zolarini tayyorlasak, hayotimizda yuz berishi mumkin bo'lgan noxushliklarning oldini olgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi"* mavzusida o'tkazilgan anjumanda so'zlagan nutqi. “Xalq so'zi”. 16-iyun 2017.

2. Karimov I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: O'zbekiston, 2008. 176-b.

3. Yo'ldoshev M. *Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri.* – T., 2004. 99-b.

4. Akramova F.A., Abdullayeva R.M. *Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.* – T., 2002. 25-b.

5. *Oila psixologiyasi: Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / G'.B. Shoumarov tahr. ost.* – T., 2009. 338-b.

6. *Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo'llanma.* – T.: Sharq, 2011. 272-b.

⁴ Akramova F.A., Abdullayeva R.M. *Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.* – T., 2002, 25-b.

Sirojiddin TURG'UNBOYEV,
Respublika Ta'lim markazi Bosh metodisti

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TALAFFUZINI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada surdopedagog tadqiqotchilar, amaliy defektologlar hamda defektolog talabalar uchun eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar talaffuzini shakllantirish, tovushlar ustida ishlash bo'yicha nutqiy materiallar berilgan. Shuningdek, "A" tovushiga doir nutqiy materiallarni keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Nutqiy material, talaffuz, ta'lim metodlari, maxsus usul va vositalar, korreksiya, shakllantirish, analitik-sintetik metod, taktil-vibratsion sezgilar, eshituv-ko'ruv va eshituv idrok, daktil nutqi.

В статье даются сведения о работе над формированием произношения у детей с нарушениями слуха, речевой материал по работе над звуком "А". Также предназначена сурдопедагогам, практическим дефектологам и студентам-дефектологам.

Ключевые слова. Речевой материал, произношение, методы обучения, специальные методы и приёмы, коррекция, формирование, аналитико-синтетический метод, тактильно-вибрационные ощущения, слуховое и слухо-зрительное восприятие, дактильная речь.

Article provides an information on the work of the formation of pronunciation in children with hearing impairment, and speech material on work on the sound "A". This article is intended for sign language pedagogues, practical defectologists, and also for students-defectologists.

Key words. Speech material, pronunciation, teaching methods, special methods and techniques, correction, formation, analytical-synthetic method, tactile-vibrational sensations, auditory and auditory-visual perception, dactyl speech.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilmogda.

Xususan, alohida ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi va jamiyat xayotiga moslashuvi davlatimiz diqqat markazida ekanligini bir nechta misollarda ko'rishimiz mumkin:

1. Imkoniyati cheklangan bolalarga pedagogik, yuridik, ijtimoiy sohalarda hamda diagnostika, davolash va reabilitatsiya bo'yicha yordam ko'rsatish maqsadida Respublikamizda 2004-yilda Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazining tashkil etilganligi.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy himoyasi sifatida yaqqol namoyon ko'rinishga ega bo'lgan kar va qulog'i og'ir bolalarning audioskrining qilish asosida chaqaloqlarda eshitish qobiliyati buzilishini barvaqt aniqlash yo'li bilan ularni reabilitatsiya qilish dasturini amalga oshirish, ya'ni neyrosensor qulog'i og'ir va karlik kasalligiga chalingan bolalarni koxlaar implantatsiya qilish, operatsiyadan keyin surdopedagogik reabilitatsiya qilinishi.

3. Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari uchun davriylik asosida darslik hamda o'quv qo'llanmalarning chop etilishi kabi ishlar misolida davlatimizning alohida yordamga muhtoj shaxslarga bo'lgan g'amxo'rligini ko'rish mumkin.

Amalga oshirilayotgan ishlarni mazmunan boyitish, mavjud o'qitish usullarini takomillashtirish, rivojlantirish bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning insoniyat oldiga qo'ygan muhim talablaridan hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun og'zaki nutq daktil nutq ko'rinishida shakllantirish bilan birga olib boriladi.

Bunday yondashuv muloqot uchun kerakli bo'lgan nutqiy materialni tez o'zlashtirish imkonini beradi. Pedagog tomonidan so'zlarni sinxron daktillash va og'zaki gapirish, o'quvchilarni og'zaki – daktil so'zlashishga undash, diqqatini nutq harakatlari-ga, nutqning tempiga, uni eshitish yordamida qabul qilishga yordam beradi, ovoz kuchaytirgich apparatlaridan foydalanish bolalarning artikulyatsion tizimini faollashtiradi.

Bularning barchasi labdan o'qish malakasini shakllantirishning to'g'ri yo'naltirilgan va tizimli ishni olib borish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Labdan o'qishga o'rgatishning asosiy vazifasi bolalarda atrof-dagilar bilan muloqot jarayonida og'zaki nutqni eshituv-ko'ruv qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning yana bir muhim vazifasi – og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida rivojlantirish, uning aniq va ravonligiga erishishdan iborat. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida qabul qilingan analitik-sintetik metodning xususiyati uning konsentrik xarakterga ega ekanligidir.

Tayyorlov sinflarida o'quvchilardan fonemalarning saqlanib qolgan tizimini tashkil etuvchi 17 asosiy fonemalarni aniq talaffuz etish talab qilinadi. Asosiy tovushlarga A, O, U, E, I unlilari P, T, K, S, SH, X, F, V, L, R, M, N, undoshlari kiradi (1-jadval).

Bu tovushlar artikulyatsiya bo'yicha bir-biridan farq qiladi va boshqa tovushlarni o'zlashtirishga nisbatan bu tovushlarni o'zlashtirish birmuncha yengil hisoblanadi. Tovushlar munosabati bo'yicha asosiy tovushlarga kirmagan (o', y, b, d, q, g, g', z, ch, j, h) tovushlar asosiy tovushlarga mos ravishda so'zlarda vaqtinchalik boshqa tovushlarga almashtiriladi.

Asosiy fonemalar	A	O	U	E	I	P	T	K	S	S	X	F	V	L	R	M	N
Almashtirilgan fonemalar		O			Y	B	D	Q G G	Z C	J	H						

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aytib o'tilgandek, talaffuzga o'rgatishining analitik-sintetik, konsentrik-polisensorlik metodi qabul qilingan. Analitik-sintetik – bu yangi so'z ustida ishlash demakdir. Bu analiz va sintez, butun va qism munosabatlarini dealetik tushunish demakdir.

Analitik-sintetik metod turli nutqiy harakat malakalarini shakllantirish psixologik jihatdan oqlangan. Analitik-sintetik metodi talablari bilan ishlash, so'z elementlari ustida (bo'g'in, tovushlar), ajratib ko'rsatilgan tovushlar ustida ish olib borish ishiga bo'ysinadi.

So'zlarni talaffuz qilish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarni ishlab chiqishda so'zni o'qib chiqish yoki so'zlarni alohida harf bo'g'inlarga ajratish ishlari taklif etiladi. Bularning barchasi nutqiy materialni mustaqil talaffuz qilishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi va talaffuz etish jarayoni mazkur toifadagi shaxslarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirishga erishish uchun yo'naltirilgan.

Yuqorida aytib o'tilgan metod nafaqat analitik-sintetik, balki polisensorlik metod bo'lib ham hisoblanadi.

Demak, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatish jarayonida ko'ruv, taktil-vibratsion sezgilari kabi talaffuzni o'rgatish uchun qulay sharoit yaratib beruvchi analizatorlarga tayanish nazarda tutiladi.

Qoldiq funksiyadan foydalanish asosiy ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar asosiy tovushlarni boshlang'ich sinfda o'zlashtirishlari talab etiladi.

1- va 2-sinflarda so'zlarni talaffuz qilish bo'yicha tizimli ish olib boriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning navbatdagi muhim vazifalaridan biri talaffuzning maksimal tushunarligiga erishishdan iborat.

Shuningdek, nutqiy faoliyat, labdan o'qish, og'zaki nutqni eshituv va eshituv-ko'ruv orqali qabul qilish kabi nutqiy kinesteziyalarning aralashuvi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuziga katta talablarni qo'yadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatish ta'limining mazmuni o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Talaffuzni shakllantirish jarayonida nutqiy nafas talablariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, talaffuzni shakllantirish jarayoniga quyidagi bosqichlar kiritiladi:

1. **Nutqiy nafas** – o'quvchilarda bir nafasda qisqa so'z va iboralarni talaffuz qilib, nafasdan to'g'ri foydalanish va iboralarni sintagmalarga ajratish.

2. **Ovoz** – o‘quvchilarda ovozdan normal balandlikda va qo‘pol buzilishlarsiz foydalanish.

3. **Tovushlar va ularning ifodalanishi** – o‘quvchilarda ona tilining barcha tovushlarini to‘g‘ri aytish va ularni so‘zlarda ifodalash.

4. **So‘z ustidagi ish:**

- a) so‘z urg‘usi;
- b) orfoepik qoida;
- d) nutq tempi.

Bu bosqichlar o‘quvchilarda so‘zlarni ravon, tovush tarkibini saqlagan holda, normal sur‘atda, urg‘ularga rioya qilgan holda talaffuz qilish malakasini shakllantiradi.

Bunda “a” tovushining talaffuzi ustida olib boriladigan nutqiy material bosqichlarga ajratilgan holda berilgan.

“Aa” tovushni talaffuz qilish uchun nutqiy material:


Eshitishida nuqsoni bo‘lgan (3 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan) bolalar uchun.




“Aa” unli tovush

1-bosqich: Artikulatsiya


Tovushni cho‘zib talaffuz qilish.



Tovushni qisqa talaffuz qilish.



2-bosqich: Tovushni bo‘g‘inda mustahkamlash:

a) Ochiq bo‘g‘in: 


Pa-pa

pa-pa-pa

pa-pa-pa-pa

pa-pa-pa-pa-pa

pa-pa-pa-pa-pa-pa

b) Yopiq bo‘g‘in: 

ap-ap

ap-ap-ap

ap-ap-ap-ap

ap-ap-ap-ap-ap

ap-ap-ap-ap-ap-ap


d) Unli tovushlar bilan: 

apa-apa
apa-apa-apa
apa-apa-apa-apa
apa-apa-apa-apa-apa
apa-apa-apa-apa-apa-apa

3-bosqich: “Aa” tovushini soʻzlarda mustahkamlash

A-na, o-**ta**, op-**a**, a-**ka** ...

4-bosqich: “Aa” tovushini soʻz birikmalarda mustahkamlash




5-bosqich: Nuqtalar oʻrniga gaplarga mos soʻzlarni qoʻying:

1. Men bugun maktabga ... da keldim.
2. Maktabimiz bogʻida olma, ... bor.
3. Asalari guldan ... yigʻadi.

Foydalanish uchun soʻzlar: *aftobus, anor, asal.*

Bu bosqichda surdopedagog nuqtalar oʻrniga gaplarga mos boʻlgan rasmlardan foydalanishi maqsadga muvofiq boʻladi.

6-bosqich: Boʻgʻinlardan soʻz yasang.



7-bosqich: Topishmoq

Pak-pakana boʻyi bor yetti qavat toʻni bor.

8-bosqich: Tez aytish

Ayiq asal yaladi, **asalari** taladi.

9-bosqich: Maqol

Avval o'yla, keyin so'yla.

Shuning bilan birga qisqa matnlarni o'qish, rasmlarga qarab ularning nomini talaffuz etish topshiriqlari beriladi. Bu topshiriqlarni bevosita ota-ona o'z farzandlari talaffuzi ustida ishlashi mumkin.

Yuqorida berilgan talaffuzni shakllantirishga doir metodlar eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilardagi ikkilamchi bo'lgan nutqiy nuqsonni bartaraf etuvchi korreksi-on ish mazmunini takomillashtirib, samaradorligini oshiradi va buning natijasida, ularni jamiyat hayotiga ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova S.Sh., Turg'unboyev S.F. *Kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida maxsus korreksion darslarda ta'lim metodlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari*. "Zamonaviy ta'lim" jurnali, 2015. 11-son, 42-48-b.

2. *Сурдопедагогика*. / Под ред. М.М.Никитиной. – М.: "Просвещение", 1989.

3. *Новое в методах обучения глухих детей*. / Под ред. С.А.Зыкова. – М.: "Просвещение", 1968.

Tahririyat: *Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga hamda ixtisoslashgan ta'lim muassasalariga bugungi kunda alohida e'tibor berib kelinmoqda, albatta, bunda davlatimizning yordamga muhtoj shaxslarga bo'lgan g'amxo'rlikini ko'rishimiz mumkin. Muallifning mazkur maqolasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ko'ruv, taktil-vibratsion sezgilari orqali talaffuzni o'rgatish uchun qulay sharoit yaratib, ular bilan bevosita mashg'ulotlar olib borish lozimligi nazarga olingan. Shunday ekan talaffuzni shakllantirishga doir metodlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ikkilamchi bo'lgan nutqiy nuqsonini bartaraf etishga ko'mak beradi.*

Feruz UMAROVA,

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti

O'ZLASHTIRISHDA MUAMMOGA DUCH KELAYOTGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH HAMDA UNING SABABLARINI ANIQLASH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada o'zlashtirishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlash usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish holati kasb darajaga kelish sabablari hamda o'quvchida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg'ulotlarni yoritib bergan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, o'quvchilar, qiyinchilik, tanglik, metodika, jarayon, muammoni bartaraf etish.

В статье описан метод работы с учащимися, испытывающими затруднения в обучении. Автором определены причины трудностей в усвоении учащимися учебного материала и освещены методы проведения тренинговых занятий, направленных на преодоление проблем в сложных ситуациях.

Ключевые слова. Образование, ученики, трудность, недостаток, методика, процесс, преодолевать проблемы.

Article describes the method of working with students experiencing learning difficulties. The author identifies the reasons for difficulties in mastering the teaching material by the students and outlines methods for conducting training sessions aimed to overcoming problems in complex situations.

Key words. Education, students, difficulty, lack, methodology, process, overcome problems.

Ta'lim tizimi o'ziga xos murakkab va juda muhim jarayondir. Bunda asosan o'qituvchi va o'quvchining maqsadga qaratilgan samarali faoliyati yuzaga keladi. Ta'kidlash joizki, o'qitish o'zida o'quvchi va o'qituvchilarning o'quv maqsadlariga erishish, o'quv rejaları va dasturlarida o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan birgalikdagi faoliyatini ifodalaydi. O'qitish doimo o'qituvchi va o'quvchining o'zaro harakat jarayoni hisoblanadi. Shu o'rinda ta'lim tushunchasining mazmunini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Ta'lim inson tomonidan madaniy-ijtimoiy tajribani jamiyat hayoti uchun zarur bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan tashkillashtiriladi va boshqariladi. Bu jarayonda o'qituvchi gohida boshqaruvchi, ayrim hollarda ishtirokchi sifatida gavdalanadi.

Umumta'lim maktablarida ta'limning asosiy shakli bu dars hisoblanadi. Har qanday darsning maqsadi – o'quvchilar tomonidan ma'lum bir bilimlarni o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarni egallashi, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ular tomonidan ijodiy faoliyat tajribasini to'planishini ta'minlaydigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Bu jarayonda o'qituvchi va pedagoglar e'tiborli va zukko bo'lishlari shart. Ma'lumki, har bir o'quvchi o'ziga xos olam. Bu olamlar turlicha bo'lishi mumkin. O'quvchi yoshlarni doim kuzatib borish har bir pedagogning muhim va mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. O'zlashtirishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilarga yordam ko'rsatish va ularni tanglik vaziyatlaridan chiqazib olish lozim. Bu jarayonda nafaqat o'qituvchi pedagoglarning, balki ota-onaning o'rni beqiyos.

O'zlashtirishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilar bilan ishlashdan oldin, avvalambor, bunday holatlarni kelib chiqish sabablarini aniqlash lozim. So'ngra tavsialarni tashxis xulosalariga qarab umumlashtirib berish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi o'zlashtirayotgan yangi bilim va ko'nikmalarini psixologik bilish jarayonlari asosida o'zlashtiradi. Ammo o'quvchilar orasida bilimlarni o'zlashtirishda: birinchidan, ular tafakkurida ozmi-ko'pmi ma'lum darajada farqning borligi, ya'ni qaysi bir o'quvchi berilayotgan ma'lumotlarni yengil o'zlashtirib, aniq xulosa chiqarsa, boshqa biri bu vazifani bajarishda qiynaladi, yana biri yangi hodisa yoki voqelikning mohiyatini osongina tushunib, unga kirishib keta olsa, boshqa birovi yangi, notanish masalalardan hadiksirab, uni o'zlashtirishda qiynaladi. Shuning uchun ham o'quvchining psixologik-ruhiy holatining tayyorligi va aqliy salohiyati, ya'ni tafakkur zukkoligining qay darajada sifatga egaligi diqqatga sazovordir; ikkinchidan, o'quvchiga berilayotgan bilim usuli faqat mantiqiy, ya'ni "ko'rgazmali obrazsiz" xususiyatga ega bo'lsa, o'zlashtirishi qiyin sanalgan o'quvchilar, ya'ni "ko'rgazmali obraz" ga asoslanganlarga qiyinchilik tug'dirar ekan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish holati past darajaga kelish sabablari quyidagilar:

Pedagogik sabablar:

- fanlarni o'qitish jarayonidagi kamchiliklar;
- bilim olishdagi uzilishlar;
- o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar;
- o'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsiga nisbatan talablarning ortib borishi;
- o'qituvchi tomonidan avtoritar boshqaruvni o'quv jarayonida me'yoridan ortiq qo'llanilishi.

Ijtimoiy-maishiy sabablar:

- bola hayotidagi nomaqbul sharoitlar;
- ota-onalar tomonidan bola tarbiyasida noto'g'ri xulq-atvorni namoyon qilishi;
- oilaning past darajadagi moddiy ta'minlanganligi;
- kun tartibining mavjud emasligi;
- uy sharoitida bolani ta'lim olishi uchun yetarli sharoitning yo'qligi;
- bolaning nazoratsizligi va qarovsizligi.

Fiziologik sabablar:

- o'quvchining turli xil kasalliklarga chalinishi;

– o‘quvchining umumiy salomatligi uning o‘quv faoliyatida samarali o‘qishi uchun yetarli emasligi;

– markaziy nerv tizimi harakat funksiyalaridagi buzilishlar.

Psixologik sabablar:

– diqqat, xotira kabi bilish jarayonlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi;

– berilayotgan materialni anglab olish va tushunishning sekinligi;

– nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi;

– o‘quv-bilishga nisbatan qiziqishning yo‘qligi;

– dunyoqarashning torligi;

– o‘qishga nisbatan noto‘g‘ri munosabat;

– mehnat qila olmaslik;

– o‘quvchi shaxsida o‘quv faoliyati usullari va malakalarining noto‘g‘ri shakllanganligi;

– aqliy rivojlanishdagi muammolar;

– xulq-atvordagi muammolar;

– hissiy va shaxsiy muammolar;

– atrofdagilar bilan munosabatga kirishishida yuzaga keladigan muloqotdagi qiyinchiliklar.

Ayrim o‘rinlarda o‘qituvchi tomonidan o‘qitishning metod va metodikalarini noto‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida o‘quvchi shaxsida ta‘limni qiyinchilik sifatida idrok qilishi shakllanadi. Bu borada psixolog B.G.Ananyev quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Shunday misollar va salbiy vaziyatlar ham mavjudki, unda o‘qituvchi o‘zining darsdagi muloqotini tashkil etishdagi tarbiyaviy o‘rinsiz asosi bilan o‘quvchilarni aqliy faolligini susaytiradi, ularda negativ salbiy kechinmalarni yuzaga keltiradi, irodani susaytiradi, o‘quvchilarda insonlarga nisbatan ishonchsizlikni, ular bilan muloqotga kirishishdan qo‘rqish, shaxsiy to‘liqsizlik hissini yuzaga keltiradi”.

Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Darsning “Optimistik start” vaziyati.

Dars boshlanishi bilan sinfda shunday vaziyatni yaratish lozimki, unda o‘z-o‘zidan mushohada yuritish, zo‘riqish, qo‘rquv, o‘ziga ishonmaslikni bartaraf etishga qaratilgan shart-sharoit yaratilsin. Masalan, “O‘zingiz eshiting”, “Siz qanday yo‘l tutasiz?”, “Siz qanday o‘ylaysiz?”, “Menga sizning fikringiz qiziq” va h.k. Bunda har qanday nuqtayi nazarni qo‘llagan holda hamma narsani gapirish mumkin.

2. Muammoli vaziyat.

Qayerda muammo bo‘lmasa, u yerda tafakkur ham bo‘lmaydi. Muammoli ta‘lim orqali muammoni mustaqil ravishda qo‘yish va uning elementlari mustaqillik, faollik, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z qadrini bilish hissi shakllanishiga yordam beradi.

3. Tanlov vaziyati.

Bunday vaziyatlarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchida tashabbus va individuallikni namoyon qilishga hamda turli hodisalarni tushunishga nisbatan nuqtayi nazarni shakllanishiga, shuningdek, ularning mohiyatini tushunish, vaziyatga qarab muammoni qo‘ya olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday vaziyatda “nima bilan isbotlaysan?” savoli o‘rinlidir.

4. Muvaffaqiyat vaziyati.

Bunday vaziyatlar o‘quvchilarni muvaffaqiyat kategoriyalari ustida fikrlashga o‘rgatadi, ya‘ni “Mening holatimda mendan hech nima chiqmaydi?” pozitsiyasidan

“Ko‘ramiz, darrov bo‘lmasa-da, lekin amalga oshishi mumkin!” variantiga almashishi kuzatiladi.

Amerikalik psixolog U.Glasser shuni ta’kidlaydiki, “Ko‘plab o‘quvchilar omadsizlikdan azob chekadi. Avvalgi omadsizliklar miqdori, kechinmalar, insonning moddiy darajasidan qat’i nazar agar u o‘zi uchun muhim narsada muvaffaqiyatga erishmasa, hech qachon hayotda ulgurmaydi. Har bir o‘quvchi o‘quv bilish faoliyati tajribasini olishi kerak. Buning uchun o‘quvchi maksimal darajada bajarishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarni to‘plashi lozim.

O‘quvchilar darsda “nimadir joyida emas” deyishdan qo‘rqmasligi lozim. Bunday vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarning har qanday xatti-harakatini real, oqilona baholashi kerak hamda uning urinishlarini rag‘batlantirishi lozim. Mazkur holatda maqtoq va rag‘bat uchun har qanday metodni qo‘llash mumkin: “Aqlligina”, “Yashavor”, “Zo‘r” va boshqalar. Shuningdek, darslarda o‘quvchilarning ovozlari ko‘proq eshitilsin: “Ud-dasidan chiqdik”, “Eвриka” metodlari orqali.

5. Intellektual zo‘riqish vaziyati.

Har qanday ishda muvaffaqiyatga doimiy, zo‘riqish va tizimli mehnatsiz erishib bo‘lmaydi. Asosida aqliy mehnat yotadigan o‘quv faoliyati ham bundan mustasno emas. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek, “Aqliy mehnat inson uchun eng og‘ir mehnat ekanligi, orzu qilish oson va yoqimli ekanligi, biroq o‘ylash qiyinligiga e’tibor qaratgan”.

Shuning uchun darsda muvaffaqiyat vaziyati o‘zida intellektual zo‘riqish elementlarini, intellektual zo‘riqish vaziyati esa, muvaffaqiyat elementlarini mujassamlashtirishi lozim. Faqat ana shu muvaffaqiyat zo‘riqishli mehnat evaziga erishiladigan haqiqiy quvonch va g‘urur hissini uyg‘otadi. Yutuqning “o‘z-o‘zidan” kelishi hech nimaga arzimaydi.

Yutuqning o‘z-o‘zidan kelishi o‘quvchi shaxsida eng zarur narsa – o‘zidagi intellektual rivojlanishi, fikrlash doirasini kengaytirishi hamda faoliyatidan g‘ururlanish hissini bermaydi.

O‘quvchilarni o‘qishga nisbatan qiziqishni yuzaga keltirishi va rivojlantirishi uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

1. Bilishga oid qiziqishlarni rivojlanishi uchun ta’lim shunday tashkil etilishi kerakki, bunda o‘quvchi yangi materiallarni o‘rganishga nisbatan barcha imkoniyatlaridan foydalanadi hamda muammoli xarakterdagi topshiriqlarni bajaradi.

2. O‘quv mehnati xilma-xil bo‘lganidagina qiziqish uyg‘otadi. Bir xil axborot va harakatlarning bir turdagi usullari tez zerikib qolishga olib keladi.

3. O‘rganilayotgan fanga qiziqishni yuzaga kelishi uchun ushbu fan va uning alohida bo‘limlarini o‘rganishning zarurligi, muhimligi, maqsadga muvofiqligini tushunish zarur.

4. Yangi ma’lumot avval o‘zlashtirilgan bilimlar bilan qancha ko‘p bog‘liq bo‘lsa, u o‘quvchilar uchun shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

5. Unchalik qiyin bo‘lmagan hamda oson bo‘lmagan material o‘quvchida qiziqish uyg‘otmaydi. Ta’lim qiyin, biroq yetakchi bo‘lishi kerak.

6. O‘quvchi faoliyati qancha ko‘p tekshirilsa va baholansa, unga ishlash shunchalik qiziqarlidir.

Shuningdek, o‘qituvchi ta’lim olishda o‘zlashtirishi past o‘quvchilarga nisbatan quyidagi 10 qoidani qo‘llashi samarali natijalarni berishi mumkin:

– agar o'quvchining javobi mavhum ko'rinishga ega bo'lsa, uning javobiga qo'shilmagan holda fikrlarini isbot qilishga imkoniyat berish lozim;

– hech qachon o'quvchilarning bahs-munozarasini eng oson usul bilan, ya'ni ularga to'g'ri javob yoki yechimning to'g'ri usulini aytib hal qilmang;

– o'quvchilar fikrlarini diqqat bilan tinglang hamda ularning har bir fikrlarini mu-shohada qilgan holda qabul qiling;

– shuni doimo yodda tuting – ta'lim o'quvchilarning qiziqishlari, motivlari va umidlariga tayanish lozim;

– darslar va maktab qo'ng'iroqlari jadvali o'quv jarayonining belgilovchi omili bo'lmasligi kerak;

– o'quvchi shaxsining “telba g'oyalari” hurmat qiling va boshqalarga nostan-dart tafakkur uslubini singdiring;

– hech qachon o'z o'quvchingizga “sening ahmoqona g'oyalaringni mushohada qilishga bizda aslo vaqt yo'q” deya ko'rmang;

– ruhlantiruvchi so'z, muloyim tabassum, do'stona maqtovgga uchmang;

– ta'lim jarayonida doimiy amal qilinadigan metodika va dastur bo'lmaydi, shuni unutmang;

– bu qoidalarni ular sizning bir qisimingizga aylangunga qadar har kun qaytaring.

O'zlashtirishida muammo kuzatilayotgan o'quvchilar agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdilar:

1. Nosog'lom oila muhiti. Bunday oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi mu-nosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchilik-lar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy birlikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq bo'ladi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdirishadi. Ko'pgina hol-larda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda, o'zlarini ag-ressiv boshqarishga urinishadi. Haddan tashqari agressiv bolalar o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. U bunday bolalar o'zlarini ho'rlangandek his qilib, o'zlari kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadi. Bu esa muammoning ustiga yana muam-mo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositasi. U bugungi kunda bolalarga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir. Bu borada internetning ta'siri kuchayib bormoqda. Bolalar internet aloqalari orqali o'zlarining xususiyatlariga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar bilan ham tanishmoqda. Shu o'rinda oynayi jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari film-lar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarni tarkib topishiga ta'sir qilmoq-da. Bir qator psixologlarning ta'kidlashicha, oiladagi muhit, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabat, ota-ona bilan bola o'rtasidagi munosabat, oilaviy birlik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillari, aka-ukalari bilan yaqinlik darajasi, farzandi tomoni-dan qilingan noto'g'ri, yanglish xatti-harakatlarga nisbatan ota-onaning ta'sirlanishi – oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarni belgilab beruvchi omillar bo'lib hisoblanadi.

O'smir shaxsida tanglik holatini bartaraf etishga qaratilgan trening mashg'ulotla-ridan foydalanish samarali natija beradi.

“Niqobni uzat” mashqi

Maqsad: o'smirlarni tetiklashtirish va ularni guruh bo'lib ishlash uchun tayyorlash, ishtirokchilarning o'zlariga ma'qul bo'lmagan kayfiyatdan qutulishlari va to'liq ishga jalb qilishlari hamda mashqning guruhda ko'tarinki kayfiyatni uyg'otishiga erishish.

Ko'rsatma: nima qilayotganimni ko'rish uchun menga qaranglar. Men yuzimda biror-bir emotsiyani aks ettirishga harakat qilyapman. Mana, masalan (bunda trener biror qandaydir emotsiyani aks ettirib, zudlik bilan guruhning barcha a'zolari ko'rish uchun aylanadi). Keyin esa men o'zimning chap tomondagi qo'shnimga o'girilaman va u mening yuz ifodamni yaxshilab ko'rib olishi kerak. So'ngra u mening yuz ifodamdagi holatni hech qanday o'zgarishsiz o'zi aks ettirishi lozim. Buning uddasidan chiqishi bilan bir marta aylanib, so'ng yangi yuz ifodasi bilan chap tomoniga qarashi zarur. Shunday qilib, barcha navbati bilan shu holatni takrorlab boradi.

“Mening kayfiyatim nimaga o'xshaydi?” mashqi

Maqsad: shaxsda emotsional holatlarni anglash, ularni boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu mashq shu turdagi mashg'ulotlar uchun faollashtiruvchi o'yin vazifasini o'tashi mumkin. U ishtirokchilarga o'zlarining emotsional holatlarini anglash va ularni “shu yerda va hozir” tamoyili asosida obrazli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Ko'rsatma: o'zingizga quloq soling. Sizning hozirgi kayfiyatingiz qanday rangga o'xshaydi?

“Ovoz-hissiyot” mashqi

Maqsad: shaxsdagi emotsional holatlarni his qilish va boshqarish malakalarini shakllantirish.

Ko'rsatma: hozir men turli hissiyotlarni sanab o'taman va ushbu hissiyotlarni qanday his etishimizni ko'rsatib beramiz. Buni ko'rsatib berish uchun biz shovqin qilamiz. Agar ushbu hissiyotni kamdan-kam his etsak, sekin shovqin qilamiz, agar tez-tez his etsak, bir oz balandroq shovqin qilamiz. Agar qaysidir his bizni tez-tez bezovta qilsa, baland ovozda shovqin qilamiz.

Muhokama: “Sizningcha, biz ko'proq qaysi hissiyotlarni boshdan kechirar ekanmiz?” degan savol atrofida o'tkaziladi.

Trener uchun ma'lumot. Turli hissiyotlarga nisbatan ishtirokchilar qanday shovqin qilganliklariga ahamiyat qaratish, ya'ni ohangga e'tibor berish kerak. Qolaversa, ishtirokchilar, haqiqatan ham, his qilgan hissiyotlarida emas, balki “umumiy qabul qilingan” hislarda shovqin qilgan yoki qilmaganliklariga e'tibor qaratish ham muhimdir. “Yoqimli” hislar haqida ularga gapirib o'tish maqsadga muvofiq.

“Bir daqiqa ichida chiz” mashqi

Maqsad: shaxsda o'zining emotsional holatlari hamda o'zgalarda kechayotgan hissiy kechinmalarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Ko'rsatma: bir daqiqa ichida aydarli hech narsa chizmasdan o'zingizning kayfiyatingizni turli chiziqlar va ranglar orqali tasvirlang. Endi o'z rasmingizni o'ng tomondagi qo'shningizga uzating. Qo'lingizga kelib tushgan rasmlarni diqqat bilan kuzating. Bu yerda qanday kayfiyat tasvirlanganligini topishga urining.

“To'tiqush” mashqi

Maqsad: shaxsda hissiy holatlarning namoyon bo'lishi va o'zga insonlarning holatlarini anglash qobiliyatini shakllantirish.

Mashqning o'tkazilish tartibi: trener biror-bir qisqa jumlani aytadi. Masalan, “Men sayrga ketyapman”, ishtirokchilardan biri esa ushbu jumlani takrorlaydi va bunda albatta, oldindan rejalashtirilgan hissiyotni namoyon qilib berishi shart, qolganlar esa bu qanday hissiyot ekanini topadi.

Yoshlar bizning kelajagimiz poydevori. Shunday ekan har bir o'sib kelayotgan avlodga befarq bo'lmasligimiz lozim. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilardagi darslardan orqada qolish, tanglik vaziyatlariga tushib qolishlarida:

- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi sog'lom muhitning yo'lga qo'yilmaganligi;
- kun tartibining mavjud emasligi;
- uy sharoitida bolani ta'lim olishi uchun yetarli sharoitning yo'qligi;
- bolaning nazoratsizligi va qarovsizligi;
- pedagoglarning yetarli darajada, bilim, saviya va diplomatik xususiyatlarining yetishmasligi asosiy sabablardan hisoblanadi.

Yuqoridagi trening mashg'ulotlarimiz o'zlashtirishi past va tanglik vaziyati kuza-tilayotgan o'quvchilarga yordam berib, bunday vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A., *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori* – T.: Sharq, 1998 y.
2. Абрамова Г.С. *Возрастная психология. Учеб. пособие для вузов.* – М.: Академический проект. Альма Матер, 2005. – С.698
3. Волков Б.С. *Возрастная психология. В 2-х ч. Учеб. пособие для ВУЗов, спец. ОПД.Ф.01-Психология / Под ред. Б.С.Волкова.* – М.: ВЛАДОС, 2005. – С.343.
4. Грецов А.Г. *Психологические тренинги с подростками.* – СПб.: Питер, 2008. – С. 368.
5. Лидерс А.Г. *Психологический тренинг с подростками: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений.* – М.: Академия, 2003. – С.286.

Tahririyat: *Dars mobaynida o'zlashtirishda muammoga duch kelayotgan o'quvchilar bilan jiddiy ishlash, yordam berish, ularni bu vaziyatdan chiqarib olishda nafaqat pedagoglarning, balki ota-onaning ham o'rni beqiyosdir. Shuningdek, muallif ta'kidlagan har bir vaziyatga alohida e'tibor qaratilsa, ko'zlangan maqsadga albatta erishish samaradorligi ortadi.*

Xafiza AKRAMOVA,
Jizzax Davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

RUHIY NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK TEKSHIRISHGA OID TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada ruhiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni pedagogik-psixologik tekshirish metodlari haqida tavsiyalar berilgan. Shuningdek, bolaning aqliy qobiliyati shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Ruhiy nuqson, sog‘lom avlod, tarbiyalash, kuzatish metodi, tibbiy-psixologik-pedagogik tekshirish.

В данной статье даны рекомендации об использовании методов педагогической и психологической диагностики детей с нарушениями психики. Определены факторы, влияющие на формирование умственных способностей детей.

Ключевые слова. Нарушения психики, здоровое поколение, воспитание, метод наблюдения, медицинская психолого-педагогическая диагностика.

Article gives recommendations on the use of methods of pedagogical and psychological diagnosis of children with mental disorders. Also determined the factors influencing the formation of children's mental abilities.

Key words. Mental disorders, a healthy generation, upbringing, method of observation, medical psycho-pedagogical diagnostics.

Oilada farzand tug‘ilishi – baxt. Bu oilaning yanada mustahkam bo‘lishiga zamin degani. Ammo bolaning aqliy rivojlanishida nuqson kuzatilsa, otanonalar o‘z farzandlarining xulqi hamda aqliy kamolotidagi kamchiliklar sabab tengdoshlaridan orqada qolayotganini ko‘rib, bundan nihoyatda qayg‘uradilar.

Davlatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarga tibbiy hamda ijtimoiy yordam kafolatlangan bo‘lib, respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalar ulardagi nuqson turiga ko‘ra, toifalarga bo‘lingan holda ta‘limga jalb etiladi. Bunda ularning rivojlanish darajasini maxsus tibbiy psixologik-pedagogik tekshirish juda muhimdir.

Go‘dak va ilk yoshdagi bolani psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy maqsadi: bolaning psixik rivojlanish darajasini aniqlash, psixik funksiyalarining shakllanish xususiyatlarini o‘rganish, ruhiy rivojlanishidagi buzilishlar (nuqsonlar) xarakteri va darajasini aniqlashdir.

Psixologik-pedagogik tekshirish vazifalariga quyidagilar kiradi:

– bolaning hissiy va kommunikativ doirasini rivojlanish darajasini aniqlash va tavsiflash;

- sensor va harakat funksiyalarini rivojlanish darajalarini aniqlash va tavsiflash;
- manipulyativ, predmetli va o'yin faoliyatining rivojlanish darajasini aniqlash, tavsiflash;
- aqliy va nutqiy rivojlanish darajasini aniqlash;
- ijtimoiy-maishiy faoliyatning rivojlanish darajasini aniqlash;
- bola va ota-ona munosabatlarining yoshiga moslik darajasini aniqlash;
- bolaning psixik rivojlanish saviyasini aniqlash, potensial imkoniyatlari asosida korreksion ishlarni belgilash;

– ota-onalar va mutaxassislar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Psixologik-pedagogik tekshirishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

- bolaning o'zi va ota-onasi bilan suhbat;
- anamnestik va katamnestik o'rganish;
- kuzatish;
- eksperiment.

Psixologik tekshirish (o'rganish) tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

Bola psixikasini kompleks o'rganish tamoyili, ya'ni turli mutaxassislar tomonidan o'rganish. Bu tamoyil bolani barcha mutaxassislarning (shifokor, defektolog, psixolog, pedagog) tekshiruvidan olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni nazarda tutadi.

Analitiko-sintetik o'rganish tamoyili, ya'ni bolaning faqatgina bilish jarayonlarinigina emas, balki hissiy-irodaviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarining shakllanishiga ta'sir etadigan jismoniy rivojlaniishi ham e'tiborga olinadi.

Sistemali va to'liq o'rganish tamoyili bolaning psixik rivojlanishidagi alohida buzilishlarning namoyon bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va bir-biridan kelib chiqishini, ularning ierarxiyasi, birlamchi va ular asosida kelib chiqadigan ikkilamchi buzilishlarning o'zaro munosabatini nazarda tutadi.

Bolaning psixikasini o'rganishdagi yana bir tamoyil – dinamik o'rganish tamoyilidir. Bu tamoyil bo'yicha, bolani o'rganishda, tekshirish vaqtida u biladigan va bajara oladiganlarni emas, balki ularning ta'limdagi imkoniyatlarini ham e'tiborga olish lozimdir. Dinamik tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarni “Yaqin rivojlanish zonasini”, ta'limda ularning potensial imkoniyatlarini o'rganish haqidagi fikrlari yotadi.

Bola psixikasini obyektiv o'rganish tamoyili, ya'ni tekshirishda bola uchun tabiiy holatni yuzaga keltirish zarur; tekshirish sharoitini va metodlarini tanlashda bolaning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish bolaning psixikasini, ayniqsa, bilish jarayonlarini o'rganishda uning faoliyatini, vazifalarni bajarish uslubini e'tiborga olish tamoyillaridan iborat.

Bolaning onasi bilan suhbat o'tkazayotganda, asosan, quyidagi savollarga javob olish mutaxassisga zarur bo'lgan ma'lumotlar beradi:

– homiladorlikning kechishi, homiladorlik davrida onaning boshidan kechirgan (agar bo'lsa) og'ir yuqumli kasalliklar, og'ir kechgan toksikozlar, intoksikatsiyalar, mexanik jarohatlar, zararli ishlab chiqarishda mehnat faoliyati va h.k.lar;

– tug'ruq jarayoni qanday kechgani, tug'ruq vaqtidagi turli patologik holatlarning mavjudligi;

– chaqaloqlik davrida bolaning rivojlanishidagi og'ishishlar (agar mavjud bo'lsa), ota-onaning shikoyati va xavotirlik sabablari;

– go'dakning boshini ushlashi, emaklashi, o'yinchoqlarni bilishi, ularni o'ynashi, yaqinlarini tanishi, tik tura olishi, qachondan boshlab yurishi, birinchi so'zlari, jumlati nutqining rivojlanishi va boshqalar.

Onaga berilayotgan savollar bolaning rivojlanishini baholashga emas, balki bola hayotidagi aniq dalillarni olishga qaratilishi lozim. Ona bilan suhbat o'tkazish uning bolaga bo'lgan munosabati, onaning bola bilan aloqasi haqida ma'lumot olishga imkon beradi.

Bolani kuzatish bevosita maslahat qabilida, tekshirish vaqtida amalga oshiriladi. Kuzatish vaqtida psixolog bolaning psixik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini xarakterlaydigan ba'zi bir tomonlarni, masalan, yangi sharoitga, notanish odamlarga bo'lgan reaksiyasini, aloqaga kirishish xususiyatlarini, aloqa qilishda verbal vositalardan foydalanishi, atrofga bo'lgan qiziqishining namoyon bo'lishi, onaning bolaga bo'lgan munosabati; hissiy o'zaro ta'sir xarakteri, xulqiy reaksiyalar: gipo va giperfaollik, qo'zg'aluvchanlikning kuchliligi, tez charchash va hokazolarni e'tiborga oladi.

Bolaning psixik rivojlanishining xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish, psixikadagi buzilishlarning darajasi va o'ziga xos tomonlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash zarur. Bu metod ko'p hollarda ta'limiy eksperiment ko'rinishida o'tkaziladi.

Ta'limiy eksperiment metodi bolaning o'rgatilishini aniqlash maqsadida metodning tuzilishiga turli yordam choralari kiritilishini nazarda tutadi. Tekshirish jarayonida quyidagi yordam turlaridan foydalaniladi: harakatni taqlid asosida bajarish, harakatni taqlid asosida imo-ishoradan foydalanib, nutqiy ko'rsatma yordamida bajarish. O'rganish, ya'ni bolaning noadekvat harakatlardan adekvat harakatlarga o'tishi uning saqlangan potensial (ichki) imkoniyatlari mavjudligidan darak beradi.

Psixologik-pedagogik va logopedik tekshirishni tibbiy tekshirishdan so'ng o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki psixik rivojlanishdagi buzilishlarni tashxis qilishda anamnestic ma'lumotlar, statik, nevrologik va psixik holatlar, ko'rish, eshitish funksiyalarining saqlanganligi, shuningdek, harakat buzilishlarining xarakteri va darajasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni tahlil qilish psixolog va logopedga tekshirishda kerakli yo'nalishni, tekshirish metodikalarini to'g'ri tanlashga imkon beradi. Tekshirish metodi va metodikalarini tanlash bolaning yoshi, uning motor, sensor, aqliy imkoniyatlari, nutqning mavjudligi yoki yo'qligiga bog'liq bo'ladi. Ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tekshirish bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar eksperimentator bilan doimo ham oson aloqaga kirishmaydi, topshiriqlarni bajarishga intilmaydi. Bular 8-9 oylikdan 2 yoshgacha bolalarda kuzatiladigan notanish odamlar, notanish vaziyatga nisbatan qo'rquv, uyalishga, tortinishga; ikkinchidan, o'ziga xos qo'rquvlar (oq xalatdan, bolaga tegishdan, o'mini o'zgartirishdan va h.k.), depressiv kayfiyat, o'jarlik, negativizm bilan bog'liqdir. Bola o'jarlik qilganda, charchaganda, toliqqanda tekshirishni to'xtatish zarur. Dastlabki qabulda bolaga uning yoshidan kelib chiqib 3-4 topshiriq taklif etiladi.

Tekshirishni ona yoki ota bilan suhbatdan boshlash lozim. Suhbat vaqtida bolani ota-onasidan ajratmasdan, unga yangi vaziyatga, notanish odamlarga ko'nikishga vaqt beriladi. Bir yoshdagi bolani, shuningdek, harakatlarida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishga ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar, erkalatib gapirish kabi ta'sirlar yordamida jalb etiladi. Yoshi kattaroq bolalar esa, turli topshiriqlarning syujetini bitta umumiy o'yinga o'tkazish orqali tekshirish vaziyatiga kiritiladi. Tekshirishni bolaning mustaqil faoliyatini kuzatib, uning faolligi, o'yin, predmetli harakatlarining turlicha ekanligiga e'tibor berishdan boshlash maqsadga muvofiq. Agarda bola o'yinchoqlarni o'ynamasa, katta odam o'yinchoqlarni bolaga taklif etib, ular bilan harakat usullarini ko'rsatadi. Tekshirishni o'tkazish uchun bir qancha predmetlar va o'yinchoqlar to'plami zarur bo'ladi.

Ekspirimental tekshirish bola uchun qiziqarli bo'lgan sodda, oson topshiriqlar berishdan boshlanadi. So'ngra bolaga bir qator ancha murakkab bo'lgan topshiriqlar beriladi. Ammo bola toliqishining dastlabki ko'rinishidayoq uning diqqatini ancha oson bo'lgan topshiriqqa yo'naltirish yoki dam berish tavsiya etiladi. Bilish faoliyatini tadqiq etishda topshiriqni bajarish usullarini ko'rsatish 3 martadan oshmasligi lozim. Tekshirish vaqtida doimo bolani hissiy qo'llab-quvvatlash, nutq yordamida, imo-ishora, mimi-ka orqali ijobiy baholab borish zarur.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, aqli zaif bolani oilada to'g'ri, korreksion yo'nalishda tarbiyalashni ota-onalarga o'rgatish yordamchi maktablar zimmasidagi vazifalardan biri hisoblanadi. Aqli zaif bola yordamchi maktabda tahsil olar ekan, o'z-o'zidan oila va maktab hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Bu hamkorlik aqliy jihatdan nuqsonli bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini oshirishda qulay imkoniyatdir.

Oilada aqli zaif bolaga nisbatan to'g'ri munosabatni o'rnatish, juda g'amxo'rlik yoki o'ta qattiqqo'llik qilmang; mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish; sog'lom tengdoshlari bilan tez-tez muloqotda bo'lib turishini tashkil eting; oiladagi, atrof-muhitdagi narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish; oilada aqli zaif bola bilan iloji boricha ko'proq muloqotda bo'ling; yuqumli va boshqa kasalliklarga chalinishidan saqlang; aqli zaif bolalar uchun maxsus ta'lim-tarbiya va korreksion tadbirlar qancha erta boshlansa, bolaning amaliy malakalarni egallashi oson kechishini unutmang.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aqli zaif bolasi bor ota-onalarning savodxonligini oshirish mexanizmini ishlab chiqish hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan muammolardan ekan, jamoatchilik tashkilotlari, mahallalar, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus muassasalar o'z tashabbuslarini ko'rsatishlari lozim. Mahallalarda, oilaviy shifoxonalarda ota-onalarga birlamchi korreksion-pedagogik ko'nikmani berishda shifokor, defektolog, psixolog yordamini tashkil etish alohida yordamga muhtoj bolalarni ota-onalarining savodxonligini oshirishda zaruriy va muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* – T.: Sharq, 1998-yil. 26-b.
2. *Hasanova D., Hamraliyeva R. Uyg'unlik: mehr va tarbiya // Nigoh 2012-yil 29-avgust.*
3. *М. К. Акимовой Психологическая диагностика: Учебное пособие. / Под редакцией – СПб.: Питер, 2005. – С. 304.*
4. *Айтжанова Р.К., Ерсарина А.К., Психолого-медико-педагогическое обследование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Алматы, 2000 г.*

Komil NOSIROV,

Oliy harbiy bojxona instituti o'qituvchisi
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA AJDODLARIMIZNING MADANIY MEROSLARINI TA'LIM- TARBIYA JARAYONLARIDA QO'LLASH

Annotatsiya

Maqolada yosh avlod ta'lim tarbiyasida milliy-ma'naviy merosimiz, ajdodlarimizning pand nasihatlari, o'g'itlaridan foydalanish, uni yoshlar ongiga singdirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mutafakkirlarimiz merosidan namunalar keltirib, o'qituvchi-pedagoglar metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Milliy-ma'naviy meros, o'g'it, mutafakkir, ta'lim sifati, mazmun-mohiyat, madaniyat, tarbiya, ko'nikma, odob-axloq.

В статье освещены вопросы использования национально-духовного наследия, заветов и назиданий наших предков в воспитании молодого поколения и внедрения этих идей в сознание молодёжи. Предложены методические рекомендации по использованию примеров из наследия мыслителей.

Ключевые слова. Национально-духовное наследие, наставление, мыслитель, качество образования, содержание-сущность, культура, воспитание, навык, этика.

Article highlights the issues of the use of the national spiritual heritage, covenants and edification of our ancestors in educating the young generation and implementation of these ideas in the minds of young people. Suggested methodical recommendations for exploring examples from the heritage of thinkers.

Key words. National and spiritual heritage, instruction, thinker, quality of education, content-essence, culture, upbringing, skill, ethics.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Lekin mustaqillikka erishgunimizga qadar biz bu meroslarning barchasidan bebahra edik. Istiqlolimiz sharofati bilan milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni o'rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: "Mamlakatimiz istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, ilmiy

ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.”

Bu esa, qadimiy boy ma'rifiy merosimizning qimmatli manbalarni, bebaho xazinamizni yuzaga olib chiqish, uni hozirgi ilmiy-pedagogik tafakkur iste'moliga keltirishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylilik manbayi hisoblanadi”¹.

O'tmishdan qolgan va bizning zamonamizgacha yetib kelgan tarixiy manba hamda obidalar ota-bobolarimizning juda qadim zamonlardan beri shu zaminda yashab, insoniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganliklaridan darak beradi. Ular asrlar davomida o'zlari to'plagan hayotiy tajribalarini turli o'yinlar, kuy va qo'shiqlar, bayram va marosimlar, maqol va nasihatlar, ertak va rivoyatlar, afsona va dostonlar, noma va bitiklar vositasida kelajak avlodlarga, ya'ni bizga meros qoldirishgan. Bu ma'naviy boyliklar ajdodlarimiz madaniyatining qanchalik yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. “Tarixiy-madaniy meros to'g'risida gap ketganida vorisilik tamoyilini, uning milliy o'zlikni anglashdagi o'rnini alohida ta'kiylash lozim”².

Qadimdan xalqimiz yosh avlodni jasur, botir va barkamol inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelgan. Ma'naviy merosimiz namunalaridan bo'lmish “Oltin beshik”, “Olmos botir”, “Dono qiz” kabi ertaklar va “Alpomish”, “Rustamxon”, “Murodxon”, “Oysuluv”, “Shirin va Shakar”, “Kuntug'mish” singari dostonlar so'zimizning yorqin dalilidir.³

“O'g'uznoma”, “Kultegin bitiklari”, “Tunyo'quq bitigi”, “Bilga xoqon bitigi” singari toshlarga o'yib yozilgan tarixiy-badiiy asarlar o'sha davrda yashagan ajdodlarimiz tafakkurini, orzu-armonlarini, ma'naviy-ma'rifiy kamolotini aks ettirgan. Bu bitiktoshlarda Vatan va millat, mustaqil davlatchilik, el-yurt tinchligi va obodligi, xalqning birdamligi, davlat ishlarini adolatli yuritish va yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi masalalari keng yoritilgan.

O'z davrining qonuni va mafkurasi bo'lgan “Avesto” kitobi insoniyat tarixidagi eng qadimiy ma'naviy manbalardan biri hisoblanadi. Uning mazmunida aks etgan – “Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal” tamoyili milliy ma'naviyatimizning asosini tashkil qiladi.

Go'zal xulq-atvor, insonparvarlik, sabr-qanoat, ilmu hunar o'rganishga ishtiyoq, mehnatsevarlik, donishmandlik, ozodlik, do'stlik, rostgo'ylik, mardlik, o'z burchiga sadoqat va Vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlar qadimdan xalqimiz orasida juda ulug'langan. Farzand tarbiyasida aynan shu fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun ham ajdodlarimiz orasidan juda ko'p jasur sarkardalar, olimu fozil, donishmandu mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Komil inson g'oyasi Sharq falsafasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Zero, bu g'oya ma'naviyat va sharqona odob bilan uzviy bog'liq. Yuksak ma'naviyat sohibi

¹ Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. –T.: Muharrir, 2008, 47-bet.

² Qo'chqorov V. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. –T.: Akademiya, 2008. 18-bet.

³ Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. –T., 2008.

va ma'naviy jasorat timsoli bo'lish imkoniyati har birimizda mavjud. Ma'naviyat inson qalbida aks etadi. U shunchaki insoniy xislatlar emas, balki ijobiy fazilatlar yig'indisidir.

“Ma'naviyat – bu insonning qalbi va ongidagi tuyg'u va tushunchalar, uning dunyoqarashi va e'tiqodi, o'z xalqi va Vataniga muhabbati, o'zining kimligi, qanday buyuk insonlarning avlodi ekanini chuqur anglagan holda, har qanday sharoitda ham ularning sha'nu shavkatiga munosib bo'lib yashashi demakdir. Ma'naviyat – ezgulikni himoya qilib yashash demakdir. Binobarin, yoshlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash – ularni ezgulik ruhida tarbiyalash demakdir”.⁴

Ma'naviyat – axloq-odob, aql-zakovat va iymon-e'tiqod bilan chambarchas bog'liq. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda inson ma'naviyati, ayniqsa, uning axloqi masalasi ham diniy, ham dunyoviy jihatdan uyg'un ravishda olimlar tomonidan o'rganilgan va yosh avlodga o'rgatilgan. Bu o'rta asrlarda yashab ijod qilgan va keyingi davr qomusiy olimlari ularni o'zlariga ustoz deb bilgan ikki buyuk siymo – Abu Abdulloh Muhammad Ismoil Buxoriy va Abu Nasr Forobiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.


Imom Buxoriy inson kamolotida odobning o'rni beqiyos ekanini alohida qayd etgan. U “Al-Adab al-Mufrad” (Odob durdonalari) nomli kitobida inson o'z odobi bilan go'zal ekanini ta'kidlaydi. Chunki odob – inson ma'naviyatini go'zal qiluvchi, uning qadr-qimmatini yuqori ko'taruvchi omil. Odobli – xalq ichida e'zozli, deb bejiz aytilmagan.

Alloma halollik, poklik, ota-onaga hurmat, yaxshilik, birodarlik, do'stlik, vafodorlik, rostgo'ylik, hayo, muloyimlik, mehribonlik, sahovat, ilmlilik, sabr-qanoat, muruvvat, ezgulik, adolatlilik, rahmdillik, hamjihatlilik, g'amxo'rlik, kechirimlilik va beozorlik kabi fazilatlar insonni ulug'lashini ta'kidlaydi. Haqorat qilish, hasad, manmanlik, haromxo'rlik, ikkiyuzlamachilik, behayolik, tajovuzkorlik, isrofgarchilik, buzg'unchilik, jaholat, yolg'onchilik, g'iybat, buzuqlik, nohaqlik, adolatsizlik, xiyonat, tuhmat, ota-onaga itoatsizlik, qotillik va iymonsizlik kabilarning gunoh ekanini qayd etgan holda Imom Buxoriy insonlarni ogohlikka chaqirib, bu illatlar odamzod boshiga katta kulfatlar keltirishini bayon qiladi. “Kimki zarracha bo'lsa ham yaxshilik qilsa, ajru savob olgay, kimki zarra bo'lsa ham yomonlik qilsa, azobga qolgay”, degan fikrlar Imom Buxoriy asarlarida aks etgan axloqiy me'yor va tamoyillarning asosidir.

Dunyoga “Ikkinchi muallim” sifatida tanilgan bobomiz Abu Nasr Forobiy fanga “Inson baxti” mavzusini olib kirib, uni ilmiy asoslashga harakat qilgan. Alloma o'zining “Baxt-saodatga erishish haqidagi risola” nomli asarida oliy baxt bu kamolotning eng yuqori darajasi ekanini, axloqiy fazilat aqliy kamolot bilan nazariy va falsafiy haqiqatni bog'lagan holda anglash orqali erishilishini tushuntiradi, ya'ni inson baxtga hirs bilan emas, balki aql bilan ega bo'la olishini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy asarlarida inson axloqi masalasi birinchi o'rinda turadi. Shu sababli u fozil insonlar shahrini barpo etish orzusi bilan yashagan. Olimning fikricha, inson axloqiga 3 ta omil ta'sir ko'rsatadi:

⁴ Shodiyev G'. Ma'naviyat va yoshlar. –T., 2008. 8-bet.



Bu o'rinda, inson yashayotgan hudud, iqlim, osmon jismlarining Yer sharidan uzoq yoki yaqin joylashuvi va ularning inson salomatligiga ta'siri, mast qiluvchi mahsulotlarning insonga zarari hamda insonni o'rab turgan ijtimoiy muhit nazarda tutilgan.

Abu Nasr Forobiy ta'limotida ilgari surilgan axloqiy barkamollik talablari quyidagilar: salomatlik, nozik farosat, yaxshi xotira, zukkolik, shirinsuxanlik, ilmga chanqoqlik, nafsni tiya olish, haqiqatparvarlik, olijanoblik, kamtarlik, adolatparvarlik, qat'iyatlilik.

Ushbu fazilatlar qatorida alloma rahbar xodimlarda yana: donishmandlik, jasurlik, ijodkorlik, oldindan ko'ra bilish, notiqlik, har sohada mohirlik kabi sifatning bo'lishi shartligini alohida ta'kidlagan.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, axloqiy barkamollikka zid bo'lgan illatlar quyidagilar: beqarorlik, obro'parastlik, zalolat, johillik, shuhratparastlik, razolat, benomuslik va amalparastlik.

Alloma insonlarni asliga qarab, yaxshi va yomonga ajratmagan, balki ayrim insonlar salbiy xatti-harakatlarga moyillik bilan dunyoga kelishini o'z asarlarida qayd etgan hamda ustoz-murabbiylarning asosiy vazifasi – yoshlar xulqidagi kamchiliklarni yaxshi fazilatlar bilan almashtirish va tug'ma salbiy moyilliklarini rivojlanishiga yo'l bermaslikdan iborat, deb hisoblagan.

Imom Buxoriy va Abu Nasr Forobiyning inson axloqi va ta'lim-tarbiya borasidagi ta'limotlari keyingi davr mutafakkirlari uchun namuna bo'lib xizmat qildi. O'z navbatida ular ham mazkur yo'nalishda yangi fikrlarni yozib, yosh avlodga meros qoldirishgan. Jumladan, Abu Rayxon Beruniy: "Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzalroq", "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiros, g'am-g'ussa bo'lmaydi"; "Odamgarchilik, ya'ni muruvvat kishining o'zi, urug'-aymog'i va o'z ahvoriga ta'sir etishi bilan chegaralanadi. Mardlik – futuvvat esa undan ham ustun turib, o'zidan tashqariga ham o'tadi", "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi"; Mahmud Zamaxshariy: "O'z va'dasida turmaganda turli-tuman vaj-korsonlar ko'rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo'lolmaydi", "Pora nohaqligi uchun zolimlarga beriladigan yordamdir", "Ko'pincha til bilan yetkazilgan jarohat qilich bilan yetkazilgan jarohatdan og'irroqdir", "Go'zal sifat va husni xulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko'rkam qilolmas, gunoh va xatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig' bo'lmas"; Najmiddin Kubro esa: "Husni xulqdan ko'ra yaxshilik ustiga yaxshilik qo'shadigan, hasaddan ko'ra yomonlik ustiga yomonlik qo'shadigan narsa ko'rmadim", deb ta'kidlaganlar.

Inson axloq, ilmi va odobi masalasi xalqimizning ma'rifatparvar farzandlarining ham doimiy e'tiborida bo'lgan. Bu borada, Munavvarqori Abdurashidxonov: "Insonlarga ezgulik istovchi kishi ularning eng yaxshisidir. Yaxshi muomalani do'st va dushmaniga barobar qilmoq lozimdir. Chunki yaxshi so'z do'stlarning do'stliklarini orttirur, dushmanlikni do'stlikka aylantirur"; Abdulla Avloniy: "Manmanlik – johilona kibru g'ururdan paydo bo'ladigan eng yomon xulqlarning biridurki, kishini har yerda ma'yus va mahjub qilur"; Mahmudxo'ja Behbudiy: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bevtan va bandi qilgan tarbiyasizlik hamda jaholatdur. Bevtanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zururat hamda xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir..." degan fikrlari hozir ham qimmatlidir.

Buyuk bobokalonlarimiz merosiga oid yuqorida sanab o'tilgan qimmatli fikrlar barchasi milliy ma'naviyatimiz dengizidan bir tomchi xolos. Uni yanada ko'proq o'rganish va yangiliklarini kashf etish bugunning hamda kelajakning vazifasidir.

Ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy merosi xalqimiz uchun odob gulshani va ma'naviyat mash'ali bo'lib xizmat qiladi. Ulardan saboq olgan holda hozirgi davr yoshlar ta'limi va tarbiyasi uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Tug'ulajak farzandlarning salomatligiga e'tibor qaratish. Yigit va qizlarning sog'lom turmush tarziga amal qilishi, tamaki, spirtli hamda giyohvand moddalardan o'zini tiyishlik, shuningdek, sport bilan shug'ullanish oilalarning mustahkamligini ta'minlaydi.

2. Farzandlarning bolaligidan tozalikka, halolikka, odobga, ilm va kasb-hunarga o'rgatib borish. Mashhur tasavvuf olimi Imom G'azzoliy shunday degan: "Kishi tashqi nopokliklardan saqlanish bilan birga ichini ham pok tutishi lozim". Halollik bu jamiyatda o'rnatilgan qonunlarga rioya etish, ya'ni man etilgan narsa va amallardan saqlanishlik hamda vijdonli bo'lish demak.

3. Yoshlarda insonparvarlik hissini rivojlantirish. Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, "Odamlarni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari sababli ular o'zaro tinch-totuv yashamoqliklari lozim". Insoniylikning asosini mehr-shafqat tashkil etadi. Insonparvarlik esa – insonni qadrlash, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijobiy qobiliyatlarini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishda namoyon bo'ladi. Insonparvarlik – o'zbek xalqi ruhiyatining, ma'naviyatining ajralmas qismi sanaladi. Tarbiyada aniqlik zarur. Agar biz tarbiyalanuvchining qalbini poklay olsak, unga insonni sevish, hurmat qilish, e'zozlashga o'rgatsak, shubhasiz, biz jamiyatning sog'lom ma'naviy qiyofasini yaratgan bo'lamiz.

4. Yoshlarda burch va mas'uliyat hissini rivojlantirish. Insonning o'z vazifalariga sidqidildan yondashib, ularni vijdonan amalga oshirishga odatlantirish lozim. Masalan, yoshlarning oilada – munosib farzand, o'quv muassasalarida – namunali o'quvchi-talaba, mehnat jarayonida – yetuk mutaxassis, oila qurganda esa mehribon ota-ona bo'lishga o'rgatib borish.

5. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash. Vatanparvarlik – insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joyi, zamini, o'lkasiga bo'lgan muhabbatini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari va fazilatlarini ekanini, vatanparvarlikning asosiy belgisi fidoyilik, oliy ko'rinishi esa, jasorat hisoblanishini, vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liqligini yosh avlodga tushuntirish zarur.

6. Ma'naviy qiyofasi sirtida emas, balki qalbida bo'lgan insonlargina ma'naviy jasorat timsoli bo'la oladilar. Ma'naviyati yuksak xalq yashayotgan jamiyat yoki davlat har jihatdan kuchli bo'ladi. Demak, mustaqil O'zbekistonning har bir fidoyi ustoz-murabbiysi yoshlar kamolotiga katta e'tibor qaratib, Vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shishi zarur.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ajdodlarimiz tomonidan qolgan asarlarning deyarli barchasida shunday satrlar bor:

“Qalam aytadi men olamning shohidurman,
Qalamkashni maqsadiga yetkazurman”.

Shunday ekan, ulardan qolgan madaniy meros yoshlarni ma'naviy barkamollikka erishib, komil inson bo'lishda, vatanparvarlik ruhida tarbiya topib voyaga yetishlarida o'rni beqiyosdir. Zero, ajdodlar merosiga munosib voris bo'lib, ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hissa qo'shish har birimizning davomli vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov A. *Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar*. – T.: Muharrir, 2008. 47-bet.
2. Qo'chqorov V. *Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash*. – T.: Akademiya, 2008. 18-bet.
3. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. *O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi*. – T., 2008.
4. Shodiyev G'. *Ma'naviyat va yoshlar*. – T., 2008. 8-bet.
5. *Sharq donishmandlari hikmatlari / Tuzuvchi Ahmad Tursun*. – T.: Sharq, 2006.
6. Haydarov A. *Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar*. – T.: Muharrir, 2008. 5-bet.

Tahririyat: *Barcha sohalar kabi bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida ham yangilanishlar jarayoni kechmoqda. Tabiiyki, bu jarayonda ta'lim tizimining barcha mutaxassis-pedagoglari xorijiy tajribani o'rganib o'zlashtirish, yangi, zamonaviy metodlardan foydalanishga ehtiyoj sezadi.*

Muallif mana shunday vaziyatda turli tashqi manbalardan to'g'ridan-to'g'ri, uning tub, asl mohiyatini tushunmay turib foydalanmasdan, balki asrlar silsilasida sinalgan ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy me'rosi, pand-nasihatlari, o'gitlarini, ularning ta'lim-tarbiya bobidagi qarashlarini o'rganib, so'ng zamonaviy va milliy metodlar orqali uyg'unlashtirilsa, ta'lim sifati yanada oshishiga ishonch bildirgan.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar sizning zehningizda ham yangicha qarashlar, fikr-mushohadalarga yo'l ochsa, bahs-munozaraga chorlasa, ajab emas, aziz mush-tariy.

Muzayamxon FARMONOVA,

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi katta ilmiy xodimi

FARZAND TARBIYASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada qadriyat tushunchasi, uning farzand tarbiyasidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif milliy qadriyatlar negizida aks etuvchi axloqiy tarbiya fazilatlarining mohiyatini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Ta'lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, ma'naviy axloq, milliy madaniyat, G'arb madaniyati, farzand tarbiyasi, ijtimoiy muhit.

В статье раскрыто значение понятий национальных ценностей и их значение в воспитании молодого поколения. На основе национальных ценностей освещена сущность нравственного воспитания детей.

Ключевые слова. Образование, воспитание, национальные ценности, нравственное воспитание, национальная культура, западная культура, воспитания ребенка, социальная сфера.

Article reveals the meaning of the concepts of national values and their significance in the upbringing of the young generation. Highlighted the essence of moral upbringing of children on the basis of national values.

Key words. Education, upbringing, national values, moral education, national culture, Western culture, child upbringing, social sphere.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar yosh avlodni ham ruhan, ham jismonan, bir so'z bilan aytganda, komil inson g'oyasi asosida kamol toptirishda samarali omil vazifasini o'tamoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan ma'ruzasida yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz", deya ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat har bir xalqning milliy qadriyatlarini – uning tarixi, ma'naviyati, madaniyati, o'ziga xos urf-odatlarini, an'analarisiz tasavvur qilish qiyin. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng qadriyatlarga e'tibor yanada kuchaydi. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros tarzida saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonlarda

shakllangan. Ular ona yurtga ehtirom, Vatanga muhabbat, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, muruvvat, sabr-qanoat, shukronalik, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Bir guruh olimlar “Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot” nomli ilmiy ishlar to‘plamida “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne‘matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”¹ligini qayd etganlar. Tarbiya ensiklopediyasida esa “Qadriyat – voqeelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”², degan ta‘rif berilgan. Bu esa, o‘z o‘rnida qadriyatlarining ilmiyligini va serqirra, o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakllaridir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma‘naviyati madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlarni faqat moddiy va ma‘naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Ma‘lumki, qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Biroq shunday bo‘lsa-da, qadriyatlarining eng oliysi insonning o‘zi, uning hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash – jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.³ Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashirish, ijtimoiy va ma‘naviy taraqqiyotga ta‘sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi”.⁴

Milliy qadriyatlarining asosi bo‘lgan ma‘naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatligi, oliyanoblighi, va‘dasiga vafodorligi, hayolligi, bilim olishi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari ijobiy fazilatlar tushuniladi. Qadimdan ota-bobolarimiz ilm-hunar o‘rgatish bilan birga farzandlarimiz qalbi va ongiga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy ma‘naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. Ular ilm va hunar o‘rganishga chanqoq, ota-ona, bobo-buvilar, oila, mahalla, farzand oldidagi burchini idrok eta oladigan, katta-kichik, qo‘ni-qo‘shni oldida o‘zini tuta oladigan madaniyatli, yaxshi xulq-atvorli farzandlar tarbiyalaganlar.

Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni milliy, ma‘naviy, axloqiy qadriyatlar asosida ozuqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, ularni o‘z bilim va fikrlarini erkin bayon etishga, tashabbuskor bo‘lishlariga chorlashlari, so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me‘yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid, hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta‘kidlash joizki, o‘zbek xalqining eng go‘zal va o‘lmas qadriyatlaridan biri bu farzand tarbiyasidir. Ammo bugungi kunda ota-onalar bolalariga yetarlicha vaqt ajratmayotganliklari kuzatilmoqda. Oila-

¹ Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T.: O‘zbekiston, 1997.198-b.

² Tarbiya ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 509-b.

³ To‘lanov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘zbekiston, 1998. 333-b.

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. 177-178-b.

da farzandlarning ota-onaga qilgan murojaatida ota-ona “hozir vaqtim yo‘q”, “shoshib turibman”, “halaqit berma” kabi farzandini qoniqtirmaydigan javoblarni beradilar. Bunday munosabat bolaga salbiy ta‘sir ko‘rsatibgina qolmay, undagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so‘ndiradi, uning oila a‘zolari bilan fikr almashish, fikr olish, maslahatlashishdan voz kechishiga, xattoki vaqti kelib o‘z ota-onasidan uzoqlashishiga olib keladi. Shuningdek, ota-ona va farzandlar o‘rtasida ishonch ko‘prigining yo‘qolishiga, bolalarning mehrga to‘ymasdan xudbin bo‘lib o‘sishiga olib keladi.

Alloma Abdurauf Fitrat, biz “Tarbiya maydonida farzandlar taqdiri uchun mas‘ul ekanimizni, tarbiyada ta‘tilga, loqaydlikka o‘rin yo‘qligini anglash zarur” deydi. Alloma fikriga javoban, ota-onalar bugungi texnika taraqqiyoti va tahdidi davrida farzand tarbiyasiga har qachongidan ham ko‘proq mas‘uliyatli bo‘lishlari, ularning nimaga qiziqayotganligi, qanday bolalar bilan do‘stlashayotganligi, dunyoqarashi, iqtidori, xulq-atvori ustida ish olib borishi zarurligini ko‘rishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Biz ta‘lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”, – degan fikrlari barchamizni ogohlikka chorlaydi.

Bolaning tarbiyasi, odobi-axloqi, ma‘naviy dunyoqarashi uning oilasida, mahallasida, ta‘lim muassasasida bo‘layotgan voqea va hodisalarga qanday munosabatda bo‘lishiga (befarq, yoki jonkuyar) bog‘liq. Bunday munosabatni bolada shakllantirishda faqatgina ota-onaga yoxud oilaga bog‘liq deyish noto‘g‘ri. Albatta, farzandimizning atrofga bo‘lgan munosabati ijobiy yoki salbiy bo‘lishi, uning milliy qadriyatlar asosida tarbiya topishi yoki aksincha bo‘lishi, eng avvalo, uni o‘rab turgan ijtimoiy muhitga bog‘liq. Ijtimoiy muhit deganda – bu oila, oiladagi yaqinlar, qarindosh-urug‘, mahalla- ko‘y, ta‘lim muassasalari, OAV, internet kabi vositalar ta‘sirilarini nazarda tutushimiz mumkin.

Mantiqan o‘ylab qaraganimizda bugun faqat oilada farzand uchun zarur bo‘lgan bilimlarni to‘laqonli berishni imkoniyati yo‘q. Ular uchun zarur bo‘lgan bilimlar oila tashqarisidagi muhitda berilmoqda. Bu esa, farzand bilan ota-ona o‘rtasidagi munosabatda qandaydir uzilishni, uzoqlashishni, ayrim hollarda turli xavotirli vaziyatlarini yuzaga kelishiga olib kelayapti. Demak, ota-ona, imkon qadar farzandi oiladan tashqari muhitda qaysi yo‘nalish bo‘lishidan qat‘i nazar (ta‘lim muassasasi bo‘ladimi, xususiy qo‘shimcha ta‘lim yoki qiziqishga yo‘naltirilgan to‘garaklari va boshqalar) o‘sha yo‘nalish bilan aloqa ko‘prigini o‘rnatishi zarur. Buning uchun ota-ona, avvalo, bolasining qiziqishiga ko‘ra moslashib, shu yo‘nalishni o‘rganib, tushunishga va farzand bilan aloqaning keskin uzilmasligiga harakat qilishi lozim.

Ma‘naviy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma‘noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulq-odobi, insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lsa, tor ma‘noda insonlarning falsafiy, diniy, siyosiy-axloqiy, xuquqiy dunyoqarashlarida namoyon bo‘ladi. Millatimizga xos bo‘lgan axloqiy qadriyatlardan andisha, sabr-qanoat, vazminlik, mulozamat, mehmondo‘stlik, mehribonlik, jonkuyarlik, keksalarga hurmat-izzat, ijtimoiy hayotda bosiqlik qon-tomirimizga singib ketgan. Shuning uchun ham xalqimiz ma‘naviy axloqiy qadriyatlar, xususan, axloq-odobga bag‘ishlangan maxsus ta‘limotlarning merosxo‘ridir. Jumladan, alloma Husayin Voiz Koshifiyning “Futuvatnomai sultoniyy”, “Axloqi muhsiniyy” asarida, “Futuvvat eldan yashirin biror ish qilmaslik, hamma odamlar bilan xushfe‘llikda yashashdir. Chunki odamlarning mehru

muhabbatini ezgu xulq bilan qozonish mumkin”, deydi.⁵ Bundan ko'rinadiki, avlodlarimiz insondagi ma'naviy axloqiy fazilatlarni qadrlab kelganlar. Bugun ham oilada ota-ona va yaqinlari tomonidan go'zal tarbiya olgan, axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan bolalar mahalla-ko'y va el-yurt ichida hurmat bilan qadrlanadi.

B. Ziyomhammadov ta'rifi ko'ra,⁶ – “Kishini qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yo aniq bir millat, yoxud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat hisoblanadi va ular uchga bo'linadi:

1. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, umumbashariy abadiy qadriyatlardir.

2. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, urf-odat va an'analari, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir.

3. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog'liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir.⁷

Bo'ri Ziyomhammadov o'zining “Komillikka eltuvchi kitob”ida, – milliy diniy qadriyatlarining mezoni sanalgan saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr-toqat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor bergan⁸. U keltirilgan iymon mezonlari diniy qadriyatning asosi bo'lib, insonlarni yaxshilikka, mehr-muruvvatlikka, atrofdagilarga befarq bo'lmaslikka, oila, mahalla va yurtiga sadoqatli bo'lishga undaydi.

Sharqona qadriyatlarimizda mehr-oqibatlilik, halollik, poklik, adolat, vatanni, elni e'zozlash, mehnatsevarlik, kamtarlik, to'g'rilik, xushyorlik, tadbirkorlik, sadoqatlik, xayr-ehsonlik, mehmondo'stlik, qadr-qimmat, vafo, sharm-hayo, g'urur, fahm-farosat kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Ota-bobolarimiz farzand tarbiyalaganlarida ularga – hech vaqt badxulq, ko'ngli egri, nafsi yomon, ko'zi och, tili zahar, betgachopar, qahri qattiq, niyati buzuq bo'lmang. Aksincha, qalbi pok, mehri daryo, niyati xolis, ishi halol, do'stlikka sodiq, sharm-hayoli, shafqat va marhamatli bo'ling deb uqtirganlar. Yigitlarda vatanparvarlik, shijoatkorlik, qahramonlik, sadoqat, vafo va mardlikni tarbiyalab borganlar. Zero, mardlik – bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mard bo'lgan kishida haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon, adolat, diyonat, insof kabi sifatlarni uchratish mumkin.

Farzand tarbiyasida mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar bilan ham hamjihatlikda yondashish lozim. Jumladan, xalqda “Yon qo'shni – jon qo'shni”, “Qo'shning tinch – sen tinch”, “Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona” degan maqollar bejiz aytilmagan. Mahalla ham farzand tarbiyalanayotgan oilalardan boxabar bo'lishi, qanday oila ekanligidan kelib chiqib, ularni turli tarbiyaviy tadbirlarga jalb qilishi, bolalarni faol bo'lishlariga erishishlari, ularni rag'batlantirishlari, ayrim, o'z qobig'iga o'ralashib qolgan oilalarga, ularning bolalariga maxsus psixolog, pedagog va ijtimoiy xodimlarni jalb qilishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasalari ta'lim berish bilan bir qatorda, bolalarni ta'lim jarayonidagi xatti-harakatlariga, bilimlarni o'zlashtirishiga, umuman, ularda yuz berayotgan har bir

⁵ Koshifiy . Axloqi Muhsiniy. – T.: O'zME, 2011. 16-17-b.

⁶ Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: TURON-IQBOL, 2006. 73-b.

⁷ Tarbiya ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 509-510-b.

⁸ Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: TURON-IQBOL, 2006. 191-b.

o'zgarishlarni yozib borishi, maktab psixologini boxabar qilishi, ota-onasi bilan aloqa ko'prigini o'rnatishi juda muhimdir. Chunki bugun bolaning xulq atvorini ota-onasidan ham ko'proq o'qituvchi bilish hollari kuzatilmoqda.

Bugungi kunda farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga, milliy mentalitetimizga xos bo'lgan mehr-oqibatli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar, o'z yurti, mahallasi tarixidan g'ururlanadigan farzandlarni tarbiyalashimiz juda muhim. O'zbekistonda istiqomat qiladigan va o'z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog'lagan har bir kishining "Vatanim menga nima berdi?" deb emas, balki "Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman?" degan mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashi demakdir.⁹

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarga milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, ona yurtimizga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otishda ularga ibratli voqealar, hikmatli maqollar so'zlab berishga, tinglashga va o'z fikr mulohazalarini bildirishga ko'proq undash kerak. Masalan, har kuni dars jarayonidan avval besh daqiqa "Qadriyat daqiqasi" an'ana sifatida tashkil etilsa, yaxshi natija beradi. Bunda o'qituvchi dars boshida bit-ta maqol aytadi, masalan: "Oltin olma duo ol" va ushbu maqolning ma'nosini o'quvchilardan so'raydi, eng so'ngida o'qituvchi o'zining fikrini bildiradi hamda ularga uyga vazifasi qilib mazkur mavzuga tegishli yana qanday maqollar borligini o'ylab kelishligini aytadi.

Albatta, o'quvchilarga berilayotgan bunday topshiriqlarning barchasi farzandlarimizning intellektual rivojlanishiga, ular milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda dasturulamal vazifasini bajaradi.

Darhaqiqat, xalqimiz umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini to'ldiradi. Jumladan,

- xalqimizning hayotda jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi;
- xalq ongida ustuvor bo'lgan fikr – qo'ni-qo'shnichilik, tinchlik va totuvlikda, hamkorlikda yashash;
- oila, mahalla, Vatan tushunchalarini muqaddas bilish;
- ota-ona, mahalla faollariga, yoshi ulug' keksalarga hurmat-e'tiborli munosabatda bo'lish;
- millatning o'lmas ruhi, hayotbaxsh manbai sifatida ona tiliga muhabbat ruhining ustuvorligi;
- kattalarga ehtiram, kichiklarga izzat, hurmat degan e'tiqodga amal qilish;
- ayol zotini, ya'ni muhabbat, go'zallik va nafosat ramzi bo'lgan onani qadrlash;
- sabr-toqat va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat.¹⁰

Bir qator olimlar tomonidan yozilgan "Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari" nomli kitobda esa bugungi O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanishi quyidagicha yoritilgan:

1. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
2. Xalqimizni ma'naviy mustahkamlash va rivojlantirish.
3. Insonni o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilish.

⁹ Milliy istiqloq g'oyasi: ko'rgazmali vositalar. – T.: Ma'naviyat, 2001. 12-b.

¹⁰ Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. №2-son. 2006. 13-b.

4. Vatanparvarlik, insonparvarlik, tolerantlik.¹¹

Bundan ko'rinadiki, aynan milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyaviy ishlarni bolalar o'rtasida olib borishda ko'proq qanday yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarurligi va targ'ibot ishlarida mahalla, oila, jamoat, ta'lim-tarbiya muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to'plami)*. – T.: O'zbekiston, 1997. 198-b.
2. *Komilov T., Abidova S. Milliy axloqiy qadriyatlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati*. O'zR FA, *Fan*, 2000.20-b.
3. *Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar*. – T.: O'zbekiston, 1997. 48-b.
4. *Tarbiya ensiklopediyasi*. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 509-b.
5. *To'lanov J. Qadriyatlar falsafasi*. – T.: O'zbekiston, 1998. 333-b.
6. *Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – T.: *Ma'naviyat*, 2008. 177-178-b.
7. *Koshifiy. Axloqi Muhsiniy*. – T.: O'zME, 2011. 16-17-b.
8. *Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob*. – T.: *TURON-IQBOL nashriyoti*, 2006. 73-b.
9. *Tarbiya ensiklopediyasi*. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. 509-510-b.
10. *Milliy istiqlol g'oyasi: ko'rgazmali vositalar*. – T.: *Ma'naviyat*, 2001.12-b.
11. *Jalolov H. Oila, mahalla va maktab hamkorligi. Tarbiya. №2-son*. 2006. 13-b.

Tahririyat: *Bugungi kunda o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularning ongiga ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish olg'a surilayotgan masalalarning biridir. Shu bois farzand tarbiyasini milliy qadriyatlarimiz asosida olib borsak, targ'ibot-tashviqot ishlarida esa mahalla oila jamoat, ta'lim-tarbiya muassasalari bilan hamkorlikda ish olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, xalqimizda "Odobli bola elga manzur" maqoli bejiz aytilmagan.*

¹¹ Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2009. 12-b.

Nabijon TEMIROV,

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti
Farg'ona hududiy bo'linmasi "Xalq bilan muloqotni rivojlantirish"
sho'basini mudiri p.f.d.prof.

Yusufjon YUSUPOV,

Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti
Farg'ona hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI INFORMATSION TAHDIDLARDAN HIMOYALASH: TAHLIL, NATIJA VA YECHIM

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlarning zamonaviy turlari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, yoshlarning axborot xurujlari ta'siriga tushib qolish holatlari haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif, tarbiya va milliy qadriyatlarga axborotlar xurujining salbiy ta'sirini tahlil qilib bergan.

Kalit so'zlar. Axborot, xuruj, huquq, diniy bag'rikenglik, psixologik qurol, mafkura, immunitet, mahalla instituti, strategiya, harakat dasturi.

В статье охарактеризованы современные виды информации, раскрыто их значение в влияние на молодежь информационных угроз. Автором представлен анализ отрицательного воздействия информации на воспитание и национальные ценности молодежи.

Ключевые слова. Информация, угроза, право, религиозная толерантность, суверенитет, психологическое оружие, идеология, иммунитет, институт махалли, стратегия, программа действий.

Article describes modern types of information, reveals their importance in influencing young people's information threats. The author presents an analysis of the negative impact of information on the upbringing and national values of young people.

Key words. Information, threat, rights, tolerance, sovereignty, psychological weapons, ideology, immunity, institute of makhallas, strategy, program of actions.

Ma'lumki, fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklari ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Insoniyat tarixida xurujlarning turlari ortib borishi sababli kundan-kunga tinchlik, osoyishtalikni saqlash o'ta muhim vazifaga aylanib bormoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach asosiy strategik vazifalar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashga yo'naltirilmoqda va maqsadli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun yurtimizning barcha fuqarolari mas'uldir. Tinchlik zaminida yashayotgan har bir fuqaro buni chuqur anglashi va ularning qadriga yetishi kerak. Jahondagi rivojlangan bir qancha mamlakatlarda fuqarolar har kuni qo'rquv va tashvishda yashamoqda. Buning asosiy sababi jamiyatdagi siyosiy kelishmovchiliklar, iqtisodiy tangliklar va millatlararo totuvlikning yo'qligidir.

Hech kimga sir emas, bugun texnika-texnologiyalar, Internet, tez suratlarda axborotlar almashinuvi tizimi butun jahon taraqqiyoti sivilizatsiyasining ajralmas quvvat manbaiga aylandi. Mustaqil diyorda yashayotgan yoshlarni har tomonlama bilimli, yuqori kasbiy mahoratga ega, bir nechta chet tillarini mukammal o'zlashtirgan, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalash borasida ta'limning barcha bosqichlariga eng zamonaviy axborot texnologiyalari tatbiq etildi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining yetuk mutaxassislarini tayyorlovchi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari barpo etildi, internetdan samarali foydalanish mexanizmlari yaratildi. Buning barobarida Internet barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yil ichida internetdan foydalanuvchilar soni o'n baravarga oshdi. Xususan, 2007-yilda Internet foydalanuvchilarining soni bir millionni tashkil etgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich o'n uch milliondan oshdi. Bu esa, mamlakatimiz aholisining 40 foizini tashkil etib, ushbu Internet auditoriyasining katta qismi yoshlardan iborat ekanligi ayni haqiqat.

Albatta, axborot texnologiyalari insoniyat olamida katta imkoniyatlarni yaratish bilan birga, kuchli mafkuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Barchamizga ma'lum, uy ro'zg'orida foydalaniladigan oddiygina pichoq oshpaz qo'lida mehnat quroli bo'lsa, qotil qo'lida o'lim quroliga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “Bugungi zamon-da mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega” deb, kelgusida bu xavf bundan ham kuchayishi mumkinligini va unga qarshi tizimli kurash olib borish kerakligini ta'kidlab, doimo ogohlikka chaqirganlar.

Shu kunda olimlarimiz axborot izlovchilarning 3 toifasini belgilab beradi:

- muhim ma'lumotga, axborotlarga ega bo'lish – hokimiyatga ega bo'lishdir;
- olingan axborotlarni kerakligini keraksizidan ajratish – yanada ko'proq hokimiyatga ega bo'lish;
- kerakli axborotlarni o'z rejissurasiga asoslanib tarqatish yoki ushlab turish – ikki karra hokimiyatga ega bo'lishni anglatadi.

Global tarmoqning dunyo bo'yicha 3 milliarddan ziyod foydalanuvchilari mavjud. Ularning safida millionlab qabih niyatlarini amalga oshirishda o'ziga o'lja qidirayotgan terror harakatlari vakillari, ekstremistik harakatlar tarafdorlari, narkotrafik xurujlarni keltirib chiqarayotgan guruhlar, dinlararo, millatlararo va davlatlaro nizolarni keltirib chiqarish orqali o'zlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlab kelayotgan vatanfuruslar ham topiladi. Ularning qo'lida har doim ham yovuzlik, johillik, qotillik kabi jinoyatlarni sodir etuvchi qurollar emas, balki undan ham qudratli bo'lgan instruktiv axborotlar manbayi mavjud bo'ladi. Bular – turli mediamahsulotlar, videoroliklar, targ'ibot matnlari, foto mahsulotlar, soxta tahlillar ko'rinishidagi axborotlar hisoblanadi. Bu manbalar shunday qudratga egaki, u orqali insoniyatning o'zi jinoyat quroliga aylanib qolishi mumkin.

Axborot urushida, eng avvalo, psixologik qonuniyatlar inobatga olinadi, chunki uning asosiy mo'ljali – inson ongidir. Informatsion tahdidlarni amalga oshirishda, avvalo, axborot berilayotgan ongni zaharlovchi yovuz kuchga aylanadi.

Axborot – psixologik qurol bo'lib, bu hozirgi kunda eng zamonaviy ommaviy axborot vositalari, kompyuter o'yinlari, Internet tizimi yordamida inson ongi orqali uning psixikasiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangandir. Bunda boshqa bir ijtimoiy guruh manfaatlaridan qat'i nazar, uni o'ziga tobe qilish, o'z qadriyatlariga ko'ndirish, bo'ysundirishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan siyosat amalga oshiriladi.

Bugungi kunga kelib, turli guruhlar o'z g'arazli niyatlarini amalga oshirishda Internetdan faol foydalanmoqda. Jumladan, terrorchi harakatlar umumiy faoliyatining 90 foizi internet, axborot texnologiyalari bilan bevosita bog'liq. Guruhga jalb qiluvchi da'vatlar, harakatga doir videoroliklar, fotojarayonlar veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladi.

Respublikamiz bo'yicha internetdan foydalanuvchilarning qariyb 90 foizi tarmoqqa mobil telefonlar yordamida ulanmoqda. Bevosita tahlillarimizga ko'ra internetdagi ekstremistik harakatlarga qo'shilib qolayotganlarning aksariyati yoshlar va ayollar ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ularning safida o'ziga to'q, namunali oilalarning farzandlari ham borligi bizni yanada ogoh bo'lishga, yon atrofimizga befarq bo'lmaslikni talab qiladi.

Bundan tashqari inson ruhiyatiga shavqatsizlikni, diniy qarama-qarshiliklarni, guruhvozlilikni sindiruvchi kompyuter o'yinlari orqali insonlarni boshqarish urfga aylandi. Bunday dasturchilarning maqsadi nima ekanligini, ushbu o'yinlarni ko'p o'ynash orqali insonlar joniga, hatto o'z joniga osongina qasd qilayotganlarni ko'rib anglash qiyin emas.

MDHning qator mamlakatlari, xususan, Ukraina, Qozog'iston, Rossiya va Qirg'izistonda o'smirlar o'rtasida o'z joniga suiqasd qilish hollari ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. Ularning bunday qaror qabul qilishlari va yosh umrlarini xazon qilishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?

O'z joniga suiqasd qilgan o'smirlarning bir nechasining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari o'rganib chiqilganda, ijtimoiy tarmoqlardagi "o'lim guruhlariga" a'zo bo'lgani, "suiqasd qilish" kitoblarini o'qigani va voqeadan bir necha soat avval guruh tomonidan o'z joniga suiqasd qilish topshirig'i berilganligi aniqlangan.

Dastlab (asosan, V Kontakte), ijtimoiy tarmoqlarda "Ko'k kit" nomi bilan harakatlar olib borgan razil va g'arazli maqsadlar asosidagi guruh tuzilgan bo'lsa, hozirda ko'plab ijtimoiy tarmoqlarda turli nomlardagi shu kabi guruhlar faoliyat yuritib kelmoqda. Tashvishlisi shundaki, minglab hali dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan o'smir yoshlar ularning qurboniga aylanmoqda. 2017-yil yanvar oyining o'zida qo'shni respublikalar va Rossiya FR hududida yuzlab o'smirlarning ushbu o'yin qurboni bo'lganligi kuzatilgan.

Bu kabi guruhlar faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, guruh tashkilotchilari o'smirning o'z joniga suiqasd qilishini "osonlashtirishni" ko'zlaydi. Bu kabi minglab dahshatli kompyuter va mobil o'yinlarni misol keltirishimiz va uni tahlil qilishimiz mumkin.

Yana bir dolzarb mavzu, bu – turli xabarlar orqali inson xarakteriga ta'sir ko'rsatish. Bugungi kunda tez-tez telefonimizda do'stlarimizdan turli nomalar kelib turibdi. Masalan, biror hadisdan rivoyatlar keltiriladi va uni bir necha do'stlaringizga ulashishga da'vat qilinadi. Ortidan tahdid so'zlari keltiriladi, ya'ni agar ushbu noma qabul qiluvchi tomonidan tegishli tartibda tarqatilmasa, uning boshiga mislsiz kulfatlar yog'di-

riladi. Bir qarashda, ushbu nomalarda xavf yoki xatar nimada ekanligini anglashimiz qiyin bo'ladi, ammo, mana shunday tahdidlar asta-sekinlik bilan ongimizni zaharlay boshlaydi. Ya'ni u xabarni o'nlab, yuzlab yaqinlarimizga qayta yuborishni boshlaymiz. Aslida, mazkur xabarlarini tayyorlovchi va tarqatuvchilarning maqsadi ham shu. Ba'zi tahlilchilarimiz buning ortida mobil xizmat ko'rsatuvchilarning iqtisodiy manfaati mavjudligi borligini aytishsa, ba'zilari shunchaki bekorchilarning tashabbusi deyishadi. Aslida esa uning ortida quyidagi o'zgarishlarni sodir etish yotganini tushunishimiz mumkin.

Birinchidan, ushbu manbaning axborotiga, tahliliga shubhasiz ishona boshlaymiz.

Ikkinchidan, axborotlarni atroficha o'rganmasdan turib tarqatishga o'rganib qolamiz.

Uchinchidan, har qanday tahdidlar yuragimizda qo'rquvni paydo qila boshlaydi.

To'rtinchidan, asta-sekinlik bilan yot g'oyalar ta'siriga tushib, ushbu manbalarda keltirilgan qonuniyatlar hayotimizning asosiy mezoniga aylanib boradi.

Farzandlarimizni aniq maqsadlar orqali vatanparvar qilib tarbiyalamas ekanmiz, yoshlarimizni o'zgalar qo'liga berib qo'ygan bo'lamiz. Oilalarda ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, uni diniy ekstrimizm, terrorizm va ongni zaharlaydigan ta'sirlardan va boshqa barcha salbiy ko'nikmalardan asrash uchun zarur bo'lgan sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni barpo qilish maqsadida olib borayotgan ishlar e'tiborga molikdir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida “Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol”, deb, ta'kidlagan edilar.

Demakki, axborot xurujlari tahdididan aholini, ayniqsa, yoshlarni himoyalashda ulardagi ta'lim-tarbiya, mafkuraviy immunitet yuksak ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, har birimiz o'zimizga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan amalga oshirishimiz, doimo ogoh bo'lishimiz zarur bo'ladi. Chunki mafkuraviy tahdidlar qurbonlari siz yoki aynan sizning yon atrofingizdagilardan biri bo'lishi mumkin. Hech qaysi davlat organi, xoh u ta'lim muassasasi bo'lsin, xoh korxonalar yoki oilalar rahbari bo'lsin yakka tartibda insoniyatni ushbu balolardan himoyalay olmaydi. Buning uchun mamlakatdagi barcha tuzulmalar, jamoatchilik, nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari birgalikda harakat qilmas ekan, bu xavfdan nafaqat jamiyatni, balki o'zimizni ham himoyalay olmaymiz.

Mamlakatimizda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashishda “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligidan samarali foydalanish zaruriyati kundalik zaruriy vazifaga aylanganini davr o'zi taqozo qilmoqda. Bu yo'nalishda mamlakatimizda ijtimoiy sherikchilik – o'zaro xamkorlik samaradorligini oshirish omili sifatida yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonuning 14-moddasida joylarda “axborot, maslahat, tashkiliy va o'quv-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash” masalalari belgilangan. Bunda yagona maqsad atrofida birlashish mexanizmi, ya'ni oilalar, maxalla va ta'lim muassasasi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysa, tizimli maqsadlarni birlashtirishga asos bo'lishi aniq.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab mahalla institutini yangicha tarkibiy tuzilmasi tatbiq etildi va unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish

rish bo'limi tashkil etildi. Bu bo'lim mahalladagi mavjud muammolarni o'z vaqtida yechish, zarur bo'lgan vaqtda ko'mak berishi tahdidlarga barham berishda asosiy vosita va maydon bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi dasturida ham mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilgan.

Olib borilayotgan islohotlar mamlakatimiz yoshlarini barkamol avlod, komil inson, sog'lom fikrlovchi shaxslar bo'lib, Vatanga, xalqiga xizmat qiluvchi insonlar bo'lib yetishishi uchun zamin bo'lmoqda. Darhaqiqat, bag'rikenglik o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan oila va mahalla muhitida kamol topadi. Uning xalqimiz ijtimoiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Ota-ona va mahalla faollarining har bir ishda amaliy namuna ko'rsatishlari oila va mahallada ma'naviy tarbiyaning yanada takomillashtirishga hamda talab darajasida bo'lishiga olib keladi.

2017-yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb belgilanishi ham mamlakatimizda mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda hech kimni chekkada turmasligini va har bir fuqaroni mavjud muammoga shaxsiy tanqidiy munosabatda bo'lishi, kuchli intizom va mas'uliyatni yanada orttirishi lozimligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., 1997.*
2. *Maxmudov S.Y., Umaraliyeva M.A., Karimova G.K. Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlardagi informatsiyaviy tahdidlar monitoringi: tahlil, rejalashtirish va amalga oshirish/Uslubiy tavsiyanoma/ S.Y.Maxmudov va b. –T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti bosmaxonasi, 2015, 116 b.*
3. *Otamuratov S. Globallashuv va milliy –ma'naviy xavfsizlik. –T., 2015.*

Tahririyat: *Bugungi globallashuv jarayonining axborot olamida yoshlarimizni informatsion tahdidlardan, g'arazli axborot xurujlaridan himoyalash choralari ko'rish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalardandir. Muallif ushbu maqolasida aynan manashu masalaga to'xtalib, yoshlarda informatsiyalarni saralay olish ko'nikmasini rivojlantirish lozimligini olg'a surgan. Haqiqatdan ham, bunday vazifalar amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.*

Абдулла МАГРУПОВ,
самостоятельный соискатель

СТРАТЕГИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ: ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ И ФУНКЦИИ

Аннотация

Maqolada innovatsion menejmentning ikki turi, ya'ni funksional va strategik menejmentning asosiy tamoyillari va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, muallif innovatsion menejment ma'lum vazifalarni bajarib, innovatsion jarayonlarni amalga oshirishda ta'lim muassasasini boshqarish tizimi tuzilishining shakllantirishini ko'rsatib o'tgan.

Kalit so'zlar. Menejment, strategiya, prognozlashtirish, vakolat berish, motivatsiya, ta'lim sifati, boshqaruv.

В статье представлены основные принципы и функции двух видов инновационного менеджмента – функционального и стратегического. Инновационный менеджмент выполняет определенные функции, которые определяют формирование структуры системы управления образовательного учреждения при осуществлении инновационного процесса.

Ключевые слова. Менеджмент, стратегия, прогнозирование, делегирование, мотивация, качество образования, управление.

Article presents the basic principles and functions of the two types of innovation management - functional and strategic. Innovation Management performs certain functions that determine the formation of the control structure of the system of educational institutions in the implementation of the innovation process.

Key words. Management education, strategy, forecasting, delegation, motivation, management.

Кардинальные преобразования в политической, социально-экономической сферах, духовное обновление общества вызвали необходимость коренных реформ системы образования. Государственные приоритеты в области образования открывают путь для обновления его содержания, ценностей и целей.

Дальнейшая работа по реализации государственных целей, зафиксированных в Законах Республики Узбекистан “Об образовании”¹ и “О Национальной программе по подготовке кадров”², предусматривают совершенствование управ-

¹ Национальная программа по подготовке кадров // Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Ташкент: Шарк, 1997. – С.63.

² Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная модель и программа по подготовке кадров – результат и достижение независимости Узбекистана. – Ташкент: Шарк, 2001, – С.655.

ления системой образования, которое связывается с разработкой механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента, теоретических основ и научно-методическим обеспечением процесса управления, мониторингом его состояния и совершенствованием методов и механизмов прогнозирования развития образования, определяющей миссией руководителя. Стратегический менеджмент (стратегическое управление) распространяется на долгосрочные цели и действия образовательного учреждения. Формулировка стратегии (образа действий) и её чёткий инструментарий являются ядром управления и важным признаком хорошего менеджмента организации. Функциональный менеджмент в образовании нацелен на прогнозирование создания новых систем воспитания и обучения, новых технологий и др., повышение качества учебно-воспитательного процесса и личности выпускника учебного заведения, анализ характера и количества педагогических инноваций, анализ факторов эффективности инновационной деятельности, оперативные решения по разработке, внедрению и освоению новшеств; обеспечение качества учебно-воспитательного процесса и его обновление, контроль исполнительской дисциплины и качества исполнения.

В последние годы теория и практика менеджмента в образовании обогатилась описанием сущности организационных подходов к управлению внутри образовательного учреждения, одним из которых является целевой. Его конкретизация ограничивается организующей ролью целеполагания в управлении, не связанной с системным анализом результата во взаимодействии всех обеспечивающих его факторов. Оперативное управление инновационной деятельностью анализирует возможности, ищет и согласует наиболее эффективные пути и средства реализации принятой стратегии развития образовательного учреждения (ОУ). Оно сосредоточено на формировании образовательных, научных, маркетинговых, а также различных обеспечивающих подсистем учреждения. Деятельность инновационного менеджера предусматривает формирование инвестиционного, продуктового тематического и проектного портфеля ОУ, разрабатывает конкретные мероприятия по оптимальному управлению персоналом.

Анализ научной литературы и состояние педагогической практики свидетельствуют о необходимости осмысления и дальнейшего исследования проблемы интеграции функционального и стратегического менеджмента в системе образования. Необходимо рассмотреть принципы функции и стратегии реализации инновационного менеджмента.³

Принципы инновационного менеджмента – научно обоснованные основополагающие идеи, определяющие цели, формы и способы реализации инновационной активности организаций.

Принцип ориентации на будущих потребителей означает, что будущие доходы организации зависят от тенденции распределения располагаемого дохода будущих потребителей и усилий организации по включению продукции и услуг в сферу интересов будущих потребителей. Применение принципа ориентации на будущих потребителей позволит ОУ активно формировать будущие потребности потребителей, стать активной организацией, формирующей новые рынки и продукты потребления.

³ Симонов В.П. Управление образовательным процессом в средней школе: Методология, теория, технология: Дис. ...д-ра пед. наук. – М., 1992. – С.352.

Принцип лидерства руководства в инновациях означает, что лидеры инновационного ОУ должны быть способны определить будущее предназначение учреждения, выработать стратегию инноваций, добиться реализации инновационных творческих планов развития ОУ.

Третьим принципом инновационного менеджмента, по аналогии с принципами менеджмента качества, может стать принцип вовлечения педагогических работников в инновационные процессы. Инновационные педагоги имеют собственные средства производства, каковыми являются их знания, опыт и умения реализовать свои способности, а поэтому они гораздо более независимы от ОУ, чем их коллеги, не принимающие участия в инновационной деятельности. Соответственно, необходимо принцип вовлечения работников преобразовать в принцип партнерских взаимоотношений с работниками. Это означает, что всем работникам ОУ предоставляется право нестандартного мышления и нестандартных действий, так что работники становятся равноправными партнерами учреждения, и на основе этого партнерства они в максимальной степени раскрывают и реализуют собственные способности.

Следующим принципом инновационного менеджмента может стать принцип подхода как к проекту, в развитии принципа подхода как к процессу, принятого в менеджменте качества. Будущие потребители еще не являются клиентами ОУ, поэтому они не могут быть заинтересованы в существующих процессах, направленных на удовлетворение потребителей, но они могут рассчитывать на завершение инновационных проектов, которые в случае успеха дают им возможность стать существующими потребителями продукции и услуг ОУ. Проектный менеджмент является наиболее приемлемым видом управления для достижения конечного результата инновационной деятельности, для обеспечения концентрации необходимых для этого ресурсов, для обеспечения эффективного достижения заданных конечных результатов.

Пятым принципом инновационного менеджмента является принцип системного подхода к менеджменту, который в соответствии с аналогичным принципом менеджмента качества означает, что определение, понимание и управление системой взаимосвязанных процессов и проектов в соответствии с установленной целью вносят вклад в непрерывное развитие организации. Системный подход к менеджменту создает основы формирования доверия будущих потребителей и вовлечения их в круг настоящих потребителей.

Шестым принципом инновационного менеджмента может стать принцип непрерывных инноваций, в дополнении к соответствующему принципу непрерывных улучшений, применяемому в менеджменте качества. Будущие потребители еще не являются клиентами организации, поэтому они не интересуются непрерывным улучшением продуктов, услуг и процессов, которые в данный момент на них не направлены. Вместе с тем, они не могут оставаться безразличными к непрерывным инновациям, так как успешно реализованные проекты могут сделать их лояльными клиентами ОУ.

Принцип поиска нереализованных возможностей дополняет принцип принятия решения на основе фактов. Завоевание будущих потребителей не может основываться только на фактах. В инновационной деятельности необходимо опираться на прогнозы, предположения, гипотезы и другие порой недостоверные данные. Инновационные ОУ скорее создают новую реальность и соответствующую

щие ей новые факты появления принципиально новых продуктов и услуг, которые ранее не были никем востребованы, нежели используют только существующие достоверные проверенные данные и факты. Инновационные ОУ являются активными “охотниками” за нереализованными возможностями.

Принцип стратегического партнерства заключается в расширении принципа взаимовыгодного отношения с поставщиками, применяемого в менеджменте качества. Стратегическое партнерство шире трактует взаимоотношения и не только с поставщиками, но и с контрагентами, с другими партнерами и остальными заинтересованными в конечных результатах инноваций организациями. Завоевание будущих потребителей является очень масштабной задачей для одного пусть даже очень развитого инновационного ОУ. В таком виде деятельности необходимы альянсы, стратегические объединения, ассоциации, партнеры по стандартизации и сертификации и пр.

Применение предложенных принципов инновационного менеджмента позволит создать систему управления, ориентированную на будущих потребителей. В свою очередь это приведет к значительно более высоким результатам бизнеса, так как вовлечение будущих потребителей обеспечивает рост доходов ОУ, подъем его потенциала, развитие применяемых подходов, изменение в лучшую сторону системы распределения ресурсов, рост мотивации персонала и другие сильные стороны.

Инновационный менеджмент выполняет определенные функции, которые предопределяют формирование структуры системы управления ОУ при осуществлении инновационного процесса.⁴

Выделяют две группы функций инновационного менеджмента: основные и обеспечивающие функции.

К основным относятся:

1) функция прогнозирования предполагает разработку на длительную перспективу кардинальных изменений образовательного, технико-технологического и экономического состояния ОУ в целом и всех его различных систем, и подсистем;

2) функция планирования предполагает объединить в себе весь комплекс работ по выработке плановых заданий в инновационном процессе и по воплощению их в жизнь;

3) функция организации предполагает объединить людей, совместно внедряющих инновационную и инвестиционную программы на базе каких-либо правил и процедур;

4) функция регулирования – это воздействие на объект управления для получения состояния стабильности образовательной, технико- технологической и экономической систем;

5) функция координации – ориентирует на координацию согласованности работ всех участков системы управления, аппарата управления и отдельных специалистов;

6) функция мотивации (стимулирования) – предполагает побуждение и стимуляцию работников;

7) функция контроля – заключается в проверке организации в момент внедрения процесса инноваций на разных его этапах, плана создания, реализации инноваций и т. п.

⁴ Управление качеством образования. Под редакцией М.М.Поташника. – М.: Педагогическое общество России, 2004. – С.448.

К обеспечивающим функциям инновационного менеджмента относят функции, способствующие эффективному осуществлению основных функций: 1) социально-психологические, 2) технологические или процессуальные функции.

Социально-психологические функции менеджмента связаны с состоянием производственных отношений в коллективе. Различают две их разновидности: делегирование и мотивацию.

Делегирование – комплекс управленческих решений, способствующих рациональному распределению работ по управлению инновационными процессами и ответственности за их осуществление между сотрудниками аппарата управления. Делегированием можно считать ситуацию, когда заказчик делегирует полномочия по руководству работами по инновационному проекту руководителю проекта.

Мотивация – создание системы моральных и материальных стимулов для сотрудников организации, обеспечение их профессионального уровня и возможности карьерного роста, т.е. создание условий, оказывающих воздействие на поведение человека.

Процесс организации инновационного менеджмента в образовательных учреждениях состоит из определенных этапов. Подчеркнем, что нельзя путать этапы инновационного процесса и инновационного менеджмента. Инновационный менеджмент - это система управления инновациями, инновационным процессом и отношениями, возникающими в процессе движения инноваций.

Использованная литература:

1. *Национальная программа по подготовке кадров //Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана. – Ташкент: Шарқ, 1997. – С.63.*
2. *Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная модель и программа по подготовке кадров – результат и достижение независимости Узбекистана. – Ташкент: Шарқ. 2001, – С.655.*
3. *Симонов В.П. Управление образовательным процессом в средней школе: Методология, теория, технология: Дис. ...д-ра пед. наук. – М., 1992. – С.352.*
4. *Управление качеством образования. Под редакцией М.М.Поташника. – М.: Педагогическое общество России, 2004. – С.448.*

Абдушоҳид ХАСАНОВ,

старший научный сотрудник-соискатель
института повышения квалификации и переподготовки кадров
системы среднего специального профессионального образования

Илхомжон ХОЛДАРОВ,

преподаватель, Ташкентского финансово-экономического колледжа

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖПРЕДМЕТНЫХ СВЯЗЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

Maqolada fanlarni o'qitishda fanlararo bog'liqlikning didaktik asoslari, o'quvchining bilish faoliyatini ilmiy g'oya va uslublar asosida tashkil etish masalalari ochib berilgan. Shuningdek, o'quvchining amaliy faoliyati idrok etish jarayonida axborotning vazifasi va prinsinlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Fanlararo aloqadorilik, ko'nikma, tushunish, didaktika, komponent, g'oya, tizim, bilim, qobiliyat, jarayon.

В данной статье раскрываются дидактические основы межпредметных связей в предметном обучении, которые позволяют строить познавательную деятельность учащихся на основе общенаучных идей и методов. А также описываются принципы, практическая деятельность учащихся, функции информации в процессе восприятия.

Ключевые слова. Межпредметные связи, обучение, понятие, дидактика, компонент, принципы, система, знание, способности, деятельность.

Article reveals didactic bases of intersubject connections in subject teaching, which allow students to build cognitive activity on the basis of general scientific ideas and methods. Also described the principles, practical activities of students, the function of information in the process of perception.

Key words. Intersubject communications, training, concepts, didactics, component, principles, system, knowledge, abilities, activity.

Исходные позиции в построении учебного предмета были выявлены в середине XX века. М.Скаткин увидел роль межпредметных связей в обеспечении концентризма и системы знаний. Концентризм предполагает “более глубокое и всестороннее освещение фактов, опирающееся на знания, приобретаемые учащимися по данному и другим учебным предметам. Поэтому правильнее было бы сравнивать такое построение программ не с концентрическими кругами, лежащими в одной плоскости, а с движением вверх по спирали”. Это спиралеобразное движение вверх по системе знаний в значительной степени обеспечивается многосторонними связями фактов, понятий, теорий,

идей, изучаемых в разных учебных предметах. Понятие учебный предмет, с одной стороны, уже, чем основы науки, так как включает лишь основы, отвечающие целям общего образования, а с другой стороны, шире, так как содержит и сугубо педагогические средства их усвоения.

В процесс решения межпредметной познавательной задачи учащиеся включают знания и умения, полученные на уроках, их активность зависит и от мотива интереса к соответствующим учебным дисциплинам. Здесь также наблюдается тесная связь между уровнем интереса к предмету, широтой и успешностью использования знаний из него. Учащиеся привлекают новые сведения из дополнительной литературы, находят оригинальные способы их анализа и связи с программным материалом. Отсутствие устойчивых предметных интересов и знаний лишает ученика основы в “межпредметной” деятельности, вызывая подчас негативное отношение к ней. Межпредметные связи на первых этапах включения в познавательную деятельность изменяют соответствие уровней умений и интересов учащихся по предметам. Умения, проявляемые при решении межпредметных задач, начинают в большей степени зависеть от опыта переноса, овладения его способами, чем от ранее сложившегося, но тем не менее подвижного интереса к тому или иному предмету. У одних учащихся под влиянием межпредметных связей повышается интерес к ранее не интересовавшим их предметам, а уровень знаний и умений еще остается невысоким. У других, наоборот, значительно возрастают умения межпредметного переноса, но заметных изменений в развитии предметных интересов не наблюдается. Они сохраняют устойчивость. Это объясняется тем, что межпредметные связи не являются единственным фактором, формирующим познавательные интересы учащихся.

Межпредметные связи позволяют строить познавательную деятельность учащихся на основе общенаучных идей и методов. Они формируют общие способности учиться и раскрывают общие принципы построения науки.¹ Современная дидактика исходит из принципа целостного отражения науки в содержании обучения: как системы знаний, как деятельности, в единстве теории и метода, и как системы её отношений с другими формами общественного сознания и практики. Наука – это и результат познания, и деятельность по приобретению новых знаний. Учебный предмет – это единство знаний, методов и отношений, формирующихся у учащихся в процессе изучения определенной науки, отрасли человеческой деятельности. Рассмотрение учебного предмета на абстрактном уровне в виде обобщенной модели знаний, как бы “вынутым”, изолированным от деятельности и процесса обучения, позволяет вычленив в нем состав знаний: об объекте, способах деятельности, о ценностях. Основанием данных видов знаний служат следующие функции информации в процессе восприятия человеком (Г.С. Сухобская, Ю.А. Шерковин, В.Я. Ядов и др.):

1) эпистемическая, раскрывающая сущность объекта, научные знания о нем с целью показать субъекту, что есть данный объект;

2) инструментальная, показывающая, как установлены знания об объекте, способы познания;

3) мотивационно – оценочная, раскрывающая ценностную сущность знаний об объекте с позиций идеологии общества, мировоззрения ученого, потребностей человека, в результате чего субъект узнает, зачем необходимо изучать данный объект.

¹ Скаткин М.Н. *Проблемы современной дидактики.* – М., 1980.

Каждый элемент информационной структуры учебного предмета, как показывают исследования проблемы, может служить объективной основой межпредметных связей в содержании обучения. В свою очередь, отражая межнаучные идеи, они и являются источником построения содержательной структуры учебного материала, внося в него “межнаучные компоненты” (Б.Г. Ананьев). Итак, межпредметные связи – это особенно значимый в современных условиях научной интеграции фактор формирования содержания и структуры учебного предмета, а сама структура учебного предмета служит одним из объективных источников многообразия их видов и функций. В традиционном делении наук на гуманитарные, естественные, технические отражены объектно – предметные отношения между ними. Такое разделение закреплено в циклах учебных предметов, которые сгруппированы по общности объектов изучения – общество, природа, труд. При этом возникают внутрицикловые и межцикловые связи, систематизирующие знания и умения учащихся вокруг общих объектов познания. Последовательно проводимое совершенствование школьных программ направлено на создание системы взаимно согласованных и взаимодополняющих друг друга учебных предметов. Каждый школьный предмет имеет внутреннюю логику построения, свою структуру, нарушение которой в угоду лишь межпредметным связям может привести к ломке внутрисубъектной взаимосвязи понятий, системы предметных знаний, без которой не может быть прочного усвоения и идей смежных предметов. Учебный предмет неотделим от учебной деятельности. Сущность учебной деятельности многие исследователи видят в усвоении учащимися объективных продуктов социального опыта (В.В. Давыдов, И.Я. Лернер, А.К. Маркова и др.). Существенными продуктами этого опыта являются общенаучные концепции и понятия, которые подлежат усвоению современными школьниками с помощью межпредметных связей. Познавательная деятельность ориентирована на “открытие” новых (объективно или субъективно) знаний и способов. Результат учебной деятельности состоит в изменении самого действующего субъекта, ученика. Результат познавательной деятельности связан с изменением идеальных образов предметов познания. В обучении оба результата неразделимы, так как изменение идеальных образов совершается в сознании ученика, перестраивая его знания, отношения, способы деятельности.² Поэтому учебная деятельность в обучении развивается в учебно-познавательную, в деятельность синтетического характера, объединяющую в себе учебные и познавательные целевые установки. Познавательная деятельность нацелена на преобразование образов (понятий, теорий, законов) объектов реального мира, ранее сложившихся в сознании ученика, что достигается в процессе усвоения новых знаний и способов их получения. Оперирование знаниями при этом совершается во внутреннем плане, и познавательная деятельность ученика носит теоретический характер. Приобретаемые учащимися познавательные умения под влиянием межпредметных связей становятся обобщенными, общепредметными и межпредметными. Практическая деятельность учащихся – это изучение и преобразование реальных объектов путем применения научных знаний с целью получения новых фактов, эмпирических выводов или о вещественных продуктах деятельности. Практическая деятельность учащихся реализуется в конкретных формах:

² Гурьев А.И., *Межпредметные связи – теория и практика // Наука и образование – Горно-Алтайск, 1998 – №2. – С. 204.*

трудовая, физическая, конструктивно – техническая, расчетно-измерительная, вычислительная, экспериментальная, изобразительная, речевая. Осуществляя практическую деятельность учащиеся усваивают правила действий. Алгоритмы операций и соответствующие умения и навыки. Ценностно-ориентационная – это оценочная деятельность учащихся. Она совершается в процессе усвоения ценностных аспектов знаний, мировоззренческих идей, связей между наукой и идеологией, которые служат ориентирами в учебной деятельности учащихся при обучении всем учебным предметам. Учебная деятельность также имеет специфические приемы учебной работы, формирует умения самостоятельной работы с книгой, необходимые для самообразования, а также создает источники межпредметных связей по линии общеучебных умений – организационно – познавательных, библиографических и других (Н.А. Лошкарева). Рассматривая учебную деятельность как систему деятельностей, нельзя забывать о диалектике отношений “деятельность” – “действие”. В процессе учебной деятельности учащиеся могут совершать познавательные, практические, ценностно – ориентационные действия, которые отвечают частным целям усвоения системы предметных знаний. “Смещение мотива на цель” А.Н. Леонтьев рассматривал как основной механизм возникновения нового вида деятельности субъекта. Возникновение у учащихся соответствующих мотивов, потребностей обуславливает их включение в познавательную, практическую, “ценностно-ориентационную” деятельность, когда познание нового, способы действий, ценностные аспекты знаний становятся специальными объектами учения и самостоятельными предметами деятельности. Реализация межпредметных связей ставит задачу изучения деятельности учащихся по усвоению этих связей. Возникает новый компонент учебной деятельности – “межпредметный”. Внутри циклов учебных предметов рождаются “цикловые” умения, в которых наиболее тесно переплетаются общие научные знания, понятия, методы их добывания и средства выражения (язык науки – термины, символы; способы выражения абстракций – модели, идеализации). Морфологическое разделение умений в соответствии с содержанием знаний и соответствующими их видами деятельности (познавательные, практические, оценочные, учебные) пересекаются с их функциональным разделением на репродуктивные, поисковые, творческие и межпредметные (А.В. Усова), которые отражают разный уровень сформированности умений учащихся в процессе учебно – познавательной деятельности. Исследования в области формирования умений учащихся на основе межпредметных связей (Т.К. Александрова) обнаружили взаимодействие общих, особенных и единичных компонентов действий в умении разного уровня обобщенности. Межпредметность умений (и знаний) – это их функциональное качество, приобретаемое в процессе переноса и обобщения способов действий из разных учебных предметов. Межпредметность как качество знаний и умений отражает их генезис, происхождение в процессе научной интеграции, порождение новых знаний и методов на стыке разных наук. Межпредметные умения – это способность ученика устанавливать и усваивать связи в процессе переноса и обобщения знаний и умений из смежных предметов.³

Таким образом, учебный предмет и учебная деятельность являются дидактическими основами определения межпредметных связей именно потому, что они как системные объекты процесса обучения представляют собой единство

³ Усова А.В. Межпредметные связи в преподавании основ наук в школе. Челябинск, 1995 – С. 16.

общего и особенного. Общность структурных компонентов учебных предметов и учебной деятельности служит источником межпредметных связей в процессе обучения. Сравнение основных видов знаний в структуре учебного предмета и в структуре учебной деятельности учащихся выявляет их определенную аналогию. Поэтому межпредметные связи в обучении могут осуществляться в следующих основных направлениях:

- формирование необходимых для становления мировоззрения ученика систем понятий с опорой на научные факты, теории, законы, идеи, общие для смежных научных областей;

- формирование общих для смежных предметов умений, и в первую очередь элементарных на которых базируются более сложные методы усвоения идейных связей между предметами (работать с картой на уроках истории; применять при анализе творчества писателя исторические знания; подбирать физические примеры математических зависимостей и т.п.);

- формирование на базе обобщенных и умений верного оценочного отношения к предметным знаниям, в чем особое значение имеют межцикловые связи и мировоззренческие учебные проблемы;

- формирование политехнических знаний и трудовых умений, требующих комплексного применения знаний основ наук на практике.

Межпредметный характер чаще всего носят уроки, обобщающие учебный материал одной или нескольких учебных тем одного или разных предметов. Межпредметные уроки могут быть вводными или проводиться в процессе изучения учебной темы. Межпредметные связи, осуществляясь в различных формах организации обучения и во внеклассной работе, призваны не разрушать, а укреплять предметную систему обучения. Использование связей между предметами в их различных видах показывает, как можно гибко варьировать содержание и методы предметного обучения, сохраняя при этом специфику отдельных учебных предметов. Межпредметные связи помогают выделить общие идейные основы науки в целом.

Использованная литература:

1. Скаткин М.Н. *Проблемы современной дидактики*. – М., 1980.
2. Гурьев А.И., *Межпредметные связи – теория и практика // Наука и образование – Горно-Алтайск, 1998 №2*. – С. 204.
3. Усова А.В. *Межпредметные связи в преподавании основ наук в школе*. Челябинск, 1995 – С.16.

Маргарита ЦОЙ

старший научный сотрудник

УзНИИП им. Т.Н. Кары-Ниязи, к.п.н.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРОТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

Аннотация

Zamonaviy ta'lim o'quvchilarning shaxsiy yo'nalishi bo'yicha ta'limni tashkil etishi va ularning amalga oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish talab qilinadi. Ushbu maqolada madaniy-ijodiy muhit va loyiha metodi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlari. Madaniy-ijodiy muhit, lohiya metodi, ta'lim jarayoni, ta'lim muassasasi, pedagogik jamoa, loyihaviy faoliyat.

Современное образование требует переосмысления организации образования в плане лично-ориентированной направленности учащихся и создания соответствующих условий для их самореализации. В статье среди таких условий рассмотрены культуротворческая среда и проектный метод.

Ключевые слова. Культуротворческая среда, метод проектов, образовательный процесс, образовательное учреждение, педагогический коллектив, проектная деятельность.

Modern education demands the organization of education in the direction of a personal orientation of pupils and creation of the corresponding conditions for their self-realization. This article is about the cultural-creative environment and projects method.

Key words. Cultural-creative environment, educational institution, educational process, project activity, project method, pedagogical personnel.

Изучение мировых тенденций реформирования сферы образования убеждает в том, что в настоящее время для педагогической поддержки процесса самоопределения учащихся остаются актуальными и перспективными формы и методы, средства и технологии, которые основаны на идеях прагматичной педагогики, носят практико-ориентированный характер и дают возможность школьникам изучить свои возможности и потребности.

Анализ документов, составляющих законодательную базу в области образования и регламентирующих образовательную политику государства подтверждает, что глобальная тенденция гуманизации образования продолжает требовать переосмысления организации образования учащихся в плане большей лично-ориентированной направленности и создания условий для их самореализации.¹

Социальный заказ современности в формировании культурных ценностей, толерантности в условиях многонационального государства, необходимости в социально-активных специалистах, способных к нетиповому решению производственных задач актуализирует задачу изучения оптимальной среды, которая обес-

¹ Конституция Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, 1998. – С.152.

печивала бы возможности для развития творческого и культурного потенциала субъектов образовательного процесса и в условиях которой возможно наиболее эффективно осуществить подготовку востребованных специалистов.²

Культура не передаётся от учителя к ученику непосредственно. Культура вызревает как собственный уникальный образ мыслей и поступков человека, как особенность его внутренней и внешней жизни. Поэтому современная школа должна создавать условия для учащегося, в которых он сам начинает действовать культурно, творчески используя выбираемые им ценности, нормы, знания и образцы. Современные реалии требуют, чтобы образовательное учреждение (ОУ) было ориентировано на формирование открытой образовательной системы, воплощающей в себе единство основных сфер жизнедеятельности человека – культуры, экономики, науки, – а выпускник был конкурентоспособным, обладал опытом творческой деятельности, осмысленно и продуктивно реализовывал полученные знания на практике.

В современной науке было предпринято множество попыток преобразования образовательной среды. Образовательная среда обладает большой мерой сложности, поскольку имеет несколько уровней – от республиканского до основного своего первоэлемента – образовательной среды конкретного учебного заведения и класса. Специфика уровней определяется условиями жизни сообщества, его отношением к потребностям сфер культуры и образования. Комплексно решить эту проблему можно только при условии создания оптимальной среды в ОУ, способной удовлетворять требованиям современного образования и функционирующую наряду с образовательной средой, взаимодействуя с ней. Значит, необходимо определить, какая среда будет наиболее оптимальной для реализации процесса саморазвития педагогического коллектива (ПК), будет способствовать эффективности его деятельности в решении задач, поставленных современной концепцией образования.

В связи с укреплением позиций гуманистического образования встают задачи проектирования и формирования новой среды, адекватной современным потребностям учащихся и соответствующей тенденциям развития современной культуры, экономики, производства и технологий. Поэтому нужна и разработка гибкого средового подхода, ориентированного не столько на объектный мир, сколько на развитие мира коммуникаций, связей и взаимоотношений в образовательных системах; на предметное и коммуникационное обеспечение развивающей и организующей среды. Проектирование культурной педагогической среды в практике школы может стать важным показателем эффективного развития современного ОУ.³ Проектирование образовательной среды предполагает продуманную организацию всех сфер жизни школы для разнообразной деятельности сообществ, широкое практическое использование системы высокотехнологического оборудования и коммуникаций. Преобразование среды поможет становлению иного культурного типа образования, иного культурного образа жизни школы.⁴

Претендовать на роль оптимальной может культуротворческая среда (КТС). Создать КТС в системе образования, значит, способствовать реализации гуманистической концепции образования, её целей, задач на всех этапах педагогического

² Джураев Р.Х., Медетова Р. Формирование толерантности у обучающихся на основе ценностных ориентаций // Узлуксиз таълим. 2017. № 1. – С. 85-90.

³ Иванов А.В. Культурная педагогическая среда общеобразовательного учреждения как условие развития личности ребенка: Монография. – М., 2005. – С.143.

⁴ Проект создания культуротворческой среды в педагогическом коллективе: Научно-методическое пособие для педагогов и психологов / Джураев Р.Х., Цой М.Н., Стыркас И.Н. и др. – Ташкент: УзНИИПН, 2015. – С.160.

процесса, поскольку сегодня в образовании устанавливаются субъект-субъектные отношения, которые могут получать воплощение и развитие только при создании соответствующей среды.⁵

Будущее образования – это будущее страны. Если понимать под исследованием способ получения нового знания, то исследование – один из базовых видов образовательной деятельности, используемых в процессе обучения. Новые реалии, появляющиеся в жизни человечества, рождают новые подходы к изучению факторов, обуславливающих эффективность образовательного процесса. Среди них следует выделить КТС и использование проектного метода в школе.

Разделяя основную направленность метода проектов (МП) и связывая с ним задачи гармоничного воспитания личности в новых социально-исторических и культурных условиях, вспомним, что в основе проектной деятельности лежит системно-деятельностный подход как принцип организации образовательного процесса. Подготовка проектов мотивирует к углубленному изучению тем, тесно связанных с областью проекта. При этом неважно в какой предметной области выполняется проект, т.к. в каждом исследовании для успеха требуются глубокие знания, которые приобретаются и закрепляются в ходе подготовки и реализации проектов. Строя различного рода отношения в процессе занятий проектной деятельностью, учащиеся овладевают нормами взаимоотношений с разными людьми, умениями переходить от одного вида общения к другому, приобретают навыки индивидуальной самостоятельной работы и сотрудничества в коллективе. Так у учащихся формируются именно те качества, которые востребованы современным обществом и которые позволяют добиваться успехов в различных сферах жизни – коммуникабельность, самостоятельность, сотрудничество. Защита проектов и обоснование их значения для целевых групп формируют у учащихся нравственные ценности, укрепляют морально-волевые качества. Забегая вперёд, отметим, что формирование необходимых для успешной самореализации качеств личности в проектной деятельности происходит намного интенсивнее, чем в традиционном обучении.

Основная идея использования МП для формирования КТС в школе – это: воспитание личности с активной жизненной позицией, развитие познавательного интереса и повышение образовательного уровня учащихся, формирование навыков исследовательской и проектной деятельности участников образовательного процесса⁶.

Учитывая многообразие ценностно значимых задач, решение которых возможно методом проектов, а также опираясь на богатый эмпирический материал, полученный в ходе экспериментального исследования, составлен перечень показателей, характеризующих качественно-интегративные критерии, обуславливающие КТС педагогического коллектива (ПК):

– качество усвоения и применения знаний о проектировании (когнитивный критерий), т.е. результат мыслительной деятельности как усвоение теорий, концепций, терминов, методологии проектирования;

– степень проявления ценностной активности в проектировании (мотивационный критерий) как совокупность потребностей личности к созданию новых технологий и решению значимых проблем МП, которые, в свою очередь, стимулируют развитие школьного образования;

⁵ Макареня А.А. Культуротворческая среда: статус, структура, функционирование. – Тюмень: ТОГИРРО, 1997. – С.66.

⁶ Использование метода проектов в формировании культуротворческой среды в педагогическом коллективе: Науч.-методич. пособие для педагогов и психологов. / Джураев Р.Х., Цой М.Н., Стыркас И.Н. и др. В 2-х частях. – Т.: УзНИИПН, 2016.

-
- оценка значимости и соответствия целей проектной деятельности потребностям ПК и этическим нормам (ценностно-этический критерий);
 - экспертная оценка проектной деятельности (деятельностный критерий);
 - оценка перспектив проектной деятельности, постановка целей нового уровня (рефлексивный критерий).

Таким образом, выявленные в исследовании критерии и показатели становления проектной культуры педагогов определяют содержательное наполнение, качественные характеристики и индивидуальный уровень становления когнитивного, мотивационного, ценностно-этического, деятельностного и рефлексивного компонентов КТС.

В свою очередь, готовность к освоению теоретических знаний и практических умений, необходимых в проектной деятельности, осознание смысла МП, сформировавшиеся потребности в решении лично значимых проблем, восприятие проектирования как необходимого и значимого элемента профессиональной деятельности, степень проявления активности, оценка значимости и соответствия целей проектной деятельности потребностям ПК, экспертная оценка самостоятельной проектной деятельности, наличие установки на саморазвитие и саморегуляцию собственной проектной деятельности позволяют определить уровень становления проектной культуры ПК в целом.

Анализ теоретического аспекта и различных позиций исследователей относительно законов саморазвития ПК показал, что основными его показателями являются внутренние изменения субъектов – членов ПК – и изменения в их межличностных отношениях. Эти параметры определены нами точкой отсчёта в рассмотренных подходах к саморазвитию ПК. Поэтому предметом исследования является личность, а именно, её саморазвитие, отражающееся на сфере её профессиональных взаимоотношений. Учитывая, что личность – субъект социальный, а сферой её функционирования является ПК, наше исследование сосредоточилось в двух главных направлениях: личности и коллективе. Это позволило выделить и два основных критерия: личностный и социальный.

Рассматривая именно качественные изменения во взаимоотношениях между субъектами, а в определении показателей саморазвития коллектива опираясь на деятельностный подход, в основном на использование МП, не только в учебно-воспитательном процессе учащихся, но и в профессиональной деятельности учителей, остановимся на концептуальных положениях, необходимых для определения показателей саморазвития ПК.

В основе рассматриваемого подхода лежит принцип деятельности, поскольку она создает условия для процесса интеграции и дифференциации межличностных отношений, принимает для членов группы значимый и определённый характер, становится базой для дальнейшего развития ПК. Социальный критерий предполагает рассмотрение межличностных отношений в контексте социокультурного окружения и получение целостной картины саморазвития ПК как социального организма. Личностный критерий позволяет сконцентрировать внимание на потенциале субъектов и эффективности его использования, то есть, с одной стороны, на тех частных субъективных проявлениях, которые могут оказывать влияние на саморазвитие ПК, с другой, – на совокупности личностных проявлений, их доминировании и общей выраженности в ПК как социальном организме, к которому они принадлежат. Личностный и социальный критерии рассматриваются нами во взаимосвязи и их взаимозависимости друг от друга.

Рассмотрим последовательно возможные проявления этих критериев.

Так как в качестве платформы мы определили область деятельности, существенную роль в процессе саморазвития ПК играет его социально-психологический климат, поскольку он оказывает свое непосредственное влияние на развитие межличностных отношений. Следовательно, его стабилизация или улучшение может создавать и определять условия для совместной деятельности. Таким образом, социально-психологический климат определяется нами как качественная характеристика межличностных отношений, которая способствует саморазвитию субъектов, а в процессе совместной деятельности способствует или препятствует саморазвитию ПК.

Для формирования КТС в школе создаются условия посредством организации проектной деятельности на всех уровнях, проведения серии семинаров-тренингов и практикумов в экспериментальных классах и в ПК по улучшению психологического климата с целью сплочения коллектива. Опыт показывает, что очень редко индивидуальные способности и инициативы могут быть успешно реализованы, если они изолированы друг от друга. В организации и обеспечении проектной деятельности участвуют все педагогические структуры ОУ, включая администрацию. Определяющим элементом КТС являются те уникальные отношения между её субъектами, которые направлены на развитие и саморазвитие личности. Они пронизывают все компоненты КТС школы. Именно эти отношения создают тот особый образ жизни, в котором творчество, социальные инициативы, познавательная активность, взаимопомощь и сотрудничество учащихся и педагогов, работающих над общим проектом, без всякого принуждения привлекают новых участников образовательного процесса, закрепляются в деятельности и постепенно переходят в традиции.

Помимо развития индивидуальной инициативы педагогов современное ОУ должно уметь объединять и усиливать её, встраивая возникающие в ходе реализации различных проектов связи и отношения в постоянный процесс обучения, повышения квалификации, обмена передовым опытом, освоения лучшей практики. Это поможет ОУ стать не только обучающей, но и обучающейся организацией, обеспечивая подлинный прогресс своего развития.

Использованная литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. – Т.: Адолат, 1998. – С.152.
2. Джурраев Р.Х., Медетова Р. Формирование толерантности у обучающихся на основе ценностных ориентаций // Узлуксиз таълим. 2017. № 1. – С. 85-90.
3. Иванов А.В. Культурная педагогическая среда общеобразовательного учреждения как условие развития личности ребенка: Монография. – М., 2005. – С.143.
4. Проект создания культуротворческой среды в педагогическом коллективе: Научно-методическое пособие для педагогов и психологов / Джурраев Р.Х., Цой М.Н., Стыркас И.Н. и др. – Ташкент: УзНИИПН, 2015. – С.160.
5. Макареня А.А. Культуротворческая среда: статус, структура, функционирование. – Тюмень: ТОГИРРО, 1997. – С.66.
6. Использование метода проектов в формировании культуротворческой среды в педагогическом коллективе: Науч.-методич. пособие для педагогов и психологов. / Джурраев Р.Х., Цой М.Н., Стыркас И.Н. и др. В 2-х частях. – Т.: УзНИИПН, 2016.
7. Формирование культуротворческой среды и использование метода проектов для саморазвития коллектива школы: Научно-методическое пособие для педагогов. / Джурраев Р.Х., Цой М.Н., Иноятова М.Э. и др. – Т.: Fan va texnologiya, 2017. – С.265.

Нилуфар РЕЖАМЕТОВА,

старший научный сотрудник-соискатель института повышения квалификации и переподготовки кадров системы среднего специального профессионального образования

ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ МУЗИЦИРОВАНИЯ НА УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ

Аннотация

Maqola Vatanimiz pedagogikasi uchun dolzarb muammo – maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy rivojlantirishga bag'ishlangan. Muallif ilk yoshdagi bolalarni o'zbek xalq cholg'ularini chalishga o'rgatishning batafsil ishlab chiqilgan innovatsion metodikasini taklif qilgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, ijrochilik, ijodkorlik, qobiliyat, tarbiya, o'qitish, ta'lim, repertuar, tizim, takomillashtirish, jamoa, orkestr, ansambl.

Статья посвящена актуальной проблеме отечественной педагогики – духовному развитию дошкольников. Автор предлагает тщательно разработанную инновационную методику обучения детей раннего возраста игре на узбекских народных музыкальных инструментах.

Ключевые слова. Духовность, музицирование, творчество, способность, воспитание, обучение, образование, репертуар, системность, совершенствование, коллектив, оркестр, ансамбль.

Article is devoted to the actual work of the problem of domestic pedagogy, the spiritual development of preschool children. The author offers a carefully developed innovative method of teaching young children on Uzbek folk musical instruments.

Key words. Spirituality, playing music, creativity, ability, education, training, education, repertoire, system, improvement, collective, orchestra, ensemble.

Духовное развитие общества – одна из самых важнейших проблем мирового сообщества. Сегодня в аспекте продвижения Узбекистана в мировое сообщество мы можем говорить о том, что духовное развитие формирует нацию, и благодаря успешной политике государства в духовном развитии личности укрепляется значимость интеллекта. Фундаментальный труд первого Президента Ислама Каримова “Высокая духовность – непобедимая сила”¹ является уникальным трудом, в котором научно сформулирована основа духовности, опираясь на которую, мы утверждаем идентичность, самодостаточ-

¹ Каримов И. Юксак маънавият – энгилмас куч.– Тошкент: Маънавият, 2009. 179-б.

ность и величие узбекских традиций. Ключевые положения этой книги раскрываются во всех сферах образования, обучения, воспитания и для нас педагогов музыкального направления, эта книга особенно, важна в воспитании национальной ментальности, патриотической и гражданской позиции в опоре на национальное наследие, которые следует формировать уже в дошкольном возрасте.

На необходимость совершенствования системы духовного и нравственного воспитания подрастающего поколения, указывает глава нашего государства Шавкат Мирзиёев, настоятельно требуя качественного процесса формирования людей нового поколения: “Наши дети должны быть сильнее, умнее, мудрее и, конечно же, счастливее нас”². Именно средствами приобщения детей к музыке и особенно к музицированию на узбекских народных музыкальных инструментах достигаются высокий качественный уровень в развитии личности и интеллекта дошкольников. В этом направлении большой вклад в духовное развитие молодёжи внёс заслуженный работник культуры Узбекистана, профессор Ливиев Анвар Хакимович.³ Он разработал структуру детских узбекских народных инструментов в соответствии с методикой обучения игре на них. Комплект состоит из узбекских народных инструментов для дошкольников и учащихся начальных классов: нагара, дойра, сафоиль, кутича (коробочка), дутар, рубаб, саз, танбур, канун. Это направление представляется очень плодотворным, перспективным, в котором и работает автор этих строк с организованным им ансамблем “Асалои” (“Пчелка”).

Сущность нашей методики направлена на развитие духовности и творчества, которое достигается в процессе осмысленного подхода к музицированию на узбекских народных инструментах в контексте игрового начала. Отрадно, что первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов в своём труде “Высокая духовность – непобедимая сила” обратил внимание на значимость детских национальных игрушек и их роль в развитии образного мышления в духовном воспитании ребёнка. В решении этой проблемы не только педагог и воспитатель, но и психолог, дизайнер должны глубоко знать национальную историю, культуру, традиции.

В процессе музицирования ребёнок открывает для себя мир национальной музыки, осознанно ощущает специфику ритмов, красоту звучания музыкальных инструментов. Для многих детей игра на узбекских народных музыкальных инструментах помогает передать их чувства, развивать внутренний духовный мир. Это прекрасное средство не только индивидуального развития, творческой инициативы, но и сознательных отношений в коллективе между детьми.

С музыкальными инструментами следует знакомить дошкольников на музыкальных занятиях с учётом возрастных особенностей. Здесь же происходит обучение игре на узбекских народных музыкальных инструментах и исполнение произведений в соответствии программой “Болажон” (“Детство”).

Работу по обучению детей игре на узбекских народных музыкальных инструментах необходимо проводить организованно и последовательно. Знакомство с инструментами осуществляется как на музыкальных занятиях, уделяя обучению 5 – 7 мин, так и во время индивидуальной работы, уделяя обучению 15 – 20 мин. За-

² Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон Давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016. 39-40-б.

³ Ливиев А. Ўзбек халқ чолғуларига ижрочилик. – Т.: Мехнат, 2001. 134-б

дача музыкального руководителя состоит в том, чтобы развить у детей общую музыкальность, которая будет фундаментом, почвой для формирования интеллекта. Важным условием является отбор методов и приёмов, способствующих творческому развитию: Это:

- Наглядные—DVD, мультимедия, иллюстрации, раздаточные материалы;
- словесные –рассказ, сказки, беседы, пояснение, вопросы и ответы;
- практический—исполнение, импровизация, музицирование, игры;

Использование разнообразных методических приёмов способствует разнообразию индивидуальных подходов на занятиях. Обучение игре на узбекских народных музыкальных инструментах в процессе занятий требует немало времени, поэтому мы пересмотрели плотность занятия, тщательно продумали его проведение, чтобы оставалось время на этот вид деятельности. Важно заранее, подготовить к занятиям необходимые пособия, музыкальные инструменты, подобрать музыку для слушания. Задания следует объяснять четко и кратко.

Целесообразно начинать обучение с группы ударных инструментов(кутича, сафоил, нагора дойра) не имеющих звукоряда. Занятия проводятся с небольшими группами детей и индивидуально. Желательно использовать музыкальные инструменты и в повседневной жизни, чтобы закрепить у ребят появляющееся ощущение ритма музыки. Процесс обучения детей игре на струнных узбекских народных музыкальных инструментах (канун, танбур, саз, рубаб и дутар) подразделяется на три этапа:

- ознакомление с особенностями мелодии и приёмами звуко-извлечения на струнных инструментах, которые будут использоваться для её воспроизведения;
- разучивание мелодии (по слуху, по нотам, по цифровой или цветовой системе), отработка исполнительских приёмов, работа над выразительностью исполнения;
- целостное воспроизведение мелодии на инструменте.

Планомерные и систематические занятия в ансамбле способствуют организованности детского коллектива, а также интенсивному и плодотворному развитию музыкальности. Правильно разработанная система обучения игре на музыкальных инструментах, педагогически адаптированная к условиям проведения коллективных занятий для начинающих(в ансамбле или оркестре) способствует более эффективному проведению занятий. Учебный материал распределяется таким образом, чтобы каждое последующее занятие было продолжением предыдущего, новые задания на начальном этапе были небольшими по продолжительности.

Духовное воспитание дошкольников посредством игры на узбекских народных инструментах в соответствии со спецификой дошкольного образования; обусловило необходимость разработать методику, направленную на развитие ладового, ритмического и мелодического слуха, улучшение качества пения, музыкально-ритмических движений, обновление построения образовательного процесса на адекватных возрасту формах работы с детьми.⁴

При ознакомлении детей с узбекскими народными инструментами, с использованием современных информационных коммуникационных технологий (мультимедийная система; видео-фото презентация, DVD ,CD диски). Важно решить следующие задачи:

⁴ Rejametova N. O'zbek xalq cholg'u asboblari chalishni o'rgatish metodikasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.83-b

– развить тембровый слух и общие музыкальные знания детей; научить по слуху и зрительно различать основные группы узбекских народных инструментов;

– дать представление об основных особенностях строения инструментов, звуко-извлечения и приемах игры.

– освоить ударные инструменты без определённой высоты звука (кутича (коробочка), нагара, сафаил, дойра).

– освоить струнные инструменты (канун, саз, дутар, танбур, рубаб).

– ознакомить детей с музыкальным материалом: узбекские народные мелодии, инструментальные наигрыши, классическая музыка, несложные произведения узбекских композиторов

– формировать у детей навыки игры в ансамбле; умение слушать себя и других, играть с динамическими оттенками.

– исполнять разученные произведения на детских праздниках, совершенствовать навыки коллективной игры.

Важную роль в духовном развитии дошкольников в процессе музицирования на узбекских народных музыкальных инструментах играет правильный выбор репертуара музыкальным руководителем. Он должен отличаться высокими художественными качествами и доступностью учебный – репертуар составляется из узбекской классической музыки, народной музыки и произведений современных композиторов. В качестве примера можно привести узбекские народные мелодии “Ялламаёрим”, “Андижанскую польку”, произведения “Бувижон” Венеры Рузметовой, “Боғча опам” Мавлюды Икрамовой, “Неваралар қўшиғи”, “Наврўзим шўх созим” Надима Нарходжаева.

В произведениях, предназначенных для ансамбля, необходимо учитывать исполнительские возможности детей. Диапазоны мелодий должны быть небольшими, а сами мелодии построены на поступенных ходах или небольших интервалах с повторяющимися оборотами; фактура должна быть достаточно прозрачной, ритмические рисунки несложными. Если динамика развития музыкальных образов требует изменения их характера, то изменение это должно быть очень четким. Все эти пожелания вызваны тем, что у дошкольников внимание еще неустойчиво, они слабо владеют техникой игры. Главная же задача педагога — обучить детей игре на узбекских народных инструментах и тем самым заинтересовать их музыкой, вызвать желание самостоятельно музицировать.

Духовное развитие дошкольников в процессе музицирования на узбекских народных музыкальных инструментах происходит по следующим направлениям:

- тесная взаимосвязь возрастной детской психологии развития и учебно-музыкальной деятельности;

- развитие в детях духовной сопричастности, сострадания;

- предоставление музыкальному руководителю возможности искать свой собственный стиль работы экспериментировать в музыкальной педагогике и радовать себя общением с детьми и музыкой.

Таким образом, на занятиях в ансамбле узбекских народных инструментов осуществляется: игровая, коммуникативная (общение и взаимодействие с взрослыми и сверстниками), познавательная-исследовательская, музыкальная и двигательная деятельность; способность общения, взаимодействие с детьми и взрослыми, развитие социального и эмоционального интеллекта, эмоциональной

отзывчивости. Игра в ансамбле формирует духовный иммунитет, готовность к совместной деятельности со сверстниками, формируется уважительное отношение и чувство принадлежности к сообществу детей и взрослых. Следовательно в этом процессе формируются позитивные установки к деятельности, развивается устойчивый интерес к инструментальному музицированию, как форме коллективной художественно-эстетической деятельности.

Обучение дошкольников музицированию на узбекских народных инструментах способствует духовному развитию ребенка: развитию воображения и творческой активности; формированию первичных представлений об объектах, свойствах и отношениях (форма, ритм, темп, число, часть, целое, движение и покой). Оно способствует развитию фонематического слуха, слухового внимания, различению на слух различных инструментов, координации движений; формированию элементарных представлений о видах искусства. Музицирование на узбекских народных инструментах также способствует проявлению индивидуальных качеств дошкольника: наличие воли, эмоциональности, сосредоточенности; преодоление нерешительности, робости, неуверенности в своих силах.

Развивая практику музицирования дошкольников на узбекских народных инструментах, целесообразно использовать различные виды музыкально-дидактических игр: на развитие звуковысотного слуха, чувства ритма, тембрового слуха, памяти и слуха, детского творчества. Применение на музыкальных занятиях инновационных технологий, совершенствование методики обучения дошкольников обеспечивает разностороннее развитие личности ребенка благодаря тесной взаимосвязи эстетического воспитания с нравственным, умственным, физическим. При использовании узбекских народных инструментов, доступных дошкольному возрасту, с учётом творческих возможностей ребенка достигается гармоничность музыкально-эстетического и духовного воспитания, а, следовательно, решение главной цели работы музыкального руководителя-научить детей любить и понимать музыку, быть духовно развитыми и духовно богатыми людьми. Тем самым значение музыки в жизни ребенка выходит далеко за пределы искусства. Музыка проникает во все сферы воспитания и образования как действенный фактор формирования духовного мира, человека.

Использованная литература:

1. Karimov I. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Mana'viyat, 2008.179-b.
2. Мирзиёев Ш. *Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон Давлатини биргалликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи.* – Т.: Ўзбекистон, 2016.39-40-б.
3. Ливиев А. *Ўзбек халқ чолғуларида ижрочилик.* – Т.: Мехнат, 2001. 134.
4. Rejemetova N. *О'zbek xalq cholgu asboblarini chalishni o'rgatish metodikasi.* – Т.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2014.-83b
5. Мурадова З. *Детская песня в творчестве композиторов Узбекистана.* – Т.: Baktriapress, 2015. – С.240.

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas'ul kotib:

Tashxanov Nurbek Aybekovich

Badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay'ati:

Ulug'bek INOYATOV, Sobitxon TURG'UNOV, Dilshod KENJAYEV, Risboy JO'RAYEV,
Hikmatilla RASHIDOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ma'rufjon VAXOBOV, Sharifjon ERGASHEV,
Fayzulla AHMEDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV, Islom ZOKIROV,
Alisher ZOKIROV, Hikmatilla DAMINOV

Jamoatchilik kengashi:

Nargiz RAXMANKULOVA, Qudratjon INOQOV, Bahodir SHAMSIYEV,
Norbek TAYLAQOV, Muhammadjon QURONOV

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel.: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"MAKTUB PRINT" MCHJ va "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ
bosmaxonalari hamkorligida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, TAKD, 11/10

Bosishga ruxsat etildi: 19.10.2017-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi 20 294 nusxa. 574-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna